


BOLALAR ADABIYOTI TURKUMIDAN

Otabek Quvvat OLIMJONNING SARGUZASHTLARI

YOXUD
ZAMON VA MAKON ORALIG'IDA




OTABEK QUVVAT

OLIMJONNING SARGUZASHTLARI

YOXUD
ZAMON VA MAKON ORALIG'IDA


(Sarguzasht-fantastik qissa)



„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2019

Yozuvchi Otabek Quvvatning „Olimjonning sarguzashtlari yoxud zamon va makon oralig'ida“ asari sarguzasht-fantastik qissa bo'lib, uni o'ziga xos badiiy qimmatga ega deyish mumkin. Unda bir guruh o'smirlarning boshidan kechirgan sarguzashtlari orqali bolalarni yaxshilikka, ezgulikka undash g'oyalari qalamga olingan. Kitob qahramoni Olimjon — a'lochi o'quvchi. Kitob o'qishni, kompyuterda dasturlar bilan ishlashni juda yoqtiradi. U yangi dastur yaratish orqali dunyoni yovuzlikdan, yomonliklardan xalos qilmoqchi bo'ladi. Shu maqsadda sirli kalitni izlab topish uchun olamlararo sayohatga yo'l oladi. Bunda unga Doniyor hamda Turg'un ismli yaqin do'stlari yordam beradilar.

Asarda Olimjonning sarguzashtlari, qahramonliklari, jasorati qiziqarli voqealarda tasvirlanadi.



ISTE'DOD QIRRALARI

Yozuvchi Otabek Quvvatning „Olimjonning sarguzashtlari yoxud zamon va makon oralig'ida“ asari o'zbek xalq ertaklari asosida, qisman fantastika janrida yozilgan. Muallifning avval ham e'lon qilingan kichik-kichik ertaklarini, bolalarga bag'ishlangan she'riy kitoblarini o'qigan edim. Otabek bu gal katta hajmdagi asarga qo'l urgan ekan, dadilligi uchun tabriklash kerak.

Iste'dod qaysi ko'rinishda yuz ko'rsatayotgan bo'lmasin, u o'ziga nisbatan mehr-muhabbat va e'zozni talab qiladi. Otabekning xalq ertaklari uslubida fantastikaga qo'l urishi bejiz emas. Avvalo, shuni aytish kerakki, bugungi o'zbek bolalari adabiyotida fantastika janrida yangi-yangi asarlar kam yaratilmoqda.

Bolalar adabiyotiga bo'lgan talab to'xtamay o'sib borayotgani hech kimga sir emas. Buni hisobga olgan hushyor, tadbirkor noshirlar chet el ertaklarini tarjima qilib, chop etishmoqda. Lekin bolalar qalbi, ongi, ruhiga o'z ona tilida, milliy xarakterda yozilgan asarlar ko'proq ta'sir qiladi. Birovning bolasini birovning otasi tarbiyalamasin, degan hazilnamo gaplar ham bejiz aytilmagan. Shu ma'noda, yosh yozuvchi Otabek Quvvatning ushbu asarini o'z vaqtida yozilgan asarlardan biri deb hisoblayman.

„Olimjonning sarguzashtlari yoxud zamon va makon oralig'ida“ asari xayolotga berilgan oltinchi sinf o'quvchisi Olimjonning ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi olishuvda yaxshilik g'alaba qozonishi uchun ajoyib sarguzashtlarni boshidan kechirganligi hikoya qilinadi. Bilamiz, o'n ikki yoshli bolalarda, ayniqsa, o'smirlik

pallasida xayolotga berilish kuchli bo‘ladi. O‘zida kuch topib, tog‘larni tolqon qilsam, cho‘l-u biyobonlarga suv chiqarib, olamni guliston qilsam deydi. Kuchli xayolotga berilgan o‘smir zamon bilan makonning farqiga bormay qoladi. Ushbu asar qahramoni ham o‘zi axtarayotgan „Ezgulik“ kitobini topish uchun va o‘sha kitob bekitilgan kutubxona qulfini ochish uchun kalit izlab, yana va yana xayolga beriladi. Odamlar ming yillardan buyon yovuzlikka qarshi kurashayotgan ekan, demak, ularning bu boradagi tajribasi haqida esdaliklar ham qolgan bo‘lishi kerak, shu esdaliklar yozilgan kitobni, albatta, topaman, degan niyatda dunyo sayohatiga chiqadi. Natijada, ertakka, fantastikaga xos voqealarni boshidan kechiradi. Odil podshohlarni, el uchun kurashgan To‘qson bobo kabi donishmandlarni ko‘radi. Kitob bekitilgan xazina kalitini axtaradi. Bunday paytda zamon va makon qorishib ketadi. Goho qadimgi Rimda bo‘ladigan gladiatorlar jangida, goho dushmani daf qilish uchun podshohlar tomonida bo‘ladi. Nihoyat, qahramonimiz buyuk alloma, bobomiz Al-Xorazmiy hazratlari bilan suhbatlashish baxtiga muyassar bo‘ladi.

— Ey o‘g‘lim, sen izlayotgan kitob va xazina kalitlarining hammasi ilm-fanda, donishmand otalarda, eng muhimi, algoritm qatorlarida. Ya‘ni ilmni, fanni chuqurroq egallagan kishi nimani axtarsa, uni fandani, ilmdan va donishmand bobolarning hikmatlaridan topadi. Ezgulik kitobini egallaganlar jaholatga qarshi kurashganlar hisoblanadi, — deydilar bobomiz.

Asar qiziqarli sarguzashtlarga, hayajonli, mazmunli suhbatlarga boy. Bora-bora donishmandlarning hikmatlari bilan to‘lib, yanada boyib boradi. Mana shularni hammasi asarni o‘qishli va ta’sirchan qilgan.

Yosh muallifning ijodiga omadlar tilayman.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi
Xudoyberdi To‘xtaboyev

Glimjonning sarguzashtlari yoxud zamon va makon oralig'ida



MENI KICHIK OLIM DEYISHADI

Assalomu alaykum, do'stim! Ahvollaringiz qalay? Yaxshi yuribsizmi? Keling, tanishib olaylik. Ismim — Olimjon. Oltinchida o'qiyman. Men olamga mashhur bo'lgan buyuklar yurti Buxoro tomondanman, biz tomonlarni Qiziltepa deyishadi. Bu yerdan qadimda ko'plab karvonlarga xizmat qilgan Buyuk ipak yo'li o'tgan. Ha, biz tomondan-chi, Zarafshon daryosi ham oqib o'tadi. Aytishlaricha, ana shu Zarafshon daryosining ostida oltin darvoza bor emish. Undan qadimiy afsonaviy shaharga kirilarmish. Lekin bu shahar haqida hech kim hech narsa ayta olmaydi. Biznikiga mehmonga kelmoqchi bo'lsangiz, Buyuk ipak yo'lidan, katta-katta karvonlar qatnagan yo'lidan o'tasiz.

Jizzax tog'laridagi dovondan tushganingizdan so'ng, mashinada bir soat yursangiz, go'zal Samarqandga yetasiz. So'ng yo'l ikkiga bo'linadi, bir tomoni Samarqandga, ikkinchi tomoni esa, Buxoroga boshlaydi. Esingizdami, haligi, sehrli qalpoqchasi bilan sarguzashtlar ko'rsatgan Hoshimjon bor-ku, shu bolaga juda havasim keladi-da, dunyoga nomi ketgan mashhur bola. Nima deyayotgan edim, ha, Buxoroning yo'lidan to'g'ri yurib, bir necha shahar va qishloqlardan o'tgach, Navoiy shahriga duch kelasiz, undan o'tib, Qiziltepa shahriga yetasiz. Qiziltepadan o'ngga burilib, yigirma daqiqqa yursangiz

Zarafshon daryosi keladi, ko'prikdan o'tsangiz bas, bizning qishloqqa yetib kelasiz.

Hoshimjon bilan kamina — Olimjon boshqa-boshqa viloyatlardan bo'lsak-da, ismlarimiz bir-biriga yaqin, o'xshab ketadi. U Hoshimjon, men esa Olimjon. Bobom meni kelajakda katta olim bo'lsin, deb ismimni Olimjon deb qo'ygan ekanlar...

Nima deyatuwdim. Ha, mashinada Buyuk ipak yo'ldan yurib, Jizzaxning baland-baland dovonlaridan oshib, tog'ning cho'qqisiga yetsangiz, shundoqqina boshingiz tepasida oppoq bulutlarni ko'rasiz. Hozir bu joylar juda obod bo'lib, kengayib ketgan. Bobomning aytishlaricha, bir vaqtlar bu dovondan karvonlar bazo'r o'tolgan. Hatto buyuk bobokalonlarimiz imom Buxoriy, imom Termiziylar ham ilm izlab shu yo'llardan o'tgan ekanlar. Dadamning aytishlaricha, keyinroq bu joylardan mashinalar bir-biriga yo'l berib, asta-sekin harakatlana boshlagan ekan. Buni qayerdan bilasan, deysizmi?! Chunki dadam mana shu yo'ldan katta yuk mashinasini bir necha bor haydab o'tganlar. Endi esa, hozir bu yerlardan mashina tugul vagonlar ham bermalol o'tadi.

Ha, aytgancha, biz tomonlarga poytaxtdan poyezd yo'li qurildi. Qanaqa poyezd deysizmi? „Afrosiyob“ tezyurar poyezdi. U juda tez yuradi, ko'z ochib-yumguncha manzilga yetkazadi, mehmonga kelsangiz „Afrosiyob“da bir yurib ko'ring, so'zining rostligiga o'zingiz guvoh bo'lasiz. Toshkentga bormoqchi bo'lsak ham shu tezyurar poyezdga chiqamiz. Mashinalar baland tog'larni chumolidek aylanib o'tguncha, poyezd ana shu qoyalarning ostidan shuvullab o'tadi-yu, bizni poytaxtga eltadi. Qanday mazza...

O‘zim haqimda so‘rasangiz, o‘qishga rosa qiziqaman. Kitob o‘qish, misol-masala yechish, ayniqsa, kompyuterda ishlash, kichik dasturlar yaratish jon-u dilim. Men kelajakda dasturchi bo‘lmoqchiman. Maqtanyapti demang-u, hammasidan a‘loga o‘qiyman. Bir kuni ustozimiz murakkab matematik amalni o‘rtaga tashladilar. Boshqa a‘lochilar har qancha urinishmasin, yechimini topa olishmadi. Boshida menga ham masala juda murakkab tuyuldi. Ammo astoydil harakat qilgan edim, masalaning aniq yechimini topdim va ustozimga ko‘rsatdim. Ustozimiz ham qoyil qoldilar, chunki masalaning javobini to‘g‘ri yechgandim.

Shundan so‘ng ustozimiz qarsak chalib, meni tabrikladilar va:

— Bu sinfdosh do‘stingiz kelajakda katta olim bo‘ladi, — dedilar. Shunda sinfdoshimiz Turg‘un kulib, ustozning gapiga qo‘shimcha qildi:

— Ustoz, hozircha u kichik olim-a?!

Sinfdoshlarim va hatto ustoz ham bu hazildan kulib yubordilar.

Shu-shu maktabda meni kichik olim deb ataydigan bo‘lishdi. Men esa bundan xafa bo‘lmadim. Chunki amakim „Olim bo‘lsang, olam seniki“, deydi.

Bir kuni tush ko‘ribman. Tushimda o‘zimga begona o‘lkalarda yurgan emishman. Egnimga qadimgi jangchilarning sovut-u dubulg‘alarini kiyib olgan emishman, jang qilyapmanmi-yey, aniq eslolmayman. Alahsirab, uyg‘onib ketdim. Onam tepamda turgan ekanlar.

— Shu ko‘p kitob o‘qishing sen bolaning boshingga balo bo‘lmasa edi, — deb meni dadamning



hay-haylashiga ham qaramay, psixiatrga, haligi asab do'xtiri bor-ku, o'shaning oldiga olib bordilar. Do'xtirlar har xil kompyuterlariga solib, boshimni tekshirishdi. Psixiatr esa meni savolga tutdi. Natijasi nima bo'larkin, deb men ham qiziqib qoldim.

So'ng do'xtirlar meni chiqarib yuborishdi va oyim bilan alohida suhbatlashishdi. Men esa eshikning yoniga kelib, suhbatga quloq tutdim. To'g'ri, birov-larning suhbatiga quloq tutish beodoblik, ammo gap mening sog'lig'im haqida ketarkan, bu qoidani chetlab o'tsa bo'ladi.

Do'xtir oyimga:

— O'g'lingizning miyasi, ruhiy holati yoshiga nisbatan ilgarilab ketgan. Ammo bu uning ham ruhiy, ham fiziologik holatiga zarracha salbiy ta'sir ko'rsatmayapti. O'g'lingizning miyasi go'yoki o'zini o'zi boshqarayotgan, hali kashf etilmagan super-kompyuterlarning ishlash tizimiga o'xshaydi. Ma'lumot, axborot almashinuvi juda tez, ammo bundan toliqishni sezmaydi. Go'yo bu harakatlar bilan u o'zini o'zi yangilayotganga o'xshaydi.

Yana bir do'xtir uning gapini to'ldirdi:

— Opa, o'g'lingizdagi bunday xususiyat tarixda yashab o'tgan ulug' olimlarda bo'lgan, desak xato bo'lmaydi. Так что¹, — dedi do'xtir ruscha aralash-tirib, — xavotir bo'lmang, o'g'lingiz geniy bo'ladi.

— O'qishi-chi, tinmay o'qiydi bu bola. Axir miyasi charchab qolmaydimi?

— Opa, bunday iqtidorli bolalarda o'qish, bilim olishning o'zi dam olishning o'rnini bosadi. Masalan, o'g'lingiz badiiy kitoblar ham o'qiydimi?

¹ Shunday bo'lgach.

— Ha-da, ba'zan tinmay misol-masala yechadi, ba'zida esa badiiy kitob o'qiyotgan bo'ladi.

— Ana, ko'rdingizmi, shunda u dam olayotgan, miyasiga badiiy asar orqali tanaffus berayotgan bo'ladi. Nima bo'lganda ham, siz unga cheklovlar qo'yib, bilim olishga bo'lgan havasini so'ndirmang. Bu o'g'lingizda buyuk kelajak alomatlari bor...

Bu javobdan ko'nglim yorishdi. Demak, hali hammasi oldinda. Onamdan hech nimani bilma-gandek so'rab qo'ydim:

— Oyi, do'xtirlar nima deyishdi?

— Kamroq o'qisin, deyishdi, — deb onam javob-ni qisqa qildilar.

MEN VA DO'STLARIM

Mening do'stlarim juda ko'p. Ularning ichida Turg'un, Umid, Doniyor bilan deyarli har kuni birgamiz. Bizning „Hasancha“ qishlog'imiz Zaraf-shon daryosining shundoqqina bo'yida. Bu qishloq-ning nomi buyuk olim Hasan Andoqiy nomiga qo'yilgan. Qishlog'imiz ahli o'zining mehmondo'stligi va bag'rikengligi bilan atrofga dong taratgan.

Yozgi ta'til damlarimiz mana shu qishlog'imiz-dan o'tgan daryo bo'yida qo'y-u echki, sigirlarimiz-ni boqib, vaqtichog'lik qilish bilan o'tadi. Daryoda miriqib cho'milamiz, ba'zan daryo suvi ko'taril-ganda baliqlar qamishli hovuzchalarga tushib qoladi. Shunda bizning baliq ovimiz qizigandan qiziydi. O'sha kunlari daryo bo'yida rosa baliqxo'rlik qilamiz. Umid o'rtog'imiz baliq pishirishga usta. U boshqa ovqatlarni ham qoyillatadi. Chunki oilada katta

farzand, opasi yo'q. O'g'il bolaman deb o'tirmaydi, uy ishlarida onasiga zo'r yordamchi.

Zerikkan damlarimizda eshakmindi o'ynaymiz. O'yindan charchaganimizda esa navbat telefon o'yinlariga keladi.

Oramizda sanoqli bolalardagina telefon bor. Ba'zilariga ota-onalari olib bergan bo'lsa, ayrimlariga telefon ishlatishga ruxsat tegmagan. Menga ham dadam tug'ilgan kunim munosabati bilan, keyin yaxshi o'qiganim uchun telefon sovg'a qilganlar. Lekin uni maktabga olib bormayman. Darsda telefonidan foydalanish mumkin emas. Chunki bu mashg'ulotlarga xalaqit beradi. Bo'sh vaqtimda unda har xil misol va masalalarni ishlash, bundan tashqari, charchaganimda qiziqarli kitoblarning elektron nusxasini o'qishga odatlanganman. Ammo Turg'unning telefonini naq g'ishtday keladi. Uni planshet deyishadi. Hamma bolalar Turg'unning atrofida. Chunki ular planshetda kompyuter o'yinlarini o'ynaydilar, Internetga kirib har xil videolar, rasmlar tomosha qiladilar.

Menga esa bu yoqmaydi. To'g'ri, meniyam shunday o'yinlarni o'ynagan paytlarim bo'lgan. Ammo o'ynagan vaqtimda ko'zlarim tinib, boshim og'rib, o'zimni noxush sezardim. Shuning uchun ularga qiziqmay qo'yanman. Meni ko'proq axborot dasturlarini yaratish, ayniqsa, sirli belgi va raqamli jumboqlarni yechish, haligi bor-ku... kinolardagi maxfiy agentlar, ularning yomonlar ortidan quvib, jinoyatlarini kompyuter orqali fosh etishlari ko'proq qiziqtiradi. Ba'zan o'zimga shunday deyman: „Hali men kompyuterda shunday dasturlar yarata-manki, ular orqali dunyodagi barcha yovuz maq-

sadli odamlarni aniqlash va ularni qo'lga olish mumkin bo'ladi".

Bu gapimni Turg'un eshitsa har doimgidek meni xayolparastga chiqaradi. Ammo Umid va Doniyor negadir mening ana shunday dasturni yarata olishimga ishonganday bo'lishadi.

— Hoy, xayolparast! — xayollarimni Turg'unning gapi cho'rt bo'lib yuboradi.

— Nima? — deyman unga yelkam osha qarab.

— Hadeb kitob o'qiyvermasdan, mundaq o'yin o'ynasang-chi, mazza qilib, o'qib olim bo'larmiding!

— Ha, hali ko'rasan, shunday olim bo'lamanki, kompyuteringdagi hamma o'yinlarni chiqarib tashlab, o'rniga kitoblarni, misol-masalalarni joylab qo'yaman. Keyin ko'raman nima qilishingni?!

— Qo'lingdan kelgan narsani gapirsang-chi, — kekirdagini cho'zadi Turg'un va maqtanishda davom etadi: — Senlar ahmoq bo'lib o'qiyverlaring. Baribir men o'qiydigan joyda senlar o'qiy olmay-sanlar. Dadam meni chet davlatga yuboradilar. O'sha yerdagi eng zo'r o'qishda o'qiyman.

Biz uning gapini bo'lmaymiz va uni maqtanchoq deb ham atamaymiz. Chunki Turg'unning dadasi nufuzli idorada ishlaydi. Xorijliklar bilan hamkorlik qiladi. Balki, haqiqatan ham, Turg'unni katta bo'lganida chet elda o'qitar, deymiz.

Ammo Doniyorning bunga jahli chiqib qo'yadi: „Dadasi o'qishga yuborgani bilan o'zida ham ozgina bilim bo'lishi kerak-ku, nima, chet elga borsa, planshetida o'ynagan o'yinlari haqida gapirib bera-dimi?“ — deydi u. Bir tomondan, Doniyorning ham gapida jon bor, deyman ichimda. Axir o'zga mam-

lakatda o'qish uchun, avvalo, chet tilini bilish kerak emasmi. Turg'un bu ketishida chet tili tugul o'z tilini ham anglayolmay qoladi-ku. Bu gapimni uning o'ziga ham bir necha marta aytganman. Ammo javobi bir xil: „Sen o'qishingni bilsang bo'ldi, u yog'i bilan ishing bo'lmasin!“

DONISHMAND AMAKIM — USTOZIM

Amakim haqida sizga aytmadim-a, hali... Ularning ismlari Qobilboy. O'zlari judayam mehribon, qo'llari ochiq. Ammo ularning bir yaqin do'stlari bor. Ali pishiq deyishadi. Ziqnamas-ku, ammo juda pishiq. Agar 100 chaqirim yo'l 100 tangalik bo'lsa, o'sha joygacha piyoda boradi. Amakim bir kuni shu do'stlarining hangamasini menga aytib berib, rosa kuldirdilar.

Emishki, Ali pishiq bir buzog'ini mol bozoriga olib chiqib sotmoqchi bo'libdi. Buzog'ini bir ulovga ortib borish uchun kerak bo'lgan pulni tejash maqsadida, ulovda qariyb yarim kun yurish lozim bo'lgan yo'lni sho'rlik buzoqni yetaklagancha piyoda bosib o'tibdi. Ali pishiq amakimning uyiga halloslab kirib kelibdi va „Rosa charchadim, buzoqqa suv berib, o't solib qo'y, azonda bozorga olib chiqaman“, — debdi. Amakim uning ziqnaligidan, eng yomoni, bechora buzoqni holdan toydirib qiynaganidan jahl-lari chiqib, do'stlarini urishib beribdilar va buzoqni sug'orib: „Jonivor, qorning ham rosa ochgandir. Uzoq yo'lni piyoda yurib kelibsang, ol, qorningni to'yg'az“, deb xashak solsalar, tinkasi qurigan sho'rlik buzoq yumshoq xashakni yeyish o'rniga uning ustiga yotib olibdi.

Ikki do'st mana shunday hazil-huzul qilib, yurishgan ekan.

Amakim sharqshunos olim bo'lganlar, hozir sog'liqlari tufayli nafaqadalar. Qishlog'imizda, daryo bo'yida „Munchoqtepa“ yodgorligi topilgan. Yana „Qirq hujra“ degan g'or ham bor. Aytishlaricha, unda qirqta xona bor emish. Ammo uning ichiga kirishga hech kimning yuragi betlamaydi. Enamning aytishlariga qaraganda, u yerda har kuni yarim tunda qirqta pari qo'shiq aytarkan. G'ordan parilarning xirgoyisi eshitilib turarkan... Bir paytlar arxeolog olimlar kelib, „Munchoqtepa“dan topilmalar topishganida amakim u yerdagi har xil yozuvlarni o'qishga yordam berib, mag'zini chaqishga ko'maklashganlar. Shuning uchun qishloq ahli amakimni Qobil donishmand deyishadi.

Do'stlarim bilan ba'zan ana shu „Qirq hujra“ g'ori oldida o'ynaymiz. Uning og'ziga kelib, ichiga qarab qichqiramiz. Ovozimizni g'or ichi yutib yuboradi, go'yo. Shu desangiz, bir kuni ana shu g'or og'zida o'ynayotib, oyog'im nimagadir urildi. Oyoq'im ostiga egilib qarasam, qandaydir yaltiroq temir bo'lagi ekan. Bir tomoni qayrilib, quyosh nuri tegib turgani uchun uning yaltirashi ko'zimni ochishga yo'l bermadi. Temir bo'lagini qo'limga olib ko'rmoqchi bo'ldim. Yerga juda botib ketganligidan tortib olishga qiynaldim. Ola sigirimning qozig'ini olib kelib, bir amallab yerdan uzib oldim, orqasida arab imlosida qandaydir yozuv bor edi. Yerga yopishib yotganligi sabab, yozuv ham xiralashib qolgandi. Darrov daryo qirg'og'iga olib borib, yaxshilab yuvdim. Lekin yozuvni o'qiy olmadim, amakimga ko'rsataman, dedim-da, ovqat xaltamga solib

qo'ydim, atrofimdagi do'stlarimga hech nima demadim.

Amakimning kutubxonalarida kitoblar shu qadar ko'pki, dunyoning kitoblari shu yerda jamlangan deysiz. Ularning ichida o'ngdan chapga yoziladigan arab yozuvlisi ham, rus tilida yozilgan asarlar ham, qadim davrdagi kitoblar ham bor. Amakim o'z kutubxonalarini xazina deb ataydilar. Uylariga emas, kutubxonalariga o'g'ri tushishidan qo'rqadilar.

Nafaqat qishloqdagilar, balki yurtimizning juda ko'p joylaridan amakimni yo'qlab, ziyoratga keldiganlar soni behisob. Amakim diniy va dunyoviy ilmlarni suv qilib ichib yuborganlar. O'zlari g'oyat bardam va tetiklar. Keksaydim demaydilar. Yerga har ketmon urganlarida bamisoli yer larzaga kelgandek bo'ladi. Ketmonlari loyi yoki tuprog'i bilan turgan bo'lsa, joyidan bazo'r ko'tarasiz. Amakim kuragi yerga tegmagan polvonlardan bo'lgan ekanlar.

Kech tushib quyosh botgach, mollarni oldimga solib, uyga olib keldim va og'ilga bog'lab chiqdim. Ovqat xaltamdan xuddi tilla topgan odamdek temir bo'lagini olib, amakimning yoniga shoshildim. Amakim bog'dagi ishlarini tugatib, endi shom namozini o'qib bo'lgan ekanlar. Meni ko'rib, darrov yuzlaridan nur taraldi va o'rinlaridan turib:

— Mening polvon o'g'lim kelibdi, olim o'g'lim kelibdi, — deya men tomon quchoqlarini ochib turdilar. Men amakimni juda yaxshi ko'raman-da, bir kun ko'rmasam, xuddi yillar ko'rmagandek, sog'inib qolaman.

Darhol quchoqlariga otilib:

— Amakijon, men bir narsa topib oldim, qandaydir yozuvi bor, — dedim va topgan narsamni amakimga uzatdim.

Amakim temir bo'lagini sinchiklab tekshirdilar-da:

— Polvonim, senga xushxabar, bu temir bo'lagiga „Ezgulik kitobini top“, deb yozilgan ekan. Endi uni izlashing kerak, bo'tam. Bu senga muhim topshiriq, bajarishing shart. Buni esa faqat ilm bilan topasan!

Amakimning bu gapiga yaxshi tushunmagan bo'lsam-da, menga qandaydir bir topshiriq berilganligini angladim. Kitobdan izlaymikin? Amakim qachon bo'sh qolsalar qo'llariga kitob oladilar. „Kitob insonning do'sti, ustoz“, deydilar. Ba'zida esa shunday deya qo'shib qo'yadilar:

— Bolajonim, bizning davrlarga qadar insonga kitobdek yaxshi do'st bo'lmagan. Ammo zamonlar o'tgach, Odam Ato farzandlari o'zlarining zim-malaridagi oliy burchni unuta bormoqdalar. Nafsga berilib, bugun ular hatto mo'tabar ne'mat hisoblangan kitobni ham o'z yovuz maqsadlariga bo'y-sundirishga intilmoqdalar. Kitobni behurmat qilib, uning ko'ksiga noto'g'ri, yovuz g'oyalarni o'yib yozmoqdalar.

— Unday kitoblarni o'qib bo'lmaydi, shundaymi?!

— Xuddi shunday, bolam, ulardagi begona g'oya va tushunchalar sen kabi yoshlarning ongini zaharlab, egri maqsadlar tomon olib boradi. Bu yo'lning oxiri esa tubsiz jarlik. Unga qulash muqarrardir. Shu sababli, sen, albatta, ezgu g'oyalar ilgari surilgan, insonlarni yaxshilikka cho'lalaydigan va odam

larga foydasi tegadigan kitoblarni o'qishing va sen ham bir kuni ulg'ayib, olim bo'lib, ana shunday kitoblarni yozishing kerak.

— Xo'p bo'ladi, amakijon.

— Barakalla, bo'talog'im.

Amakimning bu gaplari mening ongimda yomonlikka, yomonlik yo'lini tanlagan kimsalarga nisbatan nafratimni oshirardi. Bundan tashqari, televizorda turli yurtlarda bo'layotgan urushlarni ko'rganimda „Men hali shunday dastur yaratayki, u orqali insonning fikrini, ichki dunyosini o'qib olayin va yomonning jazosini berib, yaxshilarga ezgulik yo'lida ko'maklashayin va menga berilgan topshiriqni bajarayin“, deya ezgu niyat qilardim...

YANGI DASTUR IXTIROSIGA QO'L URGANIM

O'quv maskanimiz bo'lmish bizning qishloq maktabimizga buyuk bobokalonimiz Al-Xorazmiy nomi berilgan. Ammo bu yerda ham shahar maktablarinikidan qolishmaydigan, ular bilan bimalol bellasha oladigan imkoniyatlar mavjud. Shinam o'quv xonalari, zamonaviy kompyuter xonasi, sport anjomlari bilan jihozlangan sport zali, basseyn, musiqa xonalarida barcha sharoitlar muhayyo.

Kompyuterlar Internet tarmog'iga ulangan. Men maktabimizning axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan sinfida o'qiyman. Ingliz tili kursiga muntazam qatnayman. Sinfimizda ko'p bolalar ingliz tilini yaxshi bilishadi. Internet-forumda men ham qatnashib, ba'zan o'zimning yangi yaratgan loyihalarimni tanloylar uchun taqdim etib turaman.

Bir kuni darsga kirish oldidan ustozimiz Odil Nosirovich meni chetga tortdi-da: „Mashg‘ulotlardan so‘ng xonamga kir“, deb aytdi.

Odil Nosirovich menga yo‘nalish bo‘yicha mu-rabbiy hisoblanib, loyihalarni yaratishimda yaqindan yordam beradilar. Tinchlikmikan, deb o‘yladim ichimda. Kecha mendan bir sinf yuqori o‘qiydigan, yaxshi gapga ko‘nmaydigan mushtumzo‘r Jobirning o‘zidan bir sinf kichik bo‘lgan Nozimani xafa qilgani uchun, burnini yerga ishqab qo‘ygandim. U arz qildimikan, endi uydagilar eshitsa, nima bo‘ladi?!

Aslida mening bunda aybim yo‘q. Jobir Nozimani uyatsiz so‘zlar bilan haqoratladi. Men „Qiz bolaga unday dema“, degandim, u esa kelib, yelkamga musht tushirdi. Zarbdan qalqib ketib, yerga yiqildim. Ustimga bostirib kelib, he yo‘q, be yo‘q, do‘pposlay boshladi. Men esa noiloj amakim o‘rgatgan kuchli usullardan birini qo‘llashga majbur bo‘ldim. Jobirni belidan mahkam tutdim-da, boshim ustidan aylantirib, yerga urdim.

Jobir bir zum yerda yotdi. Ko‘zlariga biroz yosh keldi. Qo‘lingni ber, deb qo‘limni uzatdim. Yo alamidani, yo g‘azabidan qo‘lini uzatmadi. Shitob bilan o‘rnidan turdi-da, ortiga qaramay ketib qoldi. Bir payt qarasam, atrofim to‘la tomoshabin. Ha, ular maktabning „Birinchi shefi“ni ag‘darganimni ko‘rib, hayratda qolgandilar.

Shunday bo‘lsa-da, Jobir mard yigit ekan. Ikki kundan keyin kelib:

— Olimjon, senga tan berdim. Seni olim desam, binoyidek polvon ekansan. Qo‘lni tashla, qalin do‘st bo‘lamiz. Bo‘lgan voqea shu yerda unutiladi. Araz qilish yo‘q, — dedi.

— Gap yo‘q, do‘st bo‘lamiz, — dedim unga va qo‘limni uzatdim:

Darslar tugab, Odil Nosirovichning yoniga kirdim. Salom-alikdan so‘ng ustoz maqsadga ko‘chdi. Men esa nima haqda gap boshlarkin, ishqilib, Jobir haqida bo‘lmasin-da, degan hadik bilan unga tikildim:

— Olimjon, Internet-forumga yuborgan navbatdagi yangi dasturing yodingdami?!

— Ha, albatta, — dedim, ichimda „Xudoga shukur-ey“, deya. — Tinchlikmi, ustoz?!

Domla yuzimga sinovchan tikildi va so‘zida davom etdi:

— Sening shu loyihang ekspertlar tomonidan ma‘qullanibdi.

— Zo‘r-ku!

— Shuning uchun seni bir haftalik forumga, poytaxtimiz Toshkent shahriga jo‘natamiz. Loyihang taqdimotini amalga oshirishga. Faqat uni tugal holatda taqdim qilishing kerak.

— Men tayyorman, — dedim quvonib.

— Astoydil harakat qil, sendan umidimiz katta.

SIRLI KALIT BELGISI IZIDAN

Uyga kelib, xushxabarni amakimga, keyin esa uydagilarimga aytdim. Amakim bundan xursand bo‘lib:

— Sen uchun xazinamning eshiklari lang ochiq. Qanaqa ma‘lumotga ehtiyoj sezsang, kitoblarni varaqlab ko‘rishing mumkin. Senga berilgan topshiriqni bajarishingga yo‘l ochilyapti.

Ishni avval amakimning kutubxonasidan boshlayman, dedim o'zimga o'zim. Chunki dasturim bilan bog'liq jarayonda shunday tushunarsiz, menga qandaydir sirli tuyulgan shakl va belgilarga duch keldimki, ular jumboqli bo'lib, qandaydir kodli belgilarni eslatardi. Ular birlashtirilsa, go'yo kalit shaklini oladi. Ma'nosini Internet tarmog'idagi qidiruv dasturi orqali umuman topa olmadim. Internet tarmog'i bu belgilarni javobini berish tugul, hatto qabul qilmasdi. Tugmani bosishim bilan ingliz tilidagi „Rad etildi!“ javobini berardi. Tavba, bu belgilarni elektron shaklda, Internet tarmog'idan topgandim. Endi esa bu belgilar haqida Internetning o'zi hech narsa bilmaydi. Nima balo, bu shakllar osmondan tushdimi, deyman ming'irlab. Xunobim oshadi. Axir bu belgilar kodini yechmay turib dasturimni yakuniga yetkazolmayman. Vaqt esa oz. Toshkentga safar qilish onlari yaqinlashmoqda.

Tavba, deyman o'zimga o'zim. Qandaydir bir sirli ishora ro'paramdan chiqqandek edi. O'zi shundoq ham sirli narsalarga juda qiziqaman. Ularni yechish jon-u dilim. Endi qarangki, ajib bir tilsimga duch kelib turibman. Shu damda yodimga bir filmda aytilgan dono fikr keldi: „Kimki o'z maqsadiga yetishni astoydil istasa va unga intilsa, butun bir koinot unga yordamga keladi“. Ha, rostdan ham shunday. Menga ham butun olam, koinot yordam bermoqchiga o'xshaydi. Bu esa mendan astoydil harakatni talab qiladi.

Balki belgilar qadimiydir, deya o'ylayman ichimda. Ular eski kitoblarda aks etgandir. Chunki Internetdan topilmagan ma'lumotlarni eski kitoblardan topish mumkin. Shu umidda kutubxonaga kirib

olganimcha o'sha yerdan chiqmayman. Barcha kitoblarni varaqlayman. Bir kitobni ko'rayotgan chog'imda ajib shakllarga duch keldim. Bu chiziqlar menga Internetda duch kelgan belgilarni eslatayotgandek edi. Yuragim shuv etib ketdi. Topaman shekilli. Bular formulamikan, deb o'ylab, mag'zini chaqishga harakat qildim. Ammo ular formula yoki tenglama ma'nosini bildirmasdi. Shakli esa saroy kalitlarining ko'rinishini eslatardi. Qizig'i, bu belgi kitobning ko'p joylarida takror kelgan. Bunda nimadir yashiringan, deyman o'zimcha.

O'ylanib, boshimni qashlayverganimdan tepa sochim tikka-tikka bo'lib, uyqusizlikdan ko'zlarim qizarib ketibdi. Yana o'zimga nimalarnidir gapirib turganimni ko'rgan onamning eski xavotiri qo'zidi:

— Bolam, senga yana nimadir bo'lyapti shekilli. Bir do'xtirga ko'rinib kelmaymizmi?

— Oyijon, mendan xavotir bo'lmang, vahima qilmang. Mening es-hushim joyida. Faqat bir narsani izlayapman. Shuni topsam, ishlarim rivojlanadi. Uning o'rniga duo qiling. O'sha savolimga javob topay.

Onalarning hammasi shu. Bolalari uchun barcha mashaqqatga tayyor. Onaginam darrov qo'llarini ochib, duoga tushib ketdilar:

— Ey, Xudoyim, ilohim, bolajonimning izlagan narsasini topishida madad ber. Qidirganini topsin. Istagan niyatiga yetsin!

Duo qiladilar-u, yana xavotirlanib so'rab qo'yadilar:

— Bolam, o'zi qidirganing yaxshi narsami? Tag'in allaqanday yomon ishlarni qilib, yomonlarga aralashib yurmagin!

— Voy, o'zimning qalbi toza onajonim-ey, xavotir bo'lmang, agar shu narsani topsam va ko'zlagan ishimni amalga oshirsam, dunyoda yomon odamlar qolmaydi hisob, — deb sodda onamga maqtanib ham qo'yaman.

Onam yana duo qilishga tushib ketadilar.

Maktabga borganimda ham darslarda allaqanday xayollar bilan o'tiraman. Buni sinfdoshlarim ham sezadi. Tasavvurim bir tarixga, bir ertaklar olamiga qarab ketadi.

Bir kuni ona tili darsida ana shunday xayollar bilan o'tirsam, ustozimiz:

— Olimjon, aytgin-chi, ega va kesim gapning qanday bo'laklari? — deb so'rab qoldi.

Men esa miyamda sirli kalit tilsimini o'ylab turgan edim. Shu xayol bilan ikkinchi darajali bo'lak deb yuborsam bo'ladimi. Ustoz tutagandan tutab ketdi. Chunki u „Meni ermak qilyapti“, deb o'ylab, bunga javoban shunday dedi:

— Maktabning yulduziman, deb hadeb yulduzdek porlashni emas, nur taratib o'zingga chorlashni o'rgan! Kompyuter qarshisida o'tiraverib, mukkangdan ketib, g'alati bo'lib qolibsan. Aslida sening puch xayollaring — ikkinchi darajali. Uqdingmi! Darsda xayolingni yig'ishtirib o'tirgin.

Men esa es-hushimni yig'ib oldim-da:

— Uzr, ustoz. Xo'p bo'ladi, — deb javob berdim.

Tanaffusda sinfdoshim Doniyor ancha bilimli bo'lgani uchun uning fikri bilan ham qiziqdim:

— Sen sirli kalit haqida eshitganmisan?

Endi men o'zinga tushunarsiz va sirli bo'lib tuyulgan o'sha belgilarni birlashtirib, shunday atay boshlagan edim.

Doniyor garchi bilimda undan o'zib ketishimni istamasa-da, ammo bilgan narsasini o'zgalarga berishda, fikrlashishda samimiy va fe'li keng edi:

— Eshitgandayman. Ammo bu ko'proq ertaklarda aks etadi. Masalan, bahodirlar sehlrangan qasrlarga kirishda yoki tilsimlarni yechishda undan foydalan-ganlar.

Doniyor menga go'yo jumboqni yecha boshla-yotgan donishmanddek ko'rina boshladi. Men esa yuragim oshiqqancha suhbatga tushdim:

— Sirli kalit so'zlarda, har xil raqamlarda ham aks etishi mumkin? Shundaymi?

— U nafaqat so'z va raqamlarda, ularga o'xsha-magan belgi va ishoralarda ham ifodalanishi mumkin.

— Ya'ni qadimgi harakatli tasvirlarni aytyap-sanmi?

— Ha-da.

So'zimizni eshitib turgan Turg'un gapga ara-lashdi:

— Eskicha kitoblar haqida gaplashyapsizlarmi?

Doniyorning jahli chiqib ketayozdi:

— Eskicha emas, diniy yoki qadimiy kitoblar, desang to'g'ri bo'ladi.

— Ha, o'sha eskicha-da!

Doniyorning yana peshanasi tirishdi. Men Tur-g'un nimadir demoqchiligini sezdim-u, unga gal berdim:

— Xo'sh, nima demoqchiyding?

— Dadamning kutubxonasida ham eski qo'lyoz-malar bor.

— Kimlarga tegishli?

— Dadam bir do'stlari bilan bo'lgan suhbatlari-da aytgan edilarki, bu yerda dunyo olimlarining no-

yob kitoblari bor ekan. Faqat bular — sir. Ularni birovlariga aytish mumkin emas. Faqat sizlarga aytdim, — deya soʻzi oxirida maqtanib ham qoʻydi.

— Hadeb kekkayib yurguncha, shularning sirini oʻrgansang oʻlasanmi? — Doniyorning yana jizzakiligi tutdi.

Men esa ularni oʻzaro kelishtirishga harakat qildim. Chunki bu menga yana bir imkoniyat edi. Agar Turgʻunni koʻndirib, dadasining kutubxonasiga kirib, adabiyotlarini oʻrganishga muvaffaq boʻlsam, izlaganimga erishishim mumkin. Ammo tushun-yapmanki, buni yolgʻiz oʻzim uddalashim amri mahol. Endi menga yaqin yordamchilar kerakligini anglab yeta boshladim. Bunda menga Turgʻun, Doniyorlarning yordamlari kerak boʻladi. Shuni oʻyladim-u, maqsadga koʻchdim:

— Turgʻun, sen bizga yordam berishing kerak. Doniyor ikkalamiz dadangning kutubxonasiga kirib, bir maʼlumotni topishimiz zarur. Bu hamma-miz uchun muhim.

Turgʻun biroz oʻylanib turdi-da, rozilik berdi:

— Mayli, men sizlarga dadam xizmat safariga ketgan vaqtlarida xabar qilaman, uyga kelasizlar.

— Kelishdik, — deya oʻzaro qoʻl tashlashdik.

Doniyor bilan bizning uyimizga ketdik. Amakim bizni koʻrib, hol-ahvolimizni soʻradilar:

— Ha, polvonlarim! Izlaganlaringizni topyap-sizlarmi?

— Harakat qilyapmiz, amakijon, harakat qilyapmiz!

— Yaxshi. Ammo dam olib, dam olib ishlanglar. Yana toliqib qolmanglar!

— Xo‘p bo‘ladi, — deya kechki ovqatni chala-chulpa yedig-u, kutubxonaga kirib ketdik.

Kech bo‘lib ketdi. Doniyor biznikida qoladigan bo‘ldi. Ikkalamiz ham kitob titib o‘tiribmiz. Bir vaqt Doniyorning:

— Topdim! — degan tovushi eshitildi.

Qarasam, uning qo‘lida yana bir eski kitob turibdi. Ammo bu muallifi noma‘lum qadimiy kitob edi. Unda ham shaklli belgilar bo‘lib, soni jihatidan kamroq, biroz xiraroq tasvirlangandi. Buni ko‘rib, tilla topgandek quvonib ketdim. „Yasha, oshnajon“, deb uni quvonganimdan bag‘ringa bosdim-da, ko‘tarib oldim.

— Doniyor, — dedim unga, — kutilgan natijalar yuz ko‘rsatmoqda. Endigi navbat Turg‘unlarning kutubxonasiga.

— Xo‘sh, — menga „Keyin-chi?“ degandek boqdi Doniyor.

— Bu sirli belgi bizning mutafakkir bobolarimiz asarlarida qayd etilgan. Yunon, hind, yapon yoki g‘arb olimlarining asarlarida-chi? Shuni ham bilishimiz kerak. Chunki ularda ham bunday ishoralar bo‘lishi mumkin. Amakimning bir dono gaplari bor: „Tarixda o‘tgan barcha ulug‘ allomalarni, sarkarda-yu qahramonlarni, qaysi millat, elat vakili bo‘lishidan qat’i nazar, yagona bir sabab bog‘lab turadi. Bu — ilm, zakovat va yuksak iste’dod“.

— Bu bilan demoqchisanki, ayni alomat masalada ular hamfikir bo‘lishlari mumkin, — fikrimni to‘ldirdi Doniyor.

— Ofarin! Agar ularda ham shu belgilarni topsak, jamlab, umumlashtiramiz. Bu men yaratayotgan dastur uchun sirli kalit tilsimini yechish imko-

nini berishi mumkin. Tilsim ortida yashiringan soʻz yoki raqamlar maʼnosini topsak, dasturga kirish imkoni boʻladi va men uni yakunlayman. Keyin esa Internet tarmogʻida loyihamni sinab koʻramiz, — dedim men ovozimni asta pasaytirib, goʻyo eshik ortida kimdir poylab turgandek.

— Toʻgʻriku-ya. Ammo belgi va raqamlarda ham ilohiylik bor. Agar ularning boshi va yakuni tutashgan sarhadlarda turib qolsang, seni makon va zamon chegarasidan olib oʻtib ketishi mumkin. U olamga tushib qolsang, barchasi sen kitobda oʻqiyotgandek ketmaydi. Aksincha, hammasini boshingdan kechirasan. Hatto bu yoʻlda halok boʻlishing mumkin. Bu esa hayoting ostin-ustin boʻladi degani, — bu gal Doniyorning koʻzlarida xavotir alomatlari paydo boʻlgandi.

— Mayliga, doʻstim, dunyo ostin-ustin boʻlmasligi uchun birgina insonning hayoti ostin-ustin yoki halok boʻlsa, bu yoʻqotish hisoblanmaydi. Ammo bilib qoʻy, men shu sarhadga tushib qolsam, safarga bir oʻzim chiqaman. Sen bu yerda qolasan. Xuddi oʻzimga oʻxshagan bolakayni topib, uni Olimjon deb ataysan, uyimga kelib-ketishini, maktabdagi mashgʻulotlarga kelishini taʼminlab turasan. Toki oʻz ishlarimni yakunlab, qaytgunimcha meni „Olimjon oʻz joyida, oʻqib yuribdi“, deb oʻylasin hamma. Hattoki ota-onam ham, amakim ham bilmasliklari kerak. Tushundingmi?!

Xayolimni koʻzlari ola-kula boʻlib ketgan Doniyorning: „Hey, sen bola nimalar deyapsan? Esing joyidami?! Men hoziroq uyimga ketaman. Seni taniamayman!“, degan gaplari boʻldi.

Men esa Doniyorni hay-haylab, bir amallab yoʻlidan toʻxtatdim va shartimga koʻndirdim.

Maktabda Turgʻunni koʻrib:

— Dadang qachon safarga ketadilar? — deb soʻradik.

— Indinga.

— Demak, dadang safarga ketishlari bilan sen bizni chaqirasan, shundaymi?

— Shunday!

Turgʻun aytganidek, oʻsha kuni dadasi safarga ketdi. Biz uning darsxonasida dars tayyorlayotgandek oʻtirdik. Kech boʻlib qolganligini bahona qilib, uylarida qoldik. Oqshom tushgach, asta-sekin yurib borib, kutubxona kalitini olgan Turgʻun bizga ishora qildi:

— Ketdik!

Kutubxonaga shundoq kirgan ham edikki, Turgʻunlarning darvozasi taqillab, iti akillab qoldi. Turgʻun bizga „Hozir“, dedi-da, borib darvozani ochdi. Qarasa, dadasi. Biz nima qilishimizni bilmay, dong qotib, kitob javonlarining orasiga kirib ketdik. Panaga oʻtirib, chiroqni oʻchirib oldik.

Uyga kirib kelgan dadasi Turgʻunga:

— Oʻgʻlim, bir kitobni olib ketishim kerak edi. Yodimdan koʻtarilibdi. Kutubxona kalitini olib kel, — dedi.

Turgʻun shoshgancha dovdirab, „Mana kalit“, deb dadasiga tutqazdi. Dadasi oʻgʻliga hayron boqib qoldi. Chunki u oʻgʻlini shuncha majbur qilmasin, kitobga ishtiyoqi yoʻqligini tan olgan edi:

— Kitob oʻqimoqchimiding, oʻgʻlim?!

— H-ha, biror qiziq kitob boʻlsa, oʻqiy degandim, — dedi Turgʻun tili tutilib.

— Juda yaxshi, unday bo'lsa, kirib xohlagan kitobni ko'rishing, o'qishing mumkin. Faqat ularni birovlariga tarqatib yuborma. Xo'pmi? Bu bir xazina. Ularning bahosi yo'q.

— Xo'p!

Dadasi shunday dedi-yu, shitob bilan kutubxonaga kirib keldi va chiroqni yoqdi. To'g'ridagi javonga kelib, bir eski kitobni oldi-da, varaqlay boshladi.

Shu payt ne ko'z bilan ko'rayki, Turg'unning dadasi qo'liga taqib olgan soatda biz axtarib yurgan belgining kichik surati bor edi. Hayratdan qichqirib yuborishimga oz qoldi. Shartta borib, „Amaki, bu qanday belgi? Bu soatni qayerdan olgansiz? Qayerda ishlab chiqarilgan?“ degim keldi. Ammo kutubxonaga o'g'rincha kirib olib, serraygancha turgan ayni holatimda bunday qilmoqlikning umuman iloji yo'q edi.

Dadasi kitobni oldi-da, qanday tez kirib kelgan bo'lsa, shunday shitob bilan chiqib ketdi. U ketgach, shoshgancha kitoblar javonining orasidan chiqdim-da, Turg'unni savolga tutib ketdim:

— Hoy, Turg'un, hozir dadang qanday kitobni olib chiqib ketdilar?

— E, men qayerdan bilay?

— Ovsarlanmay ket-ey! Uyingdagi shuncha kitob senikimi yo qo'shningnikimi? Hech bo'lmasa, changini artib tursang ham, shunaqa po'kak bo'lib qolmasding, qovoqbosh! — Doniyor g'ijinib ketdi uning javobidan.

— Ey, sen o'chir ovozingni, olimcha!

— Bo'ldi qilinglar! — yana qozilik qilishga o't-

dim. — Doniyor, sen Turg'unning dadasi kitob olgan chog'ida uning qo'lidagi soatga qaradingmi?

— Yo'q, menga ko'rinmadi.

— Turg'un, kitoblarni bilmasang ham, dadangning qo'lidagi soat haqida bilarsan?

— Ha, — gapga tushib ketdi Turg'un. — Umi? Juda tarixiy va qimmatbaho. Chet mamlakatda ishlagan vaqtlarida gretsiyalik bir hamkasblari do'stlik va hamkorlik ramzi sifatida o'zining shaxsiy muzeyidan olib, tuhfa qilgan. Dadam bu soatni hech kimga ishonmaydilar. Yotganda ham taqib yotadilar. Ammo undagi toshlarning, — qoshini uchirib, labini bir tarafga burdi Turg'un, — aslo bahosi yo'q.

— He, boylikka uchmay ket-ey! — to'ng'illadi yana Doniyor.

Turg'un esa Doniyorning bunday „kaltak“lariga o'rganib ketganidanmi, bu safar gapiga parvo qilmadi.

— Biz kitoblardan izlayotgan belgini dadangning soatida ko'rdim.

Doniyor hayron bo'lib qoldi:

— Yo'g'-e!

— Ha!

— Turg'unning aytishicha, soatni gretsiyalik vakil sovg'a qilgan. Bu esa yunonlar degani. Xulosa qilish mumkinki, yunonlarning qadim madaniyati va tarixida ushbu belgi qandaydir mazmun kasb etgan. Undan bizning Sharq madaniyatiga ham o'tgan...

— Undan chiqdi bu belgi hind va xitoy madaniyatida ham bor.

— Ha, barakalla! — dedim men.

— Hey, qanaqa belgi haqida gaplashyapsizlar? — qiziq boshladi Turg'un ham.

— Aqling yetmagan narsaga burningni suqma! —
yana kesatdi Doniyor.

— O'rgildim sendek novcha terak dahodan, —
deya Turg'un nari ketdi.

Shu tariqa ma'lum farazlar asosida ishga kirishgach, astoydil berilib ketdik. Umrida kitob o'qimagani Turg'un ham bizga qiziqqanidan stolga xuddi olimlardek o'tirib olib, boshini qashlagan ko'yi, yana nima deng, to'ppa-to'g'ri qo'lyozmalarni varaqlashga tushib ketdi.

Tuni bilan kitob titishimiz behuda ketmadi. Ikki xil tarixiy kitobda ushbu belgining ikki shakldagi ko'rinishini topdik. Ularning biri yunon madaniyatiga oid, biri esa Rim tarixi va madaniyati xususida. Soat esa uchinchisi. Ammo ular bir qarashda umumiylikni tashkil qilib, yagona g'oya-maqсадni ifodalashi aniq edi...

Ertasi kuni uchalamiz ham peshingacha dong qotib uxladik. Uyg'ongach, yuz-qo'limizni yuvib, qornimizni to'yirdik. Kitoblarni yashirinchayimizga olib borib, sirli kalit belgisining nusxalarini kompyuterda skanerdan o'tkazdik hamda printerda chop etdik. Va yana avaylab, o'z o'rniga joylashtirib qo'ydik. Shu bilan birga, fleshkada elektron shaklini oldik.

Dadam mening kelajagimga ulkan umid bilan qaraganliklari uchun barcha sharoitlarni yaratib berganlar. Xonamni o'zimcha „ofis“ deb atab ham olganman. Kompyuter, skaner, printer, hatto Internet — barchasi ofisimda muhayyo.

Shunday qilib, do'stlarim bilan oqshomda bizning uyda yig'iladigan hamda belgini Internet tarmog'iga yo'llab, so'rov yuborish va qidiruv dasturiga kiritishga kelishib oldik.

YO‘QOLGAN SARHAD: ZAMON VA MAKON ORALIG‘IDA

Kelishganimizdek, do‘stlarim bilan kech oqshom uyimizda yig‘ildik. Oyim, dadam va do‘stlarim birgalikda kechki ovqatni yedik. Dadam:

— O‘g‘lim, nimalar qilib yuribsan? Tunov ku-ni ona tili mualliming sendan shikoyat qildi.

Onam yeb turgan nonini chaynashdan to‘xtadi va menga yana xavotirli tikila boshladi:

— O‘g‘lim, bu nimasi?!

— Yo‘q, hammasi joyida, — dedim men ularni tinchlantirmoqchi bo‘lib.

— Ustozingning aytishicha, darsda xayol surib o‘tirarmishsan?! — tahdidli ohangda ogohlantirdi dadam.

Nihoyat, biz kutgan lahza keldi. Ishga kirishish-dan oldin:

— Do‘stlar, fikringizni bir joyga jamlang. Biz hozir amalga oshirayotgan ishimiz uchalamizning o‘rtamizda sir bo‘lib qolishi lozim. Chunki bu loyiha amalga oshgunicha uni hech kim bilmasligi kerak, — dedim.

Turg‘unning ko‘zlari katta-katta ochila boshladi. U nimalardir deb savol bergisi kelardi-yu, ammo asta-sekin bizga moslashib, ko‘nika boshlagandi. Shunda unga:

— Turg‘un, biz ezgu ishga bel bog‘laganmiz. Hozir barini izohlab o‘tirishga vaqt yo‘q. Senga Do-niyor hammasini tushuntiradi. Faqat sen uning yo-nida turgin. Aytganlarini va faqat aytganlarini qil. O‘zingcha bir ish qilib, rejamizning pachavasini chiqarma, xo‘pmi?

— Xo‘p, — dedi Turg‘un komandirining qarshisida turgan askardek shahd bilan.

— Bo‘lmasa, ishga kirishdik. Doniyor, skaner-dagi belgi suratini kirit. So‘rovga ingliz tilida yoz: Bu nimani anglatadi?!

Doniyor aytganimdek qildi. Biroq Internet tarmog‘i bu belgini qabul qilmadi.

— Negadir rad etish dasturi to‘sqinlik qilyapti, — dedi Doniyor, — bu Internet tarmog‘ing be-darvoza shahar degani bo‘lsa, nega shu belgini qabul qilmayapti, hayronman.

— Yana harakat qil.

Doniyor takror urindi. Ammo natija yana shunday. Yana ketma-ket urinishlar, natija esa bir xil. Alamimdan stolni mushtladim:

— Bu nimasi?!

— Bu yerda bir sir bor, — dedi Turg‘un ham hayron qolganidan.

Doniyor shu dam Turg‘unga yalt etib qaradi, go‘yo uning nazarida shu payt kesakdan o‘t chiqib ketganday edi.

— To‘g‘ri, — dedim men, — Doniyor, sening gapingda jon bor. Raqamlar va belgilarda ham ilohiylik bor.

— Bu qurg‘ur belgining nomlanishini ham bilmaymiz. Balki nomi bilan qidiruvga bersak, biror izoh toparmidik.

Shu payt birdan chiroq o‘chib-yondi, yer silkingandek bo‘lib, xonadagi jihozlar zirillab qo‘ydi. Kompyuter monitorida esa har xil chiziqlar paydo bo‘ldi va shirillab qoldi.

— Obbo, nima bo‘ldi yana, — dedim jig‘ibiyron bo‘lib.

— Ishqilib, kuymagan bo'lsin-da, — dedi Turg'un.

— Nafasingga o't tushsin, — dedi Doniyor.

Qo'limni shundoq monitorga uzatgan ham edimki, u lip etib yondi. Ekranda esa yetti xil tilda yozilgan jumla chiqdi. Biz ingliz tilidagi so'zlarning mag'zini chaqa oldik, xolos. Bu: „O'n sakkiz ming olam sarhadi“ degan gap edi. Tagida esa „Qaysi til-da?“ degan so'roq turibdi. Biz ingliz tilini tanladik. Shundan so'ng savollar ketma-ketligi chiqq boshladi. Biz ularga tez-tez javob bera boshladik. Qiziq, savollarning barchasi men bilgan mavzularda edi. Go'yo bu savollarga avval ham javob bergandekman.

— Ismingni yoz!

— Olimjon.

— Sarhadga o'tishga ishonching komilmi?

— Ha.

— Yetti ulug' shaxsning nomini yoz.

— Iskandar Zulqarnayn, Al-Buxoriy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Temur, Napoleon, Jaloliddin Manguberdi.

— Iskandarning ustozlari?

— Arastu.

— Qur'oni karimdan keyingi ulug' kitob?

— „Al-jome as-sahih“.

— Amir Temur imkoniyatni boy bergan jang?

— Loy jangi.

— Napoleon xato qilgan jang?

— Vaterloo.

Shunda bir zum kompyuter jim bo'lib qoldi. Tasvirlar esa tinmay o'tib turardi. Uchalamiz ham angrayib qolgan edik. Turg'unning aqli hayron edi:

— Tavba, bu gaplarni, savollarni bizga kim jo'natyapti o'zi?

— Olimjon, — tilga kirdi Doniyor, — e'tibor qilyapsanmi? Bu qaysidir bir odam, sayt yoki profildan kelmayapti. Qara, kelayotgan manbaning hech qanday asosi yo'q. Unda na sayt nomi, na login, na profil va yoki blog bor.

— To'g'ri aytasan, bu, menimcha, insoniyat ishorasi emas, zamon va makon orasidagi sarhad yo'lagidan alomat bo'lsa kerak.

— Aslida eski ilohiy raqam va belgilarni zamonaviy elektron texnologiyalar o'qiy olmaydi-ku.

— Gaping-ku, to'g'ri, ammo koinotda Internet oqimi aynan biz aytayotgan sarhad makoniga to'g'ri kelib qolsa, maydonlararo o'tish tuynugi hosil bo'lishi mumkin.

— Demak, biz ular kesishgan nuqtada turgan bo'lishimiz mumkin, — chakkasi terlab ketgan Doniyor vahimaga tushgancha menga qarab qo'ydi.

— Hoy, tag'in sarhadga to'g'ri kelib, o'tmish zamonga qaytib qolmaylik. O'zi nimalar qilyapsanlar?

— Qo'rqmanglar, — ularni yupatdim men, — o'tilgan taqdirda ham men o'tishim mumkin. Chunki unga mening nomim kiritildi va kodlandi.

Bir vaqt kompyuterga signal keldi va qator yozuvlar chiqdi.

— Kalit izlovchi nomini kirit!

— Olimjon.

— Olamlarni tanla: ertaklar olami; o'tmish olami; o'simliklar olami; hayvonot va jonzoqlar olami; barchasi.

— Ertaklar va o'tmish olami.

— Javoblar qabul qilindi. O'n sakkiz ming olam safariga xush kelibsan! Kutib tur!

Men yashin tezligida fikrlay-boshladim. Barchasi ayon bo'lgan edi. Urinishlar zoye ketmadi. Men kodni topmoqchi edim va bu yo'lda qandaydir yo'lakka duch keldim. Demak, tilsim shu tuynuk ortidan topiladi. Zudlik bilan Doniyorga hamma gaplarimni aytib tashladim. Chunki vaqt ziq:

— Do'stim, men safarga chiqaman. Hozir g'oyib bo'lsam, cho'chib ketmanglar! Doniyor, hamma aytganimni qil! Xo'pmi! Uydagilarim sirni bilib, cho'chib ketishmasin! Men, albatta, qaytaman. Turg'un, sen Doniyorning yonida bo'l va aytganlarini qil! Qani, do'stlarim, buyuk ishlar uchun olg'a!

Do'stlarimning ko'zlari katta-katta ochilib, peshanalaridan ter chiqib ketgan edi. Ayniqsa, Turg'un bechoraning rangida rang qolmagandi. U hozir nima bo'layotganini oxirigacha anglay ham olmayotgandi.

Kompyuterdan oxirgi signal keldi chamasi. Monitorida buyruq aks etdi:

— Nur taralgan zahoti ko'zingni yum va shoshmasdan o'n sakkizgacha sana, keyin esa o'n sakkizdan birgacha qaytib kel. Shu vaqt oralig'ida ko'zlaringni hatto igna uchiday ochsang va undan ko'zingga nur kirsam, toshga aylanasan!

Bundan hammamiz birdek qaltiray boshladik. Xayolimizni yig'ib olmasimizdan kompyuter monitoridan chaqnoq nur taralib chiqdi va bundan go'yo butun uy, hatto olam yorishib ketgandek bo'ldi. Hammamiz cho'chib ketganimizdan qichqirib, bir-

birimizni quchoqlab olganimizcha, birdaniga ko'z-larimizni yumdik va buyruqni bajardik...

U yog'ini esa bilmayman. Go'yo tosh qotib ux-lab qolgandekman. Quyosh butun vujudimni qiz-dirib yuborganidan uyqusirab, o'ng yonboshimga ag'darilsam, ikki shoxli, bo'ynida uzun soqoli bor bahaybat bir oq dev yantoq chaynagancha menga qarab turibdi. O'takam yorilay deb, shoshganimcha sapchib o'rnimdan turdim. O'zimga kelib qarasam, oppoq bir echki ma'raganicha kavshanib turibdi.

ERTAKLAR OLAMI: MEHRIBONLAR MAMLAKATIDA

Bu qanday joy bo'ldi. Qayerga kelib qoldim. Asta xotiram joyiga kela boshladi. Shoshma, men sirli kalit tilsimini izlab, zamon va makon sarhadidan o'tib ketdim-ku. Bu joy qaysi zamon, qaysi olam, qaysi mamlakat ekan? Eh, u yoqda do'stlarim qolib ketdi-ku. Uydagilar meni deb xavotirga tushadigan bo'lishdi-da. Ha, mayli, Doniyor, Turg'un bor-ku. Bir yo'lini topib turishar. Eng keraklisi, qaytish uchun ko'prik so'z yodimda.

Shu kabi o'y-xayollar bilan bo'lib, ust-bo-shimni changlardan qoqib tursam, bir otaxonning ovozi eshitilib qoldi:

— Hoy, bo'talog'im, kimsan?!

Yo Xudoyim, ovoz xuddi amakimniki edi. Xur-sand bo'lganimdan yig'lab yuboray dedim. Ne ko'z bilan ko'rayki, qarshimda xuddi amakimga o'xsha-gan oppoq kiyimli Xizrmonand bir bobo turardi. Soqollari ko'ksiga tushadi. Qo'lida esa tayog'i.

— Assalomu alaykum, bobojon! — deya unga ta'zim qilib, yoniga bordim.

— Vaalaykum assalom, mullo bo'ling! Bu turishingizdan bizning yurt bolasiga o'xshamaysiz! Ammo so'zlashingiz bizning tilga ancha yaqin. Qaysi yurtlardan bo'lasiz? Bu hech kimsa yo'q joyda qayerdan paydo bo'lib qoldingiz?

— Men kelajakdan kelib qoldim, bobo. Ismim Olimjon. Sizniki-chi?

— Mening ismim To'qsonboy. Yoshim ham to'qsonda. Mana shu adirlarda qo'y-u echki boqib yuraman.

— Bu qaysi olam, qaysi yurt, bobo? O'rganish ishimda bir sirli kalit tilsimini izlab, o'tmish yo ertaklar olamiga kirib qoldim, shekilli.

— Ha, bolam, har bir inson o'tmish va ertaklar olamidan, umuman, bu o'n sakkiz ming olam qatidan istagan savoliga javob topishi mumkin. Zero, Yaratgan Egam bandalariga ilm berib, ularni behad mukofotlagan. Bu sen kelgan olam mehribonlar o'l-kasi hisoblanadi. Yurtimizning hamma odamlari mehribon va rahmdil. Podshohimizdan tortib, bu elda barcha ilmli, kasb-hunarga mehr qo'ygan. Bu yerning eli faqat tinchlik istaydi. Shu sabab, yurtimiz sardori urushlarga ruju qo'ymagan. O'zga ellarni talab, boylik orttirishni o'ziga or deb biladi. Aksincha, qo'shni ellar bilan do'st bo'lib yashaylik, deydi. Ammo necha yillardan beri Bag'ritoshlar diyorining johil shohi yurtimizga ko'z olaytirib kelmoqda. Podshohimiz necha yillardan beri u bilan do'stona ish tutishga harakat qildilar, ammo nafi bo'lmadi. Oxir-oqibat o'rtadagi munosabatlarga futur yetdi. Eshitishimcha, endi u qo'shin to'plab,

bizning yurtni istilo qilish uchun yo'lga chiqqan-mish.

Men bir munkayib qolgan chol bo'lsam, qani yigitlik davrimga qaytsam-u, dushmanning boplab dodini bersam, ammo qo'limdan mana shu suruvni boqishdan o'zga ish kelmaydi.

— Bobo, bu mol-u qo'ylar suruvi kimga tegishli? — so'radim qiziqib.

— Ha, bu suruv saltanatning mulki sanaladi.

— Saltanatingiz ancha obod, chek-chegarasi yo'q bir makonga o'xsharkan, bobo? Ammo shunday jannatmakon o'lkani yovga berib qo'yish yaxshi emas.

— Bu gaplaringdan dono bolaga o'xshaysan? — bobo dasturxon yozib mehmon qilarkan, men bilan qiziq boshladi.

— Bobo, nega xalqni yig'ib, dushmanga qarshi kurashga chiqmayapsizlar?

— Podshohimiz: agar dushman bizdan bir necha barobar ko'p bo'ladigan bo'lsa-yu, kurashsak, xalqimiz qurbon bo'lib, aziz o'lkamiz vayronaga aylanishi mumkin. Bu esa yurtimiz ravnaqini necha yillar ortga surib yuboradi. Rivojlanish to'xtab qoladi, balki, birinchi galda, vaqtincha bo'lsa ham, muzokara yo'lini tanlash lozimdir, deb fikr qilib turibdilar.

— Bobo, haqiqatan ham, el-yurt tinchligini o'ylash oliy fazilat. Biroq muzokara qilganingiz bilan johil odamlar hech qachon o'z so'zida turmaydilar. Maqsadlariga yetishgach, yurtiingizda istagan bezoriligini qilishi, insonlarni esa xo'rlashi mumkin.

— Bu gaplarni qaydan bilasan? — so'radi bobo hayratlanib mendan.

— Buni men tarix va ertak kitoblarida o'qiganman.

Bobo gaplarimdan ta'sirlana boshlagandi. Mendan ko'z uzmay so'zlarimni tinglar edi. Balki ichida: „Bu tirrancha bir qarich bo'lgani bilan baloga aqli yetarkan“, deyayotgan bo'lsa ajab emas.

— Xo'sh, unda nima qilish kerak, deysan?

— Bobo, dushmani mag'lub etishda harbiy hiylaning zo'r foydasi bor. Dushman johil ekanmi, unga shafqat qilish kerakmas. Harbiy hiyla bilan uni yengish va jazosini berish kerak.

— Men bir cho'pon bo'lsam, yur, yaxshisi, seni podshohi olamning yonlariga olib boray. O'sha yerda aytadigan gapingni ayt. Balki shohimizga ma'qul bo'lib qolar. Aytganingdek qilinsa, yurtimiz yov changalidan qutular, — dedi bobo qalbida allaqanday ishonch paydo bo'lib.

Boboning gaplarini tinglarkanman, ichimda „Men o'zi dasturim uchun kalit tilsimini izlab yurgan bo'lsam, bu chol bilan borishning menga nima foydasi bor“, deya o'yladim. Ammo shu tobda amakimning „Kingaki yordaming kerak bo'lsa, aslo o'ylanmay yaxshilik qil. Zero, har bir ishda Yaratganning hikmati bor“, deya aytgan gaplari xayolimga keldi va mo'ysafidga:

— Yuring, bobo, meni hazrati oliylarining oldilariga boshlang, — dedim xuddi bahodirlarday.

Saroyga borib, podshoh huzuriga kirdim va odob bilan salom berdim.

Shoh boshdan oyoq sinovchan nazar tashlab, meni savolga tuta boshladi:

— Biz tomonga dushman bostirib kelmoqda. Son jihatdan u bizdan ustun. Qani, ayt-chi, uni mag'lub etish uchun qanday chora qo'llamoq lozim?

— Podshohim, menimcha, harbiy hiyla ishlatish kerak. Go'yoki, siz ularga muzokara tuzgandek, aniqrog'i, ularga yon bergandek bo'lib ko'rinasiz. Atrofda ham shunday manzara yaratasiz. Shunisi aniqki, har qanday insonning maqsadi kutilmaganda, birdan ro'yobga chiqsa, u, albatta, dovdi-raydi va hushyorlikni unutadi. Tez va oson erishilgan g'alaba insonni beparvolikka olib keladi. Bu esa tuzatib bo'lmas xatolarga yo'l ochadi. Shu bilan yovni xato qilishga majbur qilish mumkin.

— Dushmanni aslo zaif deb bo'lmaydi. Illo u ham hiyla ishlatishga qodirdur, — deya vaziri a'zam o'z fikrini bayon etdi.

— To'g'ri, ammo sizlar shu vaqtgacha bu yo'lni tanlash tugul, hatto jang ham qilmagansizlar. Shu bois, ular sizlardan buni kutmaydi. Jang borasida sizlar dushman nazdida zaifsizlar. Ammo haqiqatda bunday emas.

— To'g'ri gapirding, bolakay, — dedi podshoh mening gaplarimdan ruhlangan ko'yi va bildirgan taklifimni qo'llab-quvvatladi.

Shu tariqa taklifimga yana yangi rejalar qo'shimcha qilinib, jang olib borish usuli ishlab chiqildi...

Endi men boshimga dubulg'a, egnimga sovut kiyib, dasturchi Olimjondan jangchi Olimjonga aylandim. Eh, shu turishimni ota-onam, amakim, do'stlarim, keyin anavi... quyi sinfdagi Nozima ko'rganlarida bormi, hayratdan dong qotib qolardilar-da...

Shu o'y-xayol bilan borarkanman, boshimdagi dubulg'a og'irlik qilib, sal bo'lmasa, otdan to'ntarilay dedim. Otning jilovini mahkam ushlaganim-

cha, boshimdagini to'g'riladim-da, qaddimni baland ko'tarib oldim...

Shunday qilib, biz o'zgalar tinchini buzib, moldunyo o'rttirish, yurtlarni talon-taroj qilib, begunoh odamlar boshiga quzg'undek chang solishga uringan dushmanga tuzoq qo'yishga kelishib oldik.

Oradan vaqt o'tdi... Johil shohning qo'shini qal'a ostonasiga kirib kelibdi hamki, qarasa, saroy darvozalari lang ochiq holda turibdi. Qo'rg'on ichida hech zog' yo'q. Do'konlar ochiq. Ularning ichidagi turli tilla taqinchoqlar-u qimmatbaho shoyi mollar ko'zni qamashtiradi. Bozorlarning rastalarida turli-tuman meva-chevalar, noz-ne'matlar bog'dan yangi uzib olib kelingan bo'lib, meni ye, degandek tovlanib turibdi. Attorlarning qopchalaridan turli dorivor-u ziravorlar tarqatayotgan totli islar dimog'ni qitiqlaydi.

Bundan aqli ozib qolayozgan johil shoh qah-qah otib kuldi:

— Axiyri, molini ham tashlab, jonini hovuchlab, qochib qolibdi-da, bu qo'rqqoq kalamushlar!

— Butun saroy, saltanat, cheksiz boylik endi bizniki, — deya navkarlar qilichlarini jaranglatib, sovutlarini sharaqlatib, xursand holda birdek qichqira boshladilar.

Bu damda ular jang qilishni ham unutib, ko'zlarini sehrlab qo'ygan tillalar-u cheksiz boylikka, noz-u ne'matlarga asir bo'lgan edilar.

Ammo ularda ham bir dono vazir bor ekan. Podshohga qarata:

— Shohim, bu qal'ada hech kim yo'q. Tuyoqlar izlari esa lashkarning qal'a ichiga qarab ketganligini

ko'rsatmoqda. Ular qayoqqadir bekingan bo'lishi mumkin?! Bu hol qandaydir hiyla yoki sirli bir jumboqqa o'xshab ko'rinmoqda.

Johil podshoh vazirini vahimakashlikda aybladi:

— Ey, vazir, vahima qilma. Nima bo'lganda ham biz qal'ani egalladik. Qal'a bizniki. Tag'in ishonib bo'lmaydi. Qo'mondonga ayt, qo'shinni guruh-guruhlarga bo'lsin-da, hamma yoqni aylanib, o'rganib chiqsin!

Boylik ko'zini ko'r, aqlini ojiz qilgan nodon shoh qo'shinni bo'lish o'ziga qimmatga tushishini, o'lja deb hisoblagan qo'rg'on esa navkari uchun to'rqovoq bo'lishini, afsuski, o'ylab ham ko'rma-gandi.

Bundan ustalik bilan foydalangan holda, men va dono podshoh uchqur qo'shin hamrohligida qal'aga shiddat bilan yopirilib kirdik. Bosqinchilar mam-lakat bizniki deb, hamma yoqni talon-taroj qilib, otlarining xurjunlariga tillo tangalar, oltin buyum-larni solayotgan chog'ida ustiga burgutdek chang solgan navkarlarning hujumidan pana qilish uchun voy-dodlaganicha qilich va qalqonlarini izlashga tushib qoldilar. Ungacha birining ko'ksiga, birining bo'g'ziga vizillab uchib kelib qadalgan kamon o'q-lari ularni bir-bir yerga qulata boshladi. Biri voh jonim, deb otdan qulasa, biri voy onajon, deb yerga ag'darilardi. Qaqshatqich jang bo'ldi. Nihoyat, be-gunoh el ustiga ajdahodek yopirilgan dushman oxir-oqibatda tuzoqqa tushgan tulkidek chorasiz qoldi.

Johil podshoh mag'lub etilib, jazo sifatida kim-sasiz cho'l-u biyobonga badarg'a qilindi. Navkarlari esa bosh egib, taslim bo'ldi. Adolatli shohning donoligini ko'rib, ko'plar uning xizmatiga o'tdi.

Mehribonlar mamlakatining podshohi g'alaba sharofatiga yurtga katta to'y berdi va xalqiga qarata shunday dedi:

— Muhtaram xalqim! Barchangiz guvoh bo'lganingizdek, hatto muzokara qilishga rozi bo'lib turgan yurt bugun yov xavfidan tamomila qutuldik. Hatto uni mag'lub qildik. Bunda bizga kelajakdan tashrif buyurgan bolakay Olimjonning o'rgatgan usuli, ya'ni harbiy hiylasi g'oyat qo'l keldi. Uning aytganidek, biz uchqur otlarimizning tuyoqlariga taqalarni ters qoqib, vaqtincha qal'ani tark etganimiz dushmanni mutlaqo chalg'itib qo'ydi va biz jangda g'olib bo'ldik.

Butun xalq esa bu damda meni olqishlar edi. Yonimda esa To'qsonboy bobo mamnun jilmayib turardilar.

So'zining oxirida podshoh menga:

— Tila tilagingni, ey, Olimjon! — dedi.

— Podshohim, bir qoshiq qonimdan kechsan-giz, yagona tilagim bor!

— Xo'sh, gapir.

— Men o'z zamonimda katta bir ixtiroga qo'l urganman. Uni yakuniga yetkazish uchun esa sirli bir kalit tilsimini izlamoqdaman, — deya qo'yimdan o'sha rasmi belgini olib ko'rsatdim.

Podshoh belgini ko'rdi-yu, beixtiyor o'ychan bo'lib, negadir xomush tortib qoldi:

— Sen bu tilsimning oxiriga yetish uchun salkam Odam Ato davriga qadar borishingga to'g'ri keladi. Chunki bu tilsimning oxiri bizda, boshi esa qadim kechmishda. Mening mulkimda bir sirli uzuk bor. Sirli kalitning bo'rtmali tishlari ana shu uzukdagi

belgidan boshlanadi. Bu uzuk saltanatim boyligining yarmiga teng va bebaho. Shunday bo'lsa-da, uni senga tuhfa etaman. Unutma, sirli kalit belgisining tishi uch bo'rtmadan iborat bo'lib, uzugimda uchinchi bo'rtma belgisi qayd qilingan. Uning ko'zini burasang, kalit tishining ikkinchi bo'rtmasiga olib boradigan olamga tushasan va undan shu belgini izlaysan! Ammo ogoh bo'li! Bu yo'l shunday sinoatliki, undagi kurashlarda hatto shirin joningdan ayri-lishing mumkin.

Shunda To'qsonboy bobo:

— Polvonim, istasang, biz bilan qol! — dedi. Podshoh ham uning fikrini ma'qulladi:

— Ha, bu ma'qul taklif. Agar rozi bo'lsang, seni vaziri a'zamning maslahatchisi etib tayinlagum. Biz bilan birga qol!

— Qulluq, shohim! Iltifotingizning cheki yo'q. Ammo o'z olamimda ham menga yuklangan ulug' vazifalar bor. Uni ado etishim shart va zarur.

— Shunday qarorga kelibsanmi, biz aslo qarshi emasmiz. Biz sendan minnatdormiz!

Ketish oldidan To'qsonboy bobo menga kichik bir ko'zacha uzatdi. Amakimning nosqovog'idan kattaroq. U belga bog'lab olinadigan holatda ixcham edi.

— Bu nima, bobo? — so'radim qiziqib.

— Bu shunday bir xislatga ega malhamki, u sirli giyohlardan tayyorlangan. Undan bir no'xatdayini og'zingga solsang, filning kuchi-yu og'irligiga ega bo'lasan, ikki-uch no'xotdayini solsang, metindek buzilmas qo'rg'onga, joyidan siljimas tog'ga aylanasan.

Ko'zachani bobo belim osha aylantirib, mahkam bog'lab qo'ydi.

Xullas, men barcha bilan xayrlashib, To'qson-boy boboga tashakkurlar aytib, ularning duolarini — olgach, sirli uzukning ko'ziga boqdim. Unda na raqam, na belgiga o'xshash qadimiy bir shaklni ko'rdim va asta-sekin uning ko'zini buray boshladim...

DONIYOR VA TURG'UNNING TOPQIRLIGI

Meni hech kim bilmaydigan, xayoliga ham kelmagan bir tarafga jo'natib yuborib, nima qilarini bilmay, angrayib qolgan Doniyor va Turg'un dahshatga tushib qolishgan edi.

Hatto Turg'un bundan qo'rqqanidan yig'lab yuborgandi. Doniyor esa nima bo'lganda ham o'zini bosib oldi, endi vaqtni o'tkazmasdan Olimjonning aytdanlarini bajarish kerak, derdi o'ziga o'zi.

Hiqillab turgan Turg'unni jerkib tashladi:

— Menga qara, bu voqeani toki Olimjon qaytguncha hech kim bilmasligi kerak, tushundingmi?!

— Iye, nega? Axir Olimjonni qaytarish kerak. Militsiyaga xabar berish lozim. Uni topish zarur. Ota-onasiga nima deymiz? „Olimjon qani?“ deb so'rashsa, „O'lgani ketdi“, deymizmi? — Turg'unning titrog'i hali bosilmagan edi.

— Hoy, galvars, u o'zi yaratgan dasturi sabab o'sha olamga ketib qoldi. Uni militsiyang tugul u bilan yonida birga o'tirgan, funksiyalarni birga bajargan odam — men ham hozir topolmayman, chunki yodimda hech narsa qolmadi.

— Unda nima qilamiz? — titrab-qaqshab savol bera boshladi Turg'un.

— Do'stim, o'zingni qo'lga ol, — bu safar Doniyor unga muloyimlik bilan dalda bera boshladi. — Biz kutilmagan kashfiyot yaratdik. Ishonamanki, Olimjon hozir qaysi olamda bo'lmasin, o'z ishini oxiriga yetkazadi va bizning dunyomizga qaytadi. Faqat sen sirni birovga aytib qo'yma. Agar buni omma biladigan bo'lsa, hamma ishimiz chappasiga aylanib ketadi. Ana unda Olimjon biz bilan aloqa qilolmay, o'sha olamda qolib ketishi ham aniq. Sen faqat mening aytganlarimni bajar. Shunda xatoga yo'l qo'ymasligimiz mumkin.

— Nima qilamiz unda? Ishni nimadan boshlaymiz?

— Hozir bizning birinchi ishimiz Olimjonning oilasini va maktabdagilarni Olimjonning shu yerda ekanligiga ishontirishimiz zarur. Buning uchun esa...

— Xo'sh...

— Buning uchun xuddi Olimjonga quyib qo'ygandek o'xshaydigan bir bolani topishimiz va uni uyiga, maktabiga kelib-ketishini ta'minlashimiz lozim, ya'ni u Olimjon rolini o'ynab turishi kerak.

— Tentakmisan, bunday bolani qayerdan topamiz? Bu faqat kinolarda, ertaklarda bo'lishi mumkin!

— Boshqa ilojimiz yo'q. Axir bir odamning yetti xil quyib qo'ygandek o'xshashi bo'ladi, degan faktlar o'z isbotini topgan-ku.

— Qaydam, balki bordir?!

— Hozir yotib dam olamiz-da, ertaga ertalabdan shu ishga kirishamiz. Olimjonning oilasini esa uni erta tongdan Odil muallimning uyiga ketdi, deb avraymiz, — deb Doniyor suhbatga yakun yasadi.

— Kelishdik, — deya javob qildi Turg'un.

Erta tura solib, ikkala sodiq do'stim tushmagurlar uydagilarimga xayr-xo'shni ham nasiya qilib, choy ichmaysizlarmi deganlariga ham qaramay, tuflilarini poyma-poy kiyib, qochishga o'tlanishdi. Dadam ularga qarab:

— Olimjon qayerda, bolalarim? — deya savol berganlarida bir-birlariga qarab so'rrayib qolishdi. Doniyor ovozi qaltirab:

— Haligi... u Odil muallimning uyiga ketgandi, — deya oldi zo'rg'a.

Dadam yana bir zum ularga qarab turdi-da:

— Qayerdadir yo'qotib qo'ymadinglarmi ish-qilib? — deya kutilmaganda savol berib qoldi.

Doniyor va Turg'un birdan siri oshkor bo'lib qolgan jinoyatchilardek birdaniga chirillashib:

— Ha, yo'g'-a?! — deya shoshganlaricha jo'r bo'lib javob berishdi va ko'chaga qarab juftakni rostlashdi.

Ikkalasi yo'lda borisharkan, suhbatlari davom etardi:

— Doniyor, Olimjonning dadasiga e'tibor qildingmi? — hayron bo'lib so'radi Turg'un.

— Hammasini biladiganga o'xshaydi, demoqchimisan?

— Ha-da.

— Unday bo'lsa nima qilamiz?

— Bir yo'lini toparmiz. Ishqilib, Olimjon tezda ortiga qaytsin-da...

Do'stlarim shu kuni bir nechta maktabni aylanib, rosa toliqdilar va nihoyat qo'shni qishloqdagi maktabda xuddi menga quyib qo'ygandek o'xshash

bir bolakayni topdilar. Mening ishimga go'yo kimdir yordam berayotgandi. Chunki uning ismi ham Olimjon edi-da. Uni ko'rdilar-u:

— Sen Olimjonmisan? — deya so'roqqa tutdilar.

— Ha, Olimjonman, nima edi? — deya bolakay javob berdi.

Turg'un sho'rlik bu tasodifdan shoshib qoldi:

— Ey, do'stim, kompyuter seni shu yerga olib kelib tashlaganmidi?! — deya ho'ngrab yig'laganicha unga yopisha ketdi.

Bolakay nima bo'layotganini tushunmay, gangib qoldi. Doniyor Turg'unni o'ziga tortarkan, bir-ikki urishib berdi va bolakayga shunday dedi:

— Do'stim, tasodifni qara, ham tengqur ekanmiz, yana isming Olimjon ekan, yur, bir xoliroq joyga chiqaylik, senda muhim gapimiz bor. Xavotir olma, senga yomonligimiz yo'q. Aksincha, bizga sening yordaming kerak.

Ular xoli joyga chiqib, uzoq suhbatlashdilar. Olimjon ismli o'sha bolaga vaziyatni tushuntirdilar. Ammo mening o'zga olamga sayohatimni sir qilib qoldirishdi-da, „Olimjon uzoq qarindoshinikiga ketgan, o'rniga uylarida va maktabdagi mashg'ulotlarda ko'rinib turishing kerak“, deyishdi.

Do'stlarimning shartiga avvalboshda bolakay ko'nmadi. Biroq Doniyorning insonlarga nisbatan ezgulik qilish oliy fazilat va savobli ish ekanligi haqidagi chiroyli gaplaridan so'ng u bunga rozilik bildirdi. Doniyordan yaxshigina notiq chiqadi-da, o'ziyam.

Mening o'xshashimni topgan shovvozlar bolakayning ko'rinishi, yurish-turishini imkon qadar

menga aniq o'xshatishga kirishdilar. Dastlabki ishni soch turmagimdan boshladilar. Qishlog'imizdagi sartarosh tog'aga kirganlarida u bolakayga qarab:

— Olimjon, bo'tam, yuribsanmi, bu soching boshqacha bo'lib qolibdimi yo bo'yadingmi? Farqing ham boshqacha ochilibdi, — deya hayron bo'lib qarab qoldi.

Eng hayron qolarli tarafi shundaki, bolakayning sochini qanday olish lozimligini Turg'un va Doniyor aytib turar edi. Sartarosh tog'a esa:

— Nega senlar aytyapsanlar? Buning o'zi bilmaydimi? Har safar menda soch oldirib yuradi-ku, axir, — derdi.

Do'stlarim esa har xil gaplar bilan uni chalg'itishga urinardilar.

Ular o'rnimga topilgan bolakayning ustiga kiyimlarimni kiydirishgan ham ediki, kiyimlarim unga biroz kattaroq keldi. Epchil Doniyor o'sha kuni uyimdan chiqib ketishda buning ham g'amini yeb, ba'zi kiyimlarim va maktab formamni sumkasiga solib olgan ekan.

— Ketdik, atelyega borib, kiyimlarni unga moslattiramiz, — dedi Doniyor.

— Tentakmisan, undan ko'ra, boshqa kiyim olaylik, — dedi Turg'un unga.

— Seni shu chuqur o'ylamay valaqlaydigan odating bor-da. Hozir buni kiymasa, ota-onasi undan shubhalanadi. Qirqib tuzatsak, hechqisi yo'q. Olimjonning o'zi kelganda ham, kiyimlarim kichik bo'lib qolibdi, desa uydagilari bunga ishonishadi. Uqdingmi?!

Turg'un uqdim degandek boshini sarak-sarak qildi.

Atelyega borib, shartni tushuntirganlarida, tikuvchi bir ikkinchi Olimjonga, bir kiyimlarga qaradi:

— Bu kiyim o'zingnikimi? — hayron bo'lib so'radi u. Ikkinchi Olimjon ham bir bizga qarab qo'ydi-da, „Ha“, dedi.

Tikuvchi kiyimning goh u yog'ini, goh bu yog'ini o'g'irib qaradi-da:

— Odatda, odamlar bizga kiyilgan kiyimlarni emas, balki yangi kiyimlarni ixchamlashtirishga olib kelishardi, — dedi va yana so'radi, — yo bu akangnikimi?!

Doniyor javob berishga zo'r imkon tug'ilganidan shoshib qoldi:

— Ha, aytgancha, bu akasiniki, shundaymi? — deya ikkinchi Olimjonga qaradi. U ham shoshganicha:

— Ha-ha, — deb tasdiqladi.

Atelyedan chiqqanlaridan so'ng ikkinchi Olimjonga mening qirqib to'g'rilangan kiyimlarimni kiydirib qo'yishdi. Bir qarashda, haqiqatan ham, u mening o'zim edi.

Kech tushgach, ular ikkinchi Olimjonga mening oilam, oila a'zolarim, uyimning joylashishi, darsxonam, yotoqxonam, xarakterim, qiziqishlarim, hozirda amalga oshirayotgan ishlarim haqida qisqagina tushuncha berishdi va uni uyimga kuza-tayotib:

— Endi, oshna, seni vaqtincha ikkinchi Olimjon deb atab turamiz, ammo boshqalarga sen o'sha Olimjonsan. Bir kun o'z uyingda, bir kun do'stimiz

Olimjonning uyida tunab turasan, — dedi Doniyor unga. — Vaziyatni o'nglashni, yo'lda chiqib qolgan muammolarga yechim topishni esa bizga qo'yib ber. Aytganimizni qilsang bo'ldi.

— Qachongacha?! — so'radi ikkinchi Olimjon.

— Do'stimiz qaytadigan kungacha, — javob berdi Turg'un.

— Nima, do'sting bir yilda qaytsa, men ham bir yil shunday yuraveramanmi? — jahli chiqa boshladi ikkinchi Olimjonning.

— Nafasingni issiqroq qilsang-chi, oshna, — muloyimlik bilan gapida davom etdi Doniyor, chunki unga hozir qattiq gapirish bor imkoniyatni yo'qqa chiqarishdek gap edi. — Xudo xohlasa, bir haftada qaytib qolar?!.

— Mayli, ammo uzoq yurishga imkonim ham, toqatim ham yo'q, — deya ikkinchi Olimjon suhbatga yakun yasadi.

— Bo'pti, endi xayr, sekin borgin-da, uydagilar bilan salomlash. Ovqatlan deyishsa, „Qornim to'q, ertalab maktabga barvaqt borishim kerak“, deb aytgin. Iloji boricha, kam gapir. Sababini so'rashsa, darslaring, qiladigan ishlaring ko'pligini bahona qil, — deya Doniyor unga barcha zarur tavsiyalarni berdi.

Ikkinchi Olimjon „mayli“ degandek qo'l siltadi-da, uyimizga qarab kirib ketdi.

Doniyor uning ketidan qarab qolarkan:

— Ishqilib, ishning pachavasini chiqarmasinda, — deb qo'ydi. — Hali buning bilimi qanaqa, bilmaymiz ham, maktabda dars vaqtida qovunniyam naq traktori bilan tushirib bermasaydi hali. Buning

ketidan yurib, sochim oqaradi shekilli, — deya uning fig'oni falakka chiqq boshladi. — Hah, tentak Olimjon-a, nimalarga tashlab ketdi-ya bizni?

— G'irt qovoqbosh bo'lsa-ya! — deb yubordi Turg'un birdan va Doniyorning olayishidan xijolat bo'lib ketdi:

— Bo'lsa, ja senchalikmasdir, bodringkalla!

— Sen esa xumkallasan! — Turg'un ham bo'sh kelmadi.

Doniyor xayol surgancha oldinga qarab yurdi. Turg'un esa uning ortidan ergashdi.

Kech tushib, uyimizga go'yoki men bo'lib kirib borgan ikkinchi Olimjon uydagilarim bilan salomlashdi. Onam unga qarab qoldi:

— Keldingmi, o'g'lim?

— Ha, keldim, oyi.

— Tomog'ing og'riyaptimi, deymen, ovozing bo'g'ilib, boshqacha bo'lib qolganga o'xshayapti?

— Ha, chanqab turib, muzday suv ichgandim. Shunga shekilli.

— Ovqatlanasanmi?

— Yo'q, qornim to'q, Doniyorlarnikida ovqatlandim. Ertaroq dam olishim kerak. Maktabga sahar ketishim kerak. Tadbirimiz bor.

— Mayli, yaxshi dam olgin, bolam.

Ikkinchi Olimjon dam olgani, deb yurdi-da, mo'ljalni adashtirdi va darsxonamning eshigi oldiga bordi. Onam buni ko'rib, yana savolga tutdi:

— Charchadim deganding, dars qilmoqchimisani?

— Yo'g'-a!

— Unda nega darsxonangga qarab yuryapsan?

Ikkinchi Olimjon belgini xato olgandi. Shunda uning xayoliga Doniyorning gapi keldi: „Yurib borganingda birinchi o'ngdagi eshik Olimjonning yotoqxonasi“. Esiga tushdi-da, yotoqxona eshigi tomon yurdi hamda vaziyatni o'nglashga muvaffaq bo'ldi:

— Eh, charchab ketganimdan darsxonam bilan yotoqxonamni almashtirib qo'ydim, shekilli.

Onam bunga ishondi va yuz-ko'ziga xavotir ingan holda dadamning yonlariga qarab kirib ketdi:

— Dadasi, bolamiz sho'rlikka rahmingiz ham kelmaydi. Ishingiz yo'q. O'qiyverib, charchab ketganidan kichkina bo'lib, ozib, tobora qorayib ketyapti. Mengina tushmagur shunchagacha buni bilmagan ekanman, bugun bilibman, — deya yig'lamsiradi.

— Xo'sh, nima qil deysan, katta bola bo'lib qoldi. Hadeb tergayvermasang-chi?!

— Yo'q, men kamroq o'qib, ko'proq dam olsin, demoqchiman, axir bolaginamning guldek bolalik davri o'tib ketyapti. O'z davrida o'ynab-kulib qolsin, deyman.

— Xavotir bo'lma! Har bir odam o'zi yoqtirib qilayotgan ishidan orom, istirohat va bebaho quvvat oladi. Olimjon bundan qoniqish hosil qilyaptimi, demak, u ulg'ayish pillapoyasida. Inson ulg'ayish zinasida kerak bo'lsa, ozadi, to'zadi va semiradi ham. Hozir uning ishiga aralashib, yo'liga to'siq qo'yadigan bo'lsak, qaynab turgan istak va iste'dod bulog'ini erta so'ndirib qo'yamiz.

Tongda turgan ikkinchi Olimjon janoblari naq tuzoqqa ilinishdan qo'rqib, choyni ham ichmay, xayrni nasiya qilib, maktabga emas, to'g'ri Doni-

yornikiga bordi va unikida bir piyola choy ichib, ikkalasi Turg'unlarnikiga o'tdi.

Maktabga ketar ekanlar, Doniyor ikkinchi Olimjonni imtihon qilib ko'ra boshladi:

— Fanlardan qandaysan? Olimjonning miyasi naq superkompyuterning o'zi edi. Bilib qo'y. Tag'in sharmanda qilib o'tirma hammamizni.

— Olimjonning naq kompyuter bo'lsa, men hatto kalkulator ham emasman. Bidingmi, — piching qildi ismdoshim. — Maktabda o'qishni istamayman. Hunarni yaxshi ko'raman. Avtomobil haydash va uni tuzatish jon-u dilim.

— Dunyoda avtomobil dvigatelidan murakkab narsa borakanmi?! Uni bilish uchun esa fizika, matematika, kimyo, chizmachilik, eh-he, sanasam, mingta fanni chuqur bilishing kerak, — kuyina boshladi Doniyor.

— E, odamning yuragini yorasan-a, mening usta tog'am zo'rg'a sakkizni tugatgan, ustozga shogird tushib, hammasini o'rganib olgan. Hozir kimsan Shodivoy — qo'li gul usta. Hamma mashinasini shunga olib kelib tuzattiradi.

— Ha, mayli, Olimjon kelsin, keyin ustachilikni o'rganaverasan. Ungacha maktabda o'qib turishingga to'g'ri keladi, oshnajan, — deya Doniyor yana diplomatik yo'lga o'tdi.

Turg'un esa indamay ularning gaplarini tinglab ketardi, chunki nimadir deb qovun tushirib qo'yishdan cho'chirdi.

— Quloq sol, — dedi Doniyor ikkinchi Olimjonga, — darsda telefoningni yoqib, bir chetga yashirgin, agar o'qituvchi sendan biron savol so'rab qolsa, javobni zudlik bilan sms qilib yozaman. Sen

uni bildirmay o‘qib berasan, xo‘pmi? Doimo hushyor va ziyrak bo‘lib o‘tir. Hech kim seni haqiqiy Olimjon emasligingni bilmasligi kerak. Gapirmay jim o‘tiraver. Savol berilsa, javob berasan. Nega bunday, deyishsa, ikki-uch kundan beri tobim bo‘lmayapti, degin. Karrani yodlaganmisan o‘zi?

— Yo‘q!

— Navoiyning g‘azallaridan-chi?

— Yo‘q!

— Matematik formulalar yodingdami?

— Yo‘q!

— Hey, o‘zi sening lug‘atingda „Ha“ degan so‘z bormi?

— Yo‘q!

Doniyorning jahli chiqdi, yer tepinib, tishlandi:

— Bunaqada sen hammamizni fosh etasan hali.

Turg‘un bu javoblarni eshitar ekan ichida:

— Doniyor meni bodringkalla, deydi. Bu esa g‘irt baqlajonkalla ekan-ku?!

— Mayli, axir o‘qishga qiziqmasam nima qilay, Doniyor, sen sms yozishni qotiraver, men bu yog‘ini amallarman, — dedi ikkinchi Olimjon.

Adabiyot darsi... O‘qituvchi qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatov ijodi haqida gapiryapti. Shu payt „Uning asarlaridan birini ayting“, deb savol qo‘ydi. Biroz jimlik. O‘qituvchining nigohi ikkinchi Olimjonga tushdi:

— Mayli, Olimjon, o‘zing aytaqol. Tasavvur qilki, do‘stlaringning kemasi dengizga g‘arq bo‘lyapti. Marhamat, sen ularni qutqar!

Ikkinchi Olimjon bir zum jim turdi va telefoniga kelgan smsni shoshib o‘qidi:

— „Oh dema“.

— Nima?! — dedi o‘qituvchi atrofga alang-jalang boqarkan.

„Gurr“ etib kulgi ko‘tarildi.

O‘qituvchining biroz tabi tirriq bo‘lib, savolida yana davom etdi:

— Xo‘sh, asardagi salbiy obrazni ayt-chi?!

Doniyor shoshgan ko‘yi javobni yozganda so‘z oldiga „x“, ya‘ni „iks“ belgisi qo‘yilib ketdi.

Ikkinchi Olimjonning ovozi do‘rilladi:

— Xo‘rozqul!

O‘qituvchi bu safar tutaqib ketdi:

— Sening o‘zing xo‘rozsan! Maqtanchoq xo‘rozsan! Bilimi ko‘payib ketib, birovni mensimay qolgan xo‘rozsan! Tag‘in men buni do‘stlarining kemasini qutqaradi, deb o‘tiribman. Dengizning o‘rtasida naq cho‘ktirib o‘ldirding-ku, hammasini?! Sen bilasan, atayin meni mazah qilyapsan, shundaymi?! Hali ko‘rasan. Buni direktorga ham, otanangga ham aytib beraman.

Bolalar esa uning gaplaridan piqir-piqir kulib o‘tirardi.

Tanaffusda uchala shovvoz tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib o‘tirardi.

Navbatdagi dars — matematika. „Adabiyotdan qovun tushirgan bolakay, matematikada topishmoqni yechish tugul, o‘zi jumboq yoki masalaga aylanib qoladi. Bir narsa qilish kerak. Yoki jag‘i shishib ketdi, deb bog‘lab qo‘ysakmikan. Ha, shu to‘g‘ri yo‘l bo‘ladi“, deb yigitlar ikkinchi Olimjonning iyagini bint bilan bog‘lab qo‘yishdi.

Bir vaqt sinfga o‘qituvchi bilan birgalikda milit-ioner kiyimidagi profilaktika inspektori kirib keldi.

U nazorat tadbirida yurganligini ma'lum qilib, o'quvchilar, ko'proq o'g'il bolalar bilan yaqindan tanishib chiqdi. Tanishuv chog'ida o'quvchilarning ism-familiyalarini, darsdan bo'sh vaqtlarida nima ish qilishlarini to'liq so'rab olardi va qo'lidagi rasmga ularni solishtirib ko'rardi. Qiziq, har bir o'quvchining rasmini u qayerdan olgan ekan? Balki sinf rahbarimiz berganmikan? Ha, shunday bo'lishi mumkin.

— Uff, — dedi Doniyor, asta Turg'unga zimdan ko'z yugurtirarkan, — hozir yana bir ishkal bo'lmasaydi.

— Bo'ladiganga o'xshayapti, — dedi Turg'un xuddi hammasini oldindan biladigandek.

Turg'unning aytgani to'g'ri chiqdi. Inspektor ikkinchi Olimjonning o'ziga bir qarab, rasmimga bir tikilgach, uzoq turib qoldi. Yana qaytadan unga va rasmga qarab turdi va bolakayga qarab:

— Qani, jag'ingdagi bintni yechgin-chi?! — buyurdi ikkinchi Olimjonga.

Ikkinchi Olimjon bu yog'i necha puldan tushdi, degandek Doniyor va Turg'unga bir-bir tikildi.

Shunda Doniyor:

— Amaki, bu bolaning tishi og'riyapti, shishib ketgan, shuning uchun yecholmaydi, — deya gap boshladi.

— Yo'q, yechsin! Qo'rqmasin, men stomatolog emasman, ya'ni tish sug'urmayman, balki jamoat tartibini saqlashga mas'ul inspektorman.

— Yechaqol, — dedi o'qituvchi ikkinchi Olimjonga qarab. Ismdoshim ilojsiz bintni yechdi.

Inspektor xuddi kinolardagi izquvarlardek bolakayning ko'rinishi, holatini sinchiklab o'rgana bosh-

ladi... Xonada esa sukunat... Hatto uchayotgan pashshaning ovozi eshitilib turardi...

„Ana endi hammasi tamom bo‘ldi“, — o‘yladi Doniyor boshini changallagan ko‘yi. Uning xayolini inspektorning:

— Bu yigitni va uning eng yaqin do‘stlarini punktga olib borib, suhbat qilamiz, keyin esa uy-lariga jo‘natib yuboramiz. Siz xavotir bo‘lmang, — deya o‘qituvchiga aytgan taskinnamo gapi bo‘ldi.

Turg‘un, Doniyor va ikkinchi Olimjon o‘zlarini xuddi ulkan bir jinoyat ustida qo‘lga olingan ayb-dorlardek his qilib, lablari pichirlab, yuraklari dukillab, inspektor yonida borardilar.

Inspektor punktda ularni savolga tuta boshladi:

— Shu yigit rostdan ham suratdagi Olimjonmi?

— H-ha, — deya baravariga churillab javob berdi Turg‘un va Doniyor.

— Xo‘sh, — deya inspektor qoshlarini ko‘tarib, bir rasmga, bir ikkinchi Olimjonga va bir Turg‘un bilan Doniyorga qararkan, ikkala shovvoz uning nigohidan „Endi mendan ko‘rasanlar!“ degan gapni o‘qib turardilar.

Nihoyat inspektor tilga kirdi:

— Agar shu bola sizlar aytayotgan Olimjon bo‘lsa, nega ozg‘in va bo‘yi pastroq. Rangi rasmda oqish, bu esa to‘qish bug‘doy rangda. Rasmdagi Olimjonning sochlari mayin, ro‘paramdagining esa sochlari anchagina qalin. Eng ajablanarlisi, rasmdagi Olimjonning suratida yuzining o‘ng tarafida moshdek keladigan xoli bor. Qarshimdagining esa chap tarafida no‘xatdek xoli bor... Xo‘sh, sirni ochasizlarmi yoki hammangizni koloniyaga jo‘nataymi?

Turg'unning o'takasi yorildi. Ko'ziga yosh olib, hiqillab yig'lashga tushdi. Doniyor bir Turg'unga olayib, bir inspektorga tumtayib qararkan, sirni fosh etishdan boshqa yo'l qolmaganini anglagan edi.

Ikkinchi Olimjon esa sahnaga adashib chiqib qolgan aktyordek angrayib turar, na rolni davom ettirishni, na sahnani tark etishni bilardi...

GLADIATORLAR BILAN JAHOLATGA QARSHI

Men esa o'zga olamda o'zim bilan o'zim ovora edim. Mehribonlar mamlakati podshosidan olgan sehrli uzukning ko'zini buragan chog'imda atrofimni oppoq tuman qoplab borardi va men yana bir o'zga zamonga o'tayotganimni seza boshladim. Ne ko'z bilan ko'rayki, men Qadimgi Rim imperiyasida turardim. Shu vaqt bir kekxa cholga ko'zim tushdi. U menga qarab turardi. Kiyinishi rimliklarnikiga xos. Qizil va oppoq matodan kiyim kiygan. Yo Xudoyim, uning ham nigohlari amakimning nigohlari kabi edi. Shu amakimda bir sir bormi deyman-da. Ularni bejiz avliyo-yu donishmand deyishmaydi... To'qsonboy bobo va mana bu qariyaning qarashlari g'oyat o'xshash. Avliyolarning bir vaqtning o'zida bir necha makon-u zamonlarga boradigan karomatlari haqida o'qib, eshitgan joylarim bor. Shu o'y-xayollarni yakuniga yetkazmasimdanoq xuddi ichimdagini o'qib olayotgan kabi mo'ysafid sof turkiy tilda dedi:

— Adashmading. Sen Buyuk Rim davridasan.

Beixtiyor men o'zga olam, o'zga bir zamonda xuddi yurtdoshimni ko'rib qolgan musofirdek quvonib ketdim va „Assalomu alaykum“, deb salom berdim. U esa alik oldi.

— Sen sirli bir tilsim izidan tushgansan. Shuni izlab yuribsan.

— Topdingiz, — dedim aqlim chiroqdek yori-shib.

— Qani, men bilan yur, — dedi qariya.

— Siz kimsiz? O‘zingizni tanishtirmadingiz-ku?!

— Ha, men oddiy bir tarixchiman. Yozuvchi desa ham bo‘ladi.

U kamtarlik qildi, kamtarligi ham amakimga o‘xshaydi-ya xuddi. Chunki bu qariya oddiy bir odam bo‘lganda bunchalar haqiqatni sezib, qalbidan o‘tkazib turmagan bo‘lardi. Bunda qandaydir bir sir, ulug‘lik bor. Sezdimki, bu mo‘ysafid ham o‘z davrining buyuk allomasi. Biroq men hozir uni taniy olmayapman...

— Hadeb o‘ylanaverma, meni hali yaxshi tanib olasan, — dedi u ichimdagi fikrlarimni o‘qib borarkan. Men esa hayratlangan ko‘yi:

— Xo‘p, — deya oldim xolos.

Qariyanikiga borgach, u uyida meni mehmon qildi. Uyi to‘la kitob, xarita, chizmalar, rasmlar, hamma-hammasi bor.

Qariya asta gap boshladi:

— Rim imperiyasi bunyod bo‘lguniga qadar qanchalab jasur sarkardalar kurash olib borganlar. Dastlab, uning shoni va shavkati uchun yashaganlar va jang qilganlar. Buyuk Sezar adolatli tamoyillar asosida boshqaruvni amalga oshirgan. Ammo keyingi vorislar uning ishini munosib davom ettirmadilar. Ular taxtni kuch bilan ushlab turishga, saltanatni kengaytirish uchun bosqinchilik ishlarini amalga oshirishga, xalqqa zug‘um o‘tkazishga, maishatpa-

rastlik, ko'ngilxushlik qilishga mukkasidan ketdilar, insoniyat ustidan ermakka, kulishga o'tdilar. Bugun esa insonlarni xuddi it kabi chuqurga tashlab qo'yib, urishtirmoqdalar. Ularga bir-birini o'ldirishni buyurmoqdalar. Halok bo'lgan odamni ko'rib esa hayvon misli rohatlanmoqdalar. Eng achinarlisi, bu ayanchli illat bugun ana shu nuqtadan butun boshqa mamlakatlarga ham xuddi yuqumli kasallik kabi tarqalmoqda.

— Siz hozir gladiatorlarni nazarda tutyapsiz, shundaymi?!

— Albatta. Gladiatorlar — aslida qullar, ammo ular ham inson. Insondek oliy xilqatni xo'rlash huquqi hech bir odamga berilmagan. Nafaqat odam, hattoki biror jonivorni ham xo'rlash, azob berish, uning qonini to'kish gunoh hisoblanadi.

— Nega shuni hozirgi Sezarga aytmay sizlar? U bunday ermaklarga chek qo'yish haqida qaror chiqarsa bo'ladi-ku.

— Buning foydasi yo'q. Chunki uning o'zi ana shunday o'yinlarni joriy qilgan. U na ma'rifatni, na madaniyatni biladi. Taxtni egallash uchun o'z otasini o'ldirdi. Otasining Rimga sadoqatli sarkardasi o'limiga sababchi bo'ldi.

— Nega otasining sarkardasini o'ldirtirdi?

— Chunki u gladiatorlar jangiga qarshi chiqdi. Jaholatga qarshi bosh ko'tardi. Shavkatli sarkarda o'ldirilgach, xalq jaholatga qarshi isyon ko'targani jur'at qilolmay qoldi. Chunki hamma shirin jonidan ayrilishdan qo'rqardi. Hatto gladiatorlar ham jangda o'z yaqin do'stlariga qarshi qo'yilsalar, bir-birlariga qarshi jang qilishga, bir-birlarini o'ldirishga

majbur bo'lmog'dalar. Chunki bunday qilmasalar, ularni o'ldirishadi. Jazavaga tushgan, omi, savodsiz xalqqa esa tomosha kerak. Bu bilan xalq o'z davlati va jamiyatining tobora jar yoqasiga qarab ketayotganini bilmayapti.

Men alloma qariyaning fikrlaridan uning o'z davrining bamisoli bir mash'alasi ekanligini anglab yetdim. Ezgu maqsadi esa menga ayon bo'ldi. Shu sababli muddaoga o'ta qoldim:

— Xo'sh, sizda qanday reja bor?

Savolim qariyani hushyor torttirdi.

U atrofga bir olazarak nigoh tashladi-da, tilga kirdi:

— Men senda ulug'likni ko'ryapman. Garchi bolakay bo'lsang-da, sen men kutgan bahodirsan. Sen gladiatorlar orasiga kirishing, ularning mudrab yotgan ong-u tafakkurini uyg'otishing, bir-birlarini o'ldirmaslikka o'rgatishing, ularni birlashtirib, jaholatga qarshi bosh ko'tarishing kerak.

— Men kelajakdan kelganman. Tarixni o'qiganman. Bu ishni Spartak amalga oshirgan. Bu siz aytgan maqsad kelajakda amalga oshadi. Bunga qarshi Spartak bosh ko'tarib chiqadi-ku, axir.

— To'g'ri, bularning barchasi menga ma'lum. Chunki men kelajakni ham o'qiy olaman. Ammo, bilsang, kelajakka bugundan qadam qo'yiladi. Sen tarixning shu joyini yaxshi o'qimagan ekansan. Spartakning bosh ko'tarishiga bir yosh bolakayning jasorati turtki bo'ladi. Ana shu bolakay sensan, bilsang.

— Nahotki?!

— Ha, endi tushundingmi?

— Ha.

— Ertaga Kolizeyda navbatdagi gladiatorlar jangi bo'ladi. Sen bolakay bo'lganing uchun senga u qadar e'tibor bermaydilar. Sen ham gladiatorlar kiyimini kiyib olasan.

— Keyin-chi, — deyman men ham qiziqib.

— Keyin esa odamlar orasida birga o'tiramiz. Jang tugagach, g'olib bo'lgan gladiatorga mag'lubni o'ldir, deb buyurishadi. G'olib, albatta, mag'lubni o'ldiradi. Chunki u Sezarning qahridan qo'rqadi. Shunda jangni olib boruvchi g'olib gladiator nomiga uzundan uzun maqto'v yog'diradi. Bunday kuchli gladiator yo'qligi haqida olamga jar soladi. Sening ishing esa xuddi shu yerda boshlanadi. Sen odamlar orasidan turasan-da, unga qarata: „Men undan kuchliman, u bilan jang qilaman“, deysan. Dastlab, ular seni bolakay deb ustringdan kuladilar.

— Bolasan, deb jangga qo'yishmasa-chi?!

— E, bolalarga bu qadar izzat-ehtiro'... u sening zamoningda, sening yurtingda! Bizning davrimizda esa odamlarga tomosha bo'lsa bo'lgani... Ular bo'ru'ning oldiga qo'zichoqni tashlab qo'yib, yeyishini maroq bilan kuzatib turadigan yovvoyilardan boshqa narsalar emas...

— Shunday qilib, men jang qilaman! — deyman-da, yonimdagi sirli malhamga bir qarab olaman.

— Sen uni yengishing kerak. Shundan keyin esa mag'lubga rahm qilasan. Sesar va jazavaga tushgan xalq senga mag'lubni o'ldir ishorasini qiladi. Ammo sen ularning barchalariga qarata: „Men odamman. Sizlarga o'xshagan yirtqich hayvon emasman, gla-

diator qul bo'lsa ham, aslida u ham inson. Uning ham yashashga, siz kabi hayotdan bahra olishga haqqi bor!" deb ovozingning boricha xalqqa qarab qichqirasan va sendan yengilgan gladiatorning qo'lidan olib, uni o'rnidan turg'izasan va bag'ringga bosib, uning ham qo'lini ko'kka ko'tarasan, — deya alloma qariya tin oldi va chuqur xo'rsinib, jim bo'lib qoldi.

— U yog'i-chi?! — so'radim men, nega jim bo'lib qoldingiz, degandek.

— U yog'i sening tafakkuring va harakatingga bog'liq. Yo halok bo'lasan, yo tirik qolasan, — dedi qariya tarvuzi qo'ltig'idan tushgannamo ohangda.

— Bundan keyin Sezar meni o'linga hukm qilishi aniq-ku.

— Shuning uchun men senga ushbu shamshirni sovg'a qilaman. Bu mening ajdodlarimdan meros. U shunday sehriga egaki, hayoting qil ustida qolganda qinidan sug'urib, uni kuch bilan yerga sanchasan. U o'zidan nur sochib, ko'zlarni qamashtiradi va yerning bag'rini yorib, sirli yo'lak hosil qiladi. Sen esa yashin tezligida ushbu yo'lakdan o'zing izlagan keyingi makon sari o'tasan. Seni na Sezar, na uning navkarlari qo'lga ola biladi. Bizning zamonda esa jaholatga qarshi harakatlarning shamoli esa boshlaydi.

Hali hech ish qilmasimdan burun menga keyingi makon uchun o'tishga imkon tug'ilganidan bir quvonsam, sirli kalit tishining ikkinchi bo'rtma tasviri shu shamshirdamikan, deb o'ylab qolgandim.

— Ha, sen izlagan navbatdagi tasvir shu shamshirda bitilgan, — fikrimni o'qigan otaxon beliga

bog'langan kamarini yechdi va uni shamshiri bilan birga olib, belimga mahkam bog'lab qo'ydi, — unutmang, bor umidimiz sendan. Sening bu ezgu ishing jaholatga qarshi kurash harakatiga ibtido bo'lgay. Sen mudroq ko'zlardan uyqu bandini yechgaysan. Jaholatga qarshi shamol bo'lib, Kolizeyga kirasan va ko'kka ko'tarilasan. Keyin esa bu shamol yurt qahramonlarining jasorati evaziga bo'ronga aylanajak.

Shamshirni tomosha qilar ekanman, undagi sirli belgini qidirardim. Ha, mana o'sha men izlagan sirli kalit shakli. Shamshirning biqiniga o'yib chizilgan. Unda bo'rtmali tasvir bor. Bu sirli kalit tishining ikkinchi bo'rtmasi. Shakli rimliklarning yozuviga o'xshab ketadimi-yey. Ha, mayli, buni hali muhokama qilishga bemalol vaqt bo'ladi.

— Otaxon, siz o'zi nechta tilni bilasiz, — dedim taqdirga tan bergan gladiatorlar ohangida.

Garchi hayotimni xatarli o'yinga tikkanimni his etsam-da, ko'nglim xotirjam edi. Chunki ezgulik uchun kurashyapman, ikkinchidan esa, ko'zlagan maqsad-manzilim sari tobora yaqinlashib boryapman.

— Men dunyodagi barcha tillarni bilaman, bo'tam, — deb javob berdi donishmand xuddi amakim kabi o'ychan va mulohaza bilan fikr yuritarkan. — Chunki dunyodagi xalqlarning tillari turfa bo'lgani bilan qalblari bir xil. Sen ularning qalblarini o'qiy boshlaganing sari ularning tillarida so'zlay boshlaysan!

Shundan so'ng biz o'zimizni ertadan boshladigan kurashlarga ham ruhan, ham jismonan tayyorlash mashqlarini o'tashga kirishdik...

Tong otdi... Quyosh astoydil nur sochyapti. Tashqaridan otlarning dupur-dupuri, rimliklarning bir nimalar deb gapirayotgan gaplari, baqir-chaqirlari eshitilib turibdi.

Donishmand bobo atayin meni bemalol dam olib, kuch yig'sin, fikri tiniqib olsin, deb erta uyg'otmagan shekilli. O'ziyam miriqib uxlabman. Ancha tetiklashibman. O'rnimdan tursam, bobo qandaydir kitob o'qib o'tiribdi.

— Turgan bo'lsang, nonushta qilib ol. Pishirilgan yaxna go'sht va sharbat tayyorlab qo'ydim. Ular seining bir kuchingga o'n kuch qo'shadi.

— Gladiatorlik kiyimlarim-chi, — dedim o'zimni xuddi buyuk jangchilardek his qilib.

— Shoshilmasang, ularni ham kiyasan, — dedi qariya menga kitobdan ko'z uzib bir qarab olarkan.

Men esa yuz-qo'limni yuvib, nonushtaga o'tirdim. Taom shu qadar totli ediki, ishtaham ochilgandan ochilib borar, kuchimga esa kuch qo'shilib borayotganini his qilardim. Ayniqsa, sharbatni ichgan chog'imda.

Men donishmand otaxon bilan Rim ko'chalaridan yurib borarkanman, barcha menga kulib qarar va qo'lini bigiz qilib ko'rsatib, kichkina gladiator, deb gap qotardi. Ammo ustimdagi sovutim, dubulg'am, qalqonim va hatto qilichim ham haqiqiy ekanligi xayollariga ham kelmas edi. Dubulg'amdan yuzimga tushib turgan setkali to'siqdan hech kim meni tanimas, rimlik birorta mishiqi bo'lsa kerakda, deb o'ylashardi. Rim ko'chalari shovqin-suronga to'la. Bozorlari g'alayonli, ko'chalarda mast-alastlar ko'p. Ular goh u odamga, goh bu odamga urilib

ketadilar va o'zlaricha bir nimalar deb so'kinib qo'yadilar. Shahar ichida navkarlar otlari bilan yuradilar. Ular tartib saqlaydigan patrullar bo'lishsa kerak, deyman o'zimga o'zim.

Otaxon esa oldinda jim boradi. Uni ko'p odamlar tanib qoladilar. Kelib, hurmat bilan salomlashadilar. O'z tillarida nimalarnidir so'zlashadilar. Bir menga qarab kulib qo'yishadi. Otaxon ularning ba'zilariga yonidan nimalardir yozilgan qog'ozchalarni, kimlargadir esa kitob ulashadi. Men esa uning yonida borarkanman, dunyo tamadduniga beshik bo'lgan zamon va makonlardan birida turganimni his qilib, boshqacha bo'lib ketaman. Bu voqealarni o'z davrim va yurtimga borib hikoya qilib bersam, ular meni esi og'ib qolgan, deyishlari aniq. Onam esa yana asab do'xtirlari tomon sudrab qoladilar.

Shu xayollar bilan mashhur Kolizey binosi yoniga borib qolganimni bilmay qolibman. Otaxon menga qo'limdan mahkam tut, degandek ishora qildilar.

Mana o'sha tarixiy bino, dunyo mo'jizalarining biri. Bizgacha uning ma'lum ko'rinishigina yetib kelgan. Ammo hozirgi turishi esa bus-butun. Qavat-qavat aylana binolari chiroy sochib, tovlanib turibdi. Ichida esa ming-ming odamlar chumolidek jimirlaydi. Hamma yoq hayqiriqqa, olomonning baqirchaqirig'iga to'lgan.

Yo'laklardan asta o'tib, tomoshabinlar o'tiradigan joyga tushib bordik. Otaxon meni atayin jang maydoniga yaqin keluvchi o'rindiqlik tomon olib keldi. Joylashdik. Atrofimdagi odamlarga qarayapman. Bunchayam tomoshaga o'ch bu el. Barchasining

ko'zi qizarib ketgan, og'zilaridan tupuk sachraydi. Tinmay jang-jang, deb baqiradi. Ko'plari mast-alast. Og'zidan bodi kirib, shodi chiqadi. Bu yerdagi erkag-u ayolning barchasi ana shunday hissiz, yuraksiz va shafqatsiz. Chunki yuragida ozgina shafqati bor inson bu yerda birov-birovning joniga qasd qilayotganini bemalol ko'rib o'tirmagan bo'lardi.

Bir payt jarchining ovozi yangray boshladi. Xalq tinchlandi. So'ngra Kolizey binosining to'ridagi taxtga Sezar, uning xos odamlari va oilasi kelib o'tirdi. Sezarga qaradim. Ko'rinishidan hali yosh. Taxtga yaqinda o'tirgani aniq. Uning yuz-ko'zidan sabrsizligi, jizzakiligi, donishmandlikni xush ko'rmasligi, bo'sh vaqtini ko'ngilxushliklar bilan o'tkazishga moyilligi yaqqol sezilib turardi. Bu sifatlarning barchasini menga rimlik otaxon hikoya qilgan edi. Men esa buning tasdig'ini izlayotgan edim.

Sezar qo'lini bir ko'tarib tushirdi va jarchiga qarab qo'ydi. Bu jangni boshlayver, degani edi. Jarchi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki nafar gladiator nomini birin-ketin aytib o'tdi va jangni ochiq deb e'lon qildi.

Jang maydonining ikki chetidagi qarama-qarshi eshiklar ochilib, ulardan qurollangan ikki gladiator chiqib keldi va bir-biri tomon yura boshladi. Olomon o'rnidan turib ketdi. Avvalgidan-da battar, baland hayqiriqlar, baqir-chaqirlar, so'kinishlar, kulishlar — hamma-hammasi aralash-quralash bo'lib ketdi. Bu jazava nafaqat Kolizeyni, balki butun dunyoni tutib, quloqni qomatga keltira boshladi.

Ikki gladiator bir-biriga o'ljasiga tashlangan yo'l-barsdek tashlandi. Qilichlar har urilganda ulardan

o't chaqnar, bergan zarbalaridan esa biri u tomonga, biri bu tomonga ag'anardi. Yana o'rnidan turib, bir-birini poylashda davom etardi. Birining bo'yi novcharoq va kelbatliroq. Ikkinchisiniki esa pakkanaroq bo'lsa ham, juda epchil, chayir va harakatchan ekan. Nima bo'lganda ham men ularning jangini diqqat bilan kuzatar, ikkalasining ham usullari va uslublarini o'rganishga harakat qilardim.

— Yaxshilab kuzatgin, — dedi otaxon menga qayrilib qararkan. — Sen ularni, albatta, yenga olasan, — deya mening yelkamga urib dalda berdi.

Ularni tomosha qilarkanman, sirli malhamim joylashgan idishimni bir ushlab qo'yaman. Men ham tobora sirli vujudga aylanib borayotgandim. Chunki Mehribonlar o'lkasining uzugi, rimlik otaxonning shamshiri bor. Ularni yo'qotishga aslo haqqim yo'q. Ularni belimga alohida-alohida, yo'qolmaydigan qilib joylashtirib olganman. O'zimda qandaydir kuch-qudrat ham sezyapman. Balki bu yonimdagi topilmalarning menga o'tkazib turgan ta'siridir.

Men o'zimda ham ruhan, ham jismonan yetuklikni his qila boshladim. Hozir jang tugasa-yu, g'olib bo'lgan gladiatorning dodini bersam. Xayolim yana jang maydoni tomon ketdi. Olomonning baqirchaqiri qulog'imni shang'illata boshladi. Bir mahal novcha jangchi toliqib qoldimi yo o'zini o'nglay olmadimi, kichkinasi urgan zarbadan qulayotgan minoraday ag'anadi va o'rnidan turolmadi. O'rnidan turguniga qadar pakana gladiator uning bo'g'ziga qilichini tiradi. Qimirlasang o'lasan, degandek raqibiga qaradi. Xalq bundan battar jazavaga tushdi va qich-

qira boshladi. Sezar ham bundan ruhlanib, bosh barmog'ini yerga qaratdi, ya'ni o'lim degan ishorani ko'rsatdi. Olomon ham bo'kirgancha uning ishorasini tasdiqlab turardi.

Shu payt ichki ovoz menga: „O'ringdan tur! Jang vaqti yetib keldi. Yerdan yotgan gladiator o'lmasligi kerak. Ishga kirish!“ dedi.

Men dast o'rnimdan turdim. Idishimdagi sirli malhamdan ikkita no'xatdayini og'zimga soldim. Jang maydoni tomon yugurib bora boshladim. Yo'limdan chiqqan soqchilarni bir qo'l bilan urishimda besholti metrga uchirib yuborardim. Jang maydoni yoniga keldim-da:

— Hoy, Sezar! — deb baqirdim. Rimliklar tilida aniq gapirayotganimdan o'zim ham hayron edim.

Butun Kolizey jim bo'lib qoldi. Ovozlar singan likopchalardek sinib yerga tushdi. Nigohlar muzdek joyida qotib qoldi. Pastga qaratilgan bosh barmoqlar joyida qotdi.

Sezar menga qaradi.

— Men hozir mana shu g'olib gladiatorni jangda yengaman. Agar yengilsam, yerdan yotgan gladiator bilan birga meni ham o'ldirishga roziman.

Gapimdan jimlik yana baqir-chaqir-u kulgilarga aylanib ketdi. Barcha mendek bolakayni tomosha ko'rsatyapti deb o'ylayotgandi.

Sezar:

— Sen tomosha ko'rsatmoqchimisani yoki haqiqatan ham jang qilmoqchimisani? — deya so'radi.

— Jang qilib, mana shu gladiatorni yengmoqchiman! — dedim qat'iy.

— Yaxshi, unda tayyorgarlik ko'r va alvido, — dedi Sezar menga sovuq nigohlarini qadarkan.



Yonidagi jarchiga aytdi:

— Mayli, jangni e'lon qilaver, bolakaylarga toqatim yo'q, ayniqsa, qo'rs va o'jarlariga, — dedi ko'zlarida g'azab o'ti yonib...

Men jang oldidan rimlik otaxonga qaradim. U menga nuroniy nigohini tikkancha, lablari pichirlagan ko'yi ko'zini bir yumib-ochib qo'ydi. Menimcha, shu palla haqqimga qandaydir duo o'qidi chog'i. Keyin esa samimiy nigohi bilan bir kulib qo'ydi. Bu menga bardam bo'l, degani edi.

Jarchi mening nomimni mazax qilgan holda „Mishiqi gladiator“, raqibimni esa „Qoya“ deb tanishtirdi. Shunday qilib, „Qoya“ qilichini havoda o'ynatganicha menga qarab o'kirib kela boshladi. Shu vaqt qilichini zarb bilan urdi, men esa chap berishga kechikdim. Qilichi sovutimning ko'krak qismiga tegdi. Qilich sovutimni xuddi moy kesgandek kesib o'tgandi. Ammo zarb meni yerga ag'dara olmadi. Raqibim bir ko'ksimga, bir qilichiga qarardi. Mening yiqilmay tikka turishimni ko'rib hayron edi. Chunki u ayni zarba bilan boyaqish raqibini yer tishlatgandi.

G'azabdanmi, sirli malham ta'siridanmi yoki duolar ijobatimi, o'zimda g'oyibdan kuch sezdim. Bilaklarimda kuch toshib qaynadi. Tomirlarimda qon gupurdi. Ko'zlarimdan nafrat uchquni sachradi. Shu vaqt qo'limdagi qilich-u qalqonimni ikki tarafga otib yubordim. Dubulg'a-yu sovutimni yechib, haqiqiy o'zimizning milliy yaktakda qoldim. Yengimni shimardim. Belimdagi belbog'imni mahkam qisib, bog'ladim va raqibimga qarata „kelaqol“ ishorasini qildim. Oyoqlarimni yerga shunday botirdimki,

go'yo tizzamgacha yerga kirib ketgandek edim. Meni shu onda o'nta fil sudrasa ham joyimdan qo'zg'ata olmasdi.

Qarshisida kichik bir bolakayning qilichi-yu qalqonini tashlab, dubulg'a-yu sovutini yechib, haqiqiy kurashga chorlagani raqibimning izzat nafsiga tegib ketdi. Olomon esa hayronligidan jim bo'lib qolgandi. U ham ustidagi narsalarini pala-partish, jahl bilan yechib tashladi va g'azab bilan og'zidan ko'pik sachratgancha men tomon yugurib kela boshladi. U o'zining mo'ljalida meni o'ng yelkasi bilan urib yiqitib o'tib ketmoqchi bo'ldi. Bor kuchi bilan menga tashlangan ham ediki, men unga qarama-qarshi chiqdim. Shu vaqt mo'jiza yuz berdi. U go'yoki bir temir devorga kelib urildi. Chunki mo'jiza sabab mening butun bir vujudim temir devorga aylangandi, og'irligim esa million tonnadan ham ortib ketgandi. Urilganda uning yelka suyaklari qar-sillab ketdi. Suyaklari sinib ketdi, shekilli, dedim o'zimga o'zim. Qanchalik shiddat bilan kelib menga urilgan bo'lsa, shuncha shiddat bilan ikkala oyog'i osmondan bo'lib, chalqanchasiga quladi.

Uning suyaklari sinib, behush bo'lib, ingrab yotardi. Men uni boshim uzra ko'tarib oldim. U esa shalviragan ko'yi nimadir deb g'o'ldirardi.

Shu holatda Sezar va olomonga qaradim. Qonxo'r olomon bunday tomoshadan battar quturib borardi va menga qarata „o'ldir“ ishorasini qilib baqirardi.

Men esa ularning aytganini qilmadim. Gladiatori asta yerga qo'ydim va narigi mag'lub bo'lganini ham o'rnidan turg'azib, Sezarga qaradim:

— Men sening aytganingni qilmayman. Chunki sen qul deb bilayotgan gladiatorlar ham aslida inson. Qul ham odam. U ham odamdek yashashi kerak. Insonni xo‘rlashga sening va mana bu olomonning, hech kimning aslo haqqi yo‘q.

— Bu bolakayni yo‘lbarslarga yem qiling. Osiyoliklarning go‘шти shirin bo‘ladi, — dedi zaharxandalik bilan kulib.

Gladiatorlar meni himoya qilishga urina boshladilar. Men esa ularga shart emas, dedim. Otilgan nayza soqchiniki bo‘lib, u meni ogohlantirgandi. Shu vaqt eshikdan ikkita yo‘lbars chiqib kelib, o‘kira boshladi. Jazavaga tushgan olomonning shovqini esa yo‘lbarslarnikidan ham ustun edi. Hozir meni yo‘lbarslar burdalab yesa-yu, olomonning bundan ko‘ngli to‘lsa.

Men qo‘rqmasdan yo‘lbarslar tomon yura boshladim. Shu tobda miyamga ajoyib so‘zlar kela boshladi. Qandaydir ichki kuch shu so‘zlarni menga aytirayotgan edi:

— Meni o‘zingizga do‘st tutinglar. Sizlarga yomonligim yo‘q. Men sizlarga faqat yaxshilik tilayman. Siz yirtqich emassiz, aslida sizlarni bandi qilib zindonga tashlaganlar yirtqichlardir. Siz yaxshisiz, siz muloyimsiz. Siz insonlarga do‘st jonivorlarsiz!

Meni hatto qonxo‘r yo‘lbarslar ham tushundi. Ular yonimga kelib, tashlanish tugul, yunglarini silaganim sayin go‘yo mushuk kabi menga erkalana boshladilar. Ulardan birining ustiga chiqib minib oldim. Olomon jim bo‘lib qoldi.

Sezar tomoshaga toqat qilolmadi va qichqirdi:

— O‘ldiring bu sehrgar bolakayni! Barcha navkarlar jang maydoniga!

Bu buyruq endi ushbu olamdan ketish kerak, degan ma'noni anglatardi. Tish-tirnog'iga qadar qurollangan navkarlardan bezovta bo'lgan yo'lbarslar yana o'kirganicha qafaslariga kirib ketdilar. Navkarlar esa tobora meni burchakka qisib kelardilar. Men esa ularga teng kelib bo'lmasligini aniq his qilib turardim. Rimlik otaxon bergan shamshirni qo'limda mahkam tutgancha, ularni dog'da qoldirish uchun payt poylardim. Navkarlarning imkon qadar menga yaqin kelishlariga sharoit yaratdim. Chunki o'ljaga yetib kelib, shundoq tutaman deganingda u parr etib uchib ketsa, qanchalar alam qilishini hamma yaxshi biladi-ku, to'g'rimi?!

Nihoyat, orada to'rt-besh qadam oraliq masofa qoldi. Men ularga qarata:

— To'xtanglar! — dedim.

Navkarlar mendan buni kutmagandilar. Taslim bo'lganini e'lon qilsa kerak, deb o'yladilar chog'i, yurishdan to'xtadilar. Men rimlik otaxonga qaradim. Otaxon mamnun bo'lib, menga boqib turardi. Uning bu qarashidan „Hali sen bilan yana ko'rishamiz“, degan ma'noni uqdim va bag'ritosh Sezarga shunday dedim:

— Unutma! Sen hech qachon yovuz maqsadingga yeta olmaysan! Jaholating, razolating bir kun o'z boshingga tog' bo'lib qulaydi. Adolat, ma'rifat quyoshi so'nmaydi, balki mangu porlaydi! — dedim. Ichimda esa „Shu gaplarni men gapiryapmanmi?“ derdim. Nahotki ulg'ayib ketgan bo'lsam...

Sezar bu gaplarimdan shaytonlab qolganday harakatlar qila boshladi. Navkarlar esa g'azab bilan men tomonga yura boshladilar. Men esa qo'limdagi shamshirni qinidan sug'urdim-da, bor kuchim bi-

lan uni yerga sanchdim. Shu payt birdan osmon-u falak gumburlab ketdi. Kolizey joyidan bir qalqidiyu, yana o'rniga keldi. Quyoshli osmonda qayerdandir chaqin chaqib, falak gumburlab ketdi. Odamlar ichida qiy-chuv, to'polon boshlandi. Hamma vahimaga tushdi. Bir vaqt yer qariyb o'n metrlar uzunlikda, eni esa to'rt metrlar kenglikda yorilib, orasidan nur tarala boshladi. Nur butun falakka qadar taralib ketdi. Ne ko'z bilan ko'rayki, qarshimda, oyog'im tagida yer ostiga qarab ketgan nurli va naqshinkor zina tovlanib turardi. Men shu zinadan pastga qarab tushib keta boshladim. Ortinga esa umuman qaramasdim. Chunki xayolimda ular yetib kelib, meni tutib oladigandek edi. Zinadan shoshib tusharkanman, hansirab, dovdiraganim ko'yi „Rahmat sizga, rimlik otaxon“, derdim tinmay.

ONAMNING MENI QUVIB YETOLMAGANI

O'zimizning zamonda voqealar tobora chigallashish pallasida edi. Do'stlarim sirimizning oshkor bo'lib qolmasligi uchun ota-onamga „Sizlar xavotir bo'lmanglar, Olimjon Ahrorlarnikiga Buxoroga ketgan, uch-to'rt kun dam olib kelar ekan“, deb aytishgan bo'lib, ikkinchi Olimjonga „Uch-to'rt kun bizning qishloqda ko'rinmay tur. O'zingning mahallangda gum bo'lib yur. Tag'in qovun tushirib qo'y-ma“, deb tayinlashgan edi. Inspektor ham barcha sirdan voqif bo'lib, bu borada o'z rejasi asosida ish olib borayotgan, ota-onamni sarosimaga solmaslik uchun vaqtincha indamay turgan ekan.

Ammo bu ikkinchi Olimjon deganlari futbol desa, mushukni ko'rgan kuchukday zanjirni uzib

choparkan. Buni qarangki, bizning qishloqda futbol bo'lishini eshitgan zahoti do'stlarimga bergan va'dasi ham yodidan chiqib, yana kelib-kelib, mahallamizdagi stadionga kelibdi.

Vaziyat ana shunday tarang tortilgan bir paytda ismdoshim va qiyofadoshim bo'lgan ikkinchi Olimjon o'lganning ustiga tepgan qilib, Doniyor va Turg'unlar bilan tuzilgan kelishuv xayolida yo'q, musobaqa bo'ladi desa, lapanglab kelaveribdi-da. Musobaqadan chiqib, guzardagi kichik do'konda bolalar bilan muzqaymoq yeb turganida ishdan qaytayotgan onam uning qarshisidan chiqib qoladilar. Uni ko'rib, onam xursand bo'lib ketadilar:

— Voy, Olimjon, bolam, Buxorodan qachon kelding, bolajonim! — deya qo'llaridagi narsalarini yerga qo'yib, unga „kel, ko'rishaylik“ degandek bag'irlarini ochadilar.

Ikkinchi Olimjon anqayib qoladi. Qo'lidagi muzqaymoq to'p etib yerga tushadi. Shu damda uning miyasida Doniyor va Turg'unning: „Sen endi iloji boricha Olimjonning ota-onasiga, maktabdagi-larga ko'rinmaslikka harakat qil! Qishlog'imizda ko'rinmay tur. Kerak bo'lib qolsang, telefonda gaplashamiz yoki biron yerda ko'rishamiz. Agar ular seni ko'rib qolishsa, ish yana pachava bo'ladi!“ deya kuyinib aytgan gaplari qafasdagi kaptarday potir-laydi.

U nima qilayotganini o'zi bilmadi, dovdiradi. Shartta orqasiga o'girildi-yu, soyasidan qo'rqqan telbadek, chopa boshladi. Yugurardi-yu, bir to'xtaymikan, deganday ortiga o'girilib, onamga qarardi, biroz o'ylanardi-da, „E bor-e, nima bo'lsa bo'ldi“, degandek, yana yugurib qolardi.

Bu esa onamning nazdida uni battar jinnidek qilib ko'rsatardi.

Onam bechora esa, „O'g'limga bir balo bo'lgan, bular mendan nimanidir yashirishyapti“, degancha oh urib, to'xta bolamlab, uni bir manzilgacha quvib boradi. Ikkinchi Olimjon esa raketaday uchib, yo'q bo'lib ketadi. Bu ketishda u qayoqqa ketdi — Xudo biladi.

Ikkinchi Olimjonning qishlog'idan birga kelgan ikki do'sti angrayib qolgandi.

— Bu nimasi, o'rtog'imizning bu qishloqdayam onasi bormi?!

— Hayronman, uyidagi onasi-chi?!

— Unda onasi ikkita ekan-da...

Ular anqayganlaricha yo'llarida davom etdilar.

Qiyofadoshim Olimjon o'zining uyiga bordi-da, shoshganicha Doniyorga qo'ng'iroq qildi:

— Doniyor, men yana qovun tushirdim! — aybini to'ppa-to'g'ri bo'yniga oldi u.

— Nima bo'ldi? — so'radi yuragi bezillagan Doniyor.

— Men... esimda yo'q, musobaqa bor, desa keta-veribman... K-keyin...

— Chaynalma, — zarda qildi Doniyor go'shak ortidan.

— Keyin anavi Olimjoningning onasi mening ro'paramdan chiqib qoldi va bolamlab quvib qoldi, — dedi tomdan tarasha tushgandek.

— Rasvo qilibsani ishni. Senga aytgandik-ku, bu yoqlarga kelmay turgin deb. Mayli, sen hozir uyingda qimirlamay o'tir. Senga o'zim qo'ng'iroq qilaman.

Ikkinchi Olimjonning o'z onasi kirib keldi va:

— Bolam, — dedi.

U esa bir sapchib tushdi va onasiga alang-jalang qaradi.

Onasi yana gapida davom etdi:

— Bolam, tuzukmisan?—It-pit quvlamadimi?

— Yo‘q, yaxshiman, oyi, — degan qiyofadoshim xayol surganicha yotoqxonasi tomon sudraldi.

Bu vaqtda bizning uyda yo‘g‘on cho‘zilib, ingichka uzilish arafasida edi.

Onam uyga bir ahvolda kirib kelgan, sochlari to‘zg‘igan, ko‘zlari yig‘idan qizarib shishinqiragan. Uyda xayol surib o‘tirardi. Dadam esa qo‘lini qovushtirgancha o‘tirar, nimadir degisi kelardi-yu, ammo indamasdi. Negadir bu damda amakim yo‘q edilar. Do‘stlarimning aytishicha, amakim qayergadir uzoq oshnasinikiga ketgan emishlar.

Doniyor ishning pachavasi chiqqani sababli, bundan qo‘rqib ketganidan, to‘g‘ri uyimizga kelib, barcha voqeani aytib beribdi va ikkinchi Olimjonni ota-onamga ro‘para qilibdi. Shunda onam bu haqiqatga ishonibdilar va yig‘lagan ko‘yi ikkinchi Olimjonni bolamlab bag‘irlariga bosibdilar.

MAXSUS XIZMATDAGILARNING MENI IZLAYOTGANLARI

Men bajargan amallar Internet tarmog‘ida aks etganligi, biroq uning na muallifi, na yo‘nalishi aniqligi nafaqat dasturlash loyihalari mualliflarini, balki maxsus xizmatdagilarning ham e‘tiborini tortgan edi. Bu hatto xalqaro tor doiralardagi bahslarga sabab bo‘la boshlagan bo‘lib, qisqasi, maxsus xizmatdagilar, umuman, men amalga oshirmoqchi

bo'lgan dasturdan foydalanishni rejalashtirgan barcha tomonlar zo'r berib meni izlayotgan edilar.

Bir kuni uyimizning eshigini chet ellik ikki nafar odam taqillatdi. Ularning biri malladan kelgan kishi edi. O'zbekcha va ruschani umuman bilmasdi. Faqat ingliz tilida gapirardi. Yonidagisi esa unga tarjimonlik qilardi. Ammo u ko'rinishidan o'zbekka o'xshar edi.

Eshikni dadam ochdilar. Tarjimon xuddi o'zbekistonliklar kabi salom berdi:

— Assalomu alaykum.

— Vaalaykum assalom, kelinglar, mehmonlar.

— Yosh dasturchi Olimjonning uyi shumi? — savol berdi tarjimon.

— Albatta, — dedilar dadam.

Dadam mehmonlarni uyga taklif qilib, bir piyola choy va noz-u ne'matlar bilan siyladilar. G'arblik mehmonlar hovlimizdagi xush havodan bahra olib, bog'imizda yetishtirilgan mevalarni rosa maqtashdi. Shundan so'ng malla odam gap boshladi. U o'z gapini ingliz tilida yonidagi tarjimoniga aytdi. Tarjimon tarjima qildi:

— Bu janobning ismlari Maykl Andersen. Xalqaro qidiruv byurosi mas'ul xodimi. Ushbu xizmat yosh dasturchi Olimjon yaratayotgan olamshumul dastur mohiyati bilan qiziqib qolgan. Bolakayni hamkorlikda ishlashga taklif qilmoqchi.

— Taklifingizdan, albatta, biz minnatdormiz. Negaki, siz bilan ishlash farzandimning ham bilimini oshirishda g'oyat qo'l keladi. Ammo hozir uning o'zi uyda yo'q edi.

Tarjimon dadamning gaplarini ingliz tiliga o'girdi. Malla odam buni diqqat bilan tingladi-da, yana

gapida davom etdi. Tarjimon uning fikrlarini o'zbek tiliga o'g'irib turdi:

— O'g'lingiz hozir qayerda? Agar aytsangiz, biz o'zimiz uning yoniga borishimiz, suhbatlashishimiz mumkin.

— Bajon-u dil. Ammo bir muammo bor.

— Qanday muammo?! — qoshini kerib so'radi tarjimon.

— Muammo shundaki, hozir o'g'lim olis bir joyda dam olmoqda. Shifokorlar uning sog'lig'i haqida qayg'urishimiz lozimligini aytishgan. Buning ustiga, mutaxassislar uni vaqtincha bezovta qilmaslik, aqlan va ruhan zo'riqtirmaslik lozimligini ta'kidlashgan.

Tarjimonning gaplarini eshitgan malla odam peshanasiga tushgan sochini qo'li bilan o'ng tomonga bir o'tkazib qo'yarkan:

— Bo'lmasa, yaxshilab dam olsin. Biz bir haftadan so'ng yana kelamiz, — dedi va dadam bilan xayrlashdi.

Bu voqeadan 10 daqiqalar o'tar-o'tmas dadamning qo'l telefonlariga chaqiruv qo'ng'irog'i bo'ldi. Dadam so'zlashuv tugmasini bosdi. Undan ustozimiz Odil Nosirovichning ovozi yangradi:

— Allo, assalomu alaykum, Mo'minjon aka!

— Vaalaykum assalom.

— Men maktabdan Odiljonman.

— E, Odiljon, yaxshimisiz?

— Aka, uzr, maqsadga ko'cha qolaman, hozir maktabga tez kelib ketishingizga to'g'ri keladi. Faqat iltimos, hayallamang...

— Tinchlikmi, o'g'lim Olimjon Xudo xohlasa uch-

to'rt kunda keladi, — deya dadam go'yoki ayblarini yuvayotgandek edilar.

Ammo Odil Nosirovich:

— Yo'q, aka, xavotir bo'lmang. Olimjon bema-lol dam olib turaversin. O'zingiz kelib ketishingiz kerak. Kelganingizda gaplashamiz, — deya suhbatni qisqa qilib, xayrlashdi.

Dadam:

— Tinchlikmikan ishqilib, — dedilar-u, makta-bim tomon oshiqdilar.

Odil Nosirovichning xonasiga kirib borganlarida ustozning yonida kastum-shim kiyib, galstuk taqqan ikki nafar odam va haligi profilaktika inspektori o'tirardi.

Bu ikki notanish odam dadam kirganlarida hur-mat bilan o'rinlaridan turib, salom berdilar va to'rga o'ting, degandek joy ko'rsatdilar. Salom-alikdan so'ng Odil Nosirovich so'z boshladi:

— Aka, o'zingiz yaxshimisiz? Olim bola — o'g'-lingiz Olimjon yaxshi dam olyaptimi?

— Xudoga shukr, nasib etsa, uch-to'rt kunda maktabiga qaytadi. Anchagina dam olib, miyalari ti-niqib oladi-da, — dedilar dadam minnatdor ohangda.

Shu vaqt inspektor miyig'ida bilinar-bilinmas kulib qo'ydi va dadam hamda haligi po'rim kiyingan ikki kishiga ma'noli qarab qo'ydi.

— Aka, endi sizni mehmonlar bilan tanishtir-sam, — deya Odil Nosirovich boyagi ikki nafar no-tanish odamga ishora qildi. — Bular yurtimizning maxsus xizmat vakillari. Ushbu xizmat o'g'lingiz yaratayotgan dastur bilan bevosita qiziqib, uning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun sharoit yara-tishga, kerak bo'lsa, loyihani, o'g'lingizni yot kuch

va tahdidlardan himoya qilishga, xavfsizligini ta'minlashga mas'ul hisoblanadilar. Chunki o'g'lingiz yaratayotgan loyiha, avvalo, yurtimiz, qolaversa, xalqaro xavfsizlik uchun ulkan ahamiyat kasb etadi.

Shunda o'tirganlardan biri — ozg'inroq, ko'rinishidan sermulohaza vakil so'z boshladi:

— Aka, avvalo, so'roqqa tutayotganim uchun ma'zur tutasiz. Ayting-chi, o'g'lingizni do'stinikiga dam olishga yuborganingiz haqida ma'lumot aytgansiz. Ammo o'rganganimizda uning hech qayerda emasligi ma'lum bo'lmoqda.

— Shu bilan birga, — deya kresloga suyanagan joyidan oldinga engashib, qaddini rostlab, so'z boshlagan odam biroz ovozi pasaytirgan holda gapirishga tushdi. — Biz Internet tarmog'ida o'g'lingiz qoldirgan kodni va bajargan operatsiyalar ketma-ketligini topishga muvaffaq bo'ldik. Biroq sirli tomoni shundaki, uning keyingi bajargan amallari izsiz yo'qolgan bo'lib, bu na Internet tarmog'ida va na sun'iy yo'ldosh to'lqinlarida aks etgan. Nima, o'g'lingiz o'zga sayyoraga uchib ketganmi?!

— Siz buni bizga aytishingiz kerak. Chunki o'g'lingiz hayoti xavf ostida qolmasligi, undan ham xatarlisi, Olimjon yaratayotgan loyiha yot kuchlar qo'liga tushmasligi, ular bunga egalik qilmasligi kerak, — dedi birinchi so'z ochgan vakil.

Ikkinchisi esa kutilmagan savolni berdi:

— Xo'sh, chet eldan kelgan mehmonlar bilan o'g'lingizni uchrashtirdingizmi yoki ularning takliflarini rad etdingizmi?!

Dadam savollar ichida qolib ketgandilar. Ham-madan ham qizig'i — deyarli yarim soat o'tmagan bu voqeani zudlikda aniqlagan xodimlarga dadam

qoyil qolib turardilar. „Savolni beryaptimi, javobini ham biladi bu tushmagurlar!“ deya dadam o‘zi bilan o‘zi hisoblasharkan, birin-ketin savollarga javob bera boshladilar:

— Bo‘lib o‘tayotgan voqealarni o‘g‘limning ikki nafar do‘sti yaxshi biladi. Shular bilan gaplashib ko‘raylik.

Xonaga Doniyor, Turg‘un va ikkinchi Olimjon aybdorona bosh egib kirib kelarkanlar, inspektorni ko‘rib, bir qalqib tushishdi.

— Xo‘sh, do‘stingiz Olimjon qayerda? — kulgichlarida mamnunlik paydo bo‘lgan vakil asl mud-daoga o‘tdi.

— Buning tarixi uzunroq, — dedi Doniyor xomush turarkan.

— Agar ikki kun hikoya qilsang ham, bu ajib qissani tashqariga chiqmay, uxlamasdan eshitgan bo‘lardim, — dedi ikkinchi mas‘ul xodim ishtiyoq bilan.

— Xullas, — deya Doniyor qo‘lga tushgan askardek titrab-qaqshab, mening sirli kalit tilsimini izlab, o‘z olamimdan g‘oyib bo‘lganimni maxsus xizmat xodimlariga ipidan ignasigacha hikoya qilib berdi...

Qissani tinglab bo‘lgan ikki nafar xodim bir ishongisi kelar, bir ishonqiramay dadamga qarab qo‘yardi. Ikkinchi Olimjonni ko‘rgan xodimlar hayron bo‘lib qolishdi. Biri ikkinchisiga qarata:

— Bularni o‘zimizning safimizga olsak bo‘larkan. Buni qara, allaqachon qiyofadoshini ham topib qo‘yishibdi shovvozlari, — deya kulishib, bir ikkinchi Olimjonga, bir mening asl suratimga qarab qo‘yishardi.

Xullas, ular bir bo‘lishib, meni o‘z olamimga qaytarish va dasturimni muvaffaqiyatli amalga oshirish rejasini tuzdilar.

AL-XORAZMIY BOBOM O‘GITI

Yer ostidagi nurli yo‘lakdan tobora yuqoriga ko‘tarilarkanman, atrofdan mash‘alaning lipillab nur sochayotgan yog‘dusini payqay boshladim va men qadimiy madrasalarning ichidan chiqdim. Ko‘rinishidan ajdodlarimizga xos obida edi. Bir zum u yerda turib qoldim. Atrofga alangladim. Shu vaqt: „Bu yoqqa keling, chirog‘im!“ degan xitob yangradi. Men ovoz kelgan tarafga yurdim. Ichkariga qarab ketgan xonaning ostonasida to‘xtadim. Xona to‘rida ulug‘ ajdodlarimizdan biri qo‘lida patqalam, xontaxta ustida sham yorug‘ida nimalarnidir yozib-chizib o‘tirardi. Xona juda yorug‘ bo‘lmaganligi sababli ularning yuzlarini aniq taniy olmadim. Kirayotib:

— Assalomu alaykum, bobojon! — dedim ta‘zim bilan.

— Vaalaykum assalom, chirog‘im, xush kelibsiz, — dedi nuroniy yuz bobo.

Men yaqinroq borib qaraganimda bu nurli nigohni tanidim. Men bu mo‘tabar yuzni algebra xonasidagi rasmlar ichida ko‘rganman. Bu inson algebra fanining otasi Al-Xorazmiy bobomiz edilar.

Hayajondan qaltiray boshladim. Bu voqea haqiqatmi, tushimmi, qaysi biri ekanligini anglay olmasdim...

— Chirog‘im, o‘zingizni qo‘lga oling. Yaratganning inoyati ila siz bilan diydorlashmoqdamiz. Xo‘sh, ayting-chi, izlaganingizni topdingizmi?!

Bu savoldan sergaklana boshladim.

— Bobojon, sirli kalitning uchinchi tilsimini iz-lamoqdaman. Bejiz sizni uchratmadim. Chunki men yaratayotgan dastur sizning ixtirongizga, ya'ni al-goritm ketma-ketligiga asoslanadi. Men buni muvaf-faqiyatli amalga oshira olsam, yovuz odamlarning niyatlarini fosh etaman. Yomonlarni yovuzlikdan to'xtataman.

— Barakalla, chirog'im. Biz necha asrlarkim, kelajak avlodlarning ayrim ishlaridan ozorlanib ke-layotibmiz. Negaki, ajdodlarning yaratgan ezgu ix-tirolarini kelajak vorislari yovuzlik, bir-birlarining qonini to'kish, mahv etish maqsadlarida ishlata boshladilar. Bu esa necha yuzlab ellarning hayotini izdan chiqarayotir.

— Biz buning uchun sizdek ulug' ajdodlarimiz oldida g'oyat uyatda qolmoqdamiz, — dedim bo-shimni quyi solib.

— Sizni Yaratganning o'zi bejiz bu olamlarga yuborgani yo'q. Siz ushbu ulug' maqsadingizni o'zingiz kabi dovyurak, bilimi yuksak do'stlaringiz bilan amalga oshirmog'ingiz lozim. Aks holda kelajak egasiz qolur, hayot rangsiz holga kelur, olam ta-loto'plar iskanjasida intiho topgay.

— Shu bois menga ko'mak bering, bobojon! — dedim ko'zlarimda nur chaqnab.

— Mana bu jahonni ko'rsatuvchi sirli oyinaga qarang. Bu qadimda dono Iskandar tomonidan ne-ne donishmandlar ishtirokida yasalgan. Bu oyina kelajakni ham ko'rsatadi.

— Bizda ham bunday oyna bor, bobojon.

— Ha, ammo sizlar o'z oyinangizda faqat bugu-

ningizni koʻrmoqdasiz, xolos. Kelajak manzarasi sizni tashvishga solmayapti.

— Kelajak manzarasi qanday, bobojon?!

— Mana, chirogʻim, sizlardan keyingi olam manzarasi shunday holga kelishi mumkin, — dedilar ulugʻ bobomiz.

Men oynaga qararkanman, unda Yer yuzining qop-qora tutun-u olovlar ichida yonayotganini, odamlarning oh-vohlari olamni buzayotganligini koʻrdim va dahshatga tushib ketdim, nogoh savol berdim:

— Bobojon, bu qanday manzara?!

— Chirogʻim, agar sizlardek kelajak egalari ilm-u tafakkur inʼomlaridan ezgu va xayrli maqsadlar yoʻlida foydalanmas ekansiz, ertangiz ana shunday ahvolga tushajak. Shu bois, hozirdan buning oldini olish uchun birgalashib, astoydil kurashishingiz zarur.

Oraga biroz jimlik choʻkdi. Shundan soʻng ulugʻ bobomiz menga nur taralib turgan moʻjaz kitob sovgʻa qildilar.

— Chirogʻim, siz izlagan oxirgi tilsim shu kitobdan topilgay. Bu sizga berilgan topshiriq, yaʼni „Ezgulik“ kitobi. Uni ovoz chiqarib, takror-takror oʻqing, toliqqanda uxlab qolsangiz, bu kitob yostigʻingiz ostida tursin. — dedilar bobomiz. — Endi men bilan yuring...

Men ulugʻ donishmand ortlaridan ergashdim. Ularning oʻng qoʻllarida mashʼala bor edi. Xayolimda ularning qadamlaridan nur taralib borardi goʻyo. Yoʻlakdan yurib borganim sari nur kamayib, atrof bir zum qorongʻilashdi, keyin esa tobora yoʻlak yorishib bora boshladi. Bobomizning qadam tovushlarini eshitardim-u, ammo oʻzlari koʻrinmasdilar.

Ular tobora mendan uzoqlashardilar va oxiri g'oyib bo'lib qoldilar.

Men esa „Bobo!“ deb qichqirib yubordim, yuragim dukillab, tobora qadamlarimni tezlatdim. O'zimni qandaydir g'or yo'lagidan yurib borayotganimni seza boshladim, chunki bu vaqt men tomon quyosh nurlari shu'la socha boshlagandi. Shu nurga qarab talpindim. Chamasi o'n-yigirma metrilar yurgach, nihoyat, quyoshga yuzma-yuz keldim. G'or og'zidan chiqdim. To'g'rimda qandaydir daryo oqmoqda. Chiqdim-u, bu qanday g'or deya ortimga o'girilib, unga qaradim. Ne ko'z bilan ko'rayki, men ona qishlog'imdagi „Qirq hujra“ tilsim g'orining ichidan chiqib kelgandim. Pastdagi daryo esa bolaligim o'tgan Zarafshon daryosining qirg'oqlari edi...

Na quvonishni, na yig'lashni bilmasdim. Bir zum turdim-da, quvonganimdan ho'ngrab yig'lab yubordim. Bu voqealar tushimda sodir bo'ldimi, o'n-gimdami deya o'ylardim. Shu vaqt kitob yodimga tushdi. U o'ng qo'limda turardi. U arab yozuvidagi kitob bo'lib, muqovasida kalit tilsimining uchinchi bo'rtmasi tasviri turardi.

Men o'zga olamlardan rappa-raso tushlik vaqti qaytgan edim. Bu vaqtda hamma ishda, o'qishda bo'ladi. Shu sababli men tezda uyga borib, kalit tilsimlarini jamlashim, ular asosida dasturimni yakunlashim va Internet tarmog'ida sinovdan o'tkazishim lozim edi.

Uyga borganimda hovlida hech kim yo'q ekan. Asta xonamga kirdim-u, Mehribonlar o'lkasi podshohi bergan sirli uzuk, rimlik otaxon sovg'a qilgan shamshir va ulug' bobomiz tuhfa etgan kitobni sto-

limga qo'ydim. Ulardagi tilsimlarni jamlab, sirli formula asosida „Yovuzlikka qarshi ezgulik“ dasturining oxirgi amallarini yakunladim. Nihoyat, uni Internet tarmog'ida sinovdan o'tkazish qoldi, xolos. Yuragim dukillab urardi, peshanamdan esa ter quyilardi. Tarmoqqa ulandim va tegishli amallarni bajargach, chukur bir xo'rsindim-u, kompyuterim klaviaturasidagi „Enter“ tugmasini bosdim.

Maqsadimni amalga oshirganligimdan ko'nglim to'q bo'ldi. Natijasini bilishga shoshmadim. Rosa charchab ketganligim sababli stuldan turdim-da, o'zimni karavotga tashladim. Shu tariqa qattiq uxlab qolganimni bilmay qolibman...

„TIRIKLAYIN QO'LGA OLINSIN!“

Hammasi dasturimni Internetda sinaganim va uxlab qolganimdan keyin boshlanibdi. Yaratgan yangi dasturim jinoyatchi tashkilotlarning Internet tarmog'idagi o'n mingdan ortiq saytlari, ularning keng elektron axborot almashish bazalarini yoppasiga ishdan chiqaribdi. Buning natijasida ularga oid ko'plab ma'lumot-u raqamlar, hatto manzillar fosh bo'la boshlabdi...

Barcha uch-to'rt soat ichida bu loyihaning mualifini izlashga tushibdi. Men bajargan operatsiya Internetda aks etganligi uchun uni, bir tomondan, Interpol va maxsus xizmatlar, bir tomondan, jinoyatchi tashkilotlarning rahnamolari kuzata boshlabdilar. Tabiiyki, sun'iy yo'ldosh orqali tekshirilganda allaqachon mening uy manzirim ko'ringan.

Tushlarim ayqash-uyqash bo'lib, cho'chib uyg'onib ketdim. Qancha uxlaganimni bilmayman. Tepamda ikki odam turibdi. Birining umuman so-

chi yo'q. Ikkinchisi soqol qo'ygan. Negadir nigohlari sovuq. Bizning hamqishloqlarga o'xshamaydi. Ikkalasi ham begona.

— Olib ketamiz! — dedi sochi yo'g'i soqollisiga. — Tiriklayin qo'lga olish buyurilgan!

— Yaxshi, — dedi soqolli. — Qani, bolakay, biz bilan yur. Gapimizga kirib, indamay, quloqsizlik qilmay yursang, o'zingga yaxshi, bo'lmasa...

— Bo'lmasa... — dedi sochi yo'q va qo'lining ko'rsatkich barmog'ini tomog'i ostiga pichoq kabi tirab, chapdan o'ngga qarab bir tortib qo'ydi. Bu o'ldiraman degani edi.

Men indamadim. Chunki bungacha ko'rgan voqealarim oldida bu oddiydek tuyulardi. Ular bilan hovliga chiqdim. Darvozaga yaqinlashgan ham edikki, tashqaridan mashinalarning to'xtagani va undan odamlarning shitob bilan tushgan oyoq tovushlari eshitildi.

Yonimdagilar birdan sergaklandi va ulardan biri cho'ntagidan pichoq chiqardi. Uni tomog'imga yaqinlashtirib, ko'chaga olib chiqdi. Ko'chada esa dadam, profilaktika inspektori, haligi ikki nafar po'rim kiyingan maxsus xizmat vakillari va sadoqatli do'stlarim — Turg'un, Doniyor, ikkinchi Olimjonlar turishardi. Jinoyatchilar ko'chaga chiqqan zahoti men va ikkinchi Olimjonga angraygancha qarab qoldilar. Ular bu turishda qaysi biri haqiqiy degancha o'ylanib qolgandilar.

Xavfsizlikka mas'ul vakil jinoyatchilarga qarata:

— Taslim bo'ling! Hech qayoqqa qochib qutulolmaysiz. Chunki sizlar qurshab olingansiz! — dedi va darvozamizning yonidagi daraxtlar tarafga ishora qildi. Daraxtlar panasidan har tomonlama shay holatdagi Vatan posbonlari chiqib kelishdi.

— Yo‘q, chuchvarani xom sanabsanlar. Bizga tegsalar, bolakaydan umidlaringni uzlaring, — deya tahdid qilishga tushdi boyaqish jinoyatchilar.

Shunda xayolimga To‘qsonboy otaning sirli malhami keldi. Mitti ko‘zacha haliyam belimga bog‘langan turardi.

— Amaki, — dedim soqolli jinoyatchiga. — To‘xtab turing. Tobim bo‘lmayapti. Dorimdan ichib olay. Mayli, keyin sizlar bilan ketsam ketaveraman.

— Bo‘laqol, — dedi sochi yo‘q.

Men ko‘zachadan ikkita no‘xatdek malhamni og‘zimga soldim va chaynab yubordim. Ha, bu malham bizning zamonda ham o‘z kuchini yo‘qotmabdi. Birdan bilaklarim kuchga to‘ldi.

— Amakijonlar, meni kechiringlar, — dedim-u, har birining ko‘ksiga bittadan musht tushirdim. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, ularning har biri besh-olti metr masofaga uchib tushdi.

Bundan hamma hayron qoldi. Jinoyatchilarning biri hatto hushidan ham ketib qolgandi...

Men endi dadam tomonga qadam tashlagan ham edimki, „Bolajonim!“ degan ovozni eshitdim. Ko‘chaning pastidan onam oh solib yig‘lagan ko‘yi yonimga chopib kelardilar. Beixtiyor ko‘zlarimdan yosh tirqirab chiqdi va men ham onam tomon qushday uchdim...

AMAKIMNING KAROMATI

Tushlik vaqti amakim, oyim va men dasturxon atrofida o‘tirgan edik.

— Bolajonim, rappa-raso o‘n kun uyda bo‘lmading-a, qayoqlarda eding?!

Amakim bu savolni berdi-yu, menga sinovchan tikildi.

Shu vaqt oyim ham:

— Sen oʻn kun uyda boʻlmaganingda amaking ham qayoqqadir safarga borib keldilar, — deya gap qotdilar-u, oshxonaga ketdilar.

Men amakimning nigohidan qandaydir maʼno uqa boshladim. Men oʻn kun uyda boʻlmagan vaqtimda amakim qayoqda yurdiykin?!

Shu xayol bilan amakimning yuz-koʻzlariga tikildim.

— Ey, amakijon, aytsam, ishonmaysiz. Boʻlib oʻtgan voqealar xuddi tushga oʻxshaydi.

— Yoʻq, boʻtalogʻim, Toʻqsonboy ota sening donoligingga, rimlik otaxon esa jasurligingga qoyil qolgan... — dedi amakim kutilmaganda.

Men amakimning bu gapidan qotib qoldim. Demak, oʻsha odamlar amakim ekan-da. Amakim esa bir koʻzini qisib jilmaydi va jim, degandek asta koʻrsatkich barmogʻini labiga tekkizib ishora qildi.

Xursand boʻlganimdan amakimning quchogʻiga otildim. Ularni mahkam quchoqlar ekanman, shunday dedilar:

— Chirogʻim, men sen bilan faxrlanaman!

MEN VA DOʻSTLARIM — IZQUVARLAR SAFIDA

Shu tariqa men va doʻstlarim yurtimizdagi Interpol va maxsus xizmatdagilar bilan hamkorlikda yosh izquvarlar boʻlib ishga kirishdik. Buning natijasida koʻplab jinoyatlar fosh etildi. Buning oʻzi esa

alohida qissa... Bu haqda hali sizga yana gapirib beraman.

Nihoyat... Men mamlakatimiz poytaxti — Toshkent shahrida xalqaro-terrorizmga qarshi kurash bo'yicha anjumanda o'z dasturim taqdimotini o'tkazdim va Axborot texnologiyalari yo'nalishidagi yangi loyiham terrorizmga qarshi kurashishdagi eng zo'r usullardan biri sifatida tan olindi.

Bir eslang-a... kamina — dasturchi Olimjon, jangchi Olimjon, „Gladiator“ Olimjon... Endi esa izquvar Olimjonman. Ana shunaqa gaplar...

Ha, aytgancha, sirli uzuk, shamshir va nurli kitob nima bo'ldi deysizmi?! Topilmalarni amkimning kutubxonasiga joylashtirdim. Kelib ko'rishingiz mumkin. Ular — haqiqiy...



Sehrli mamlakat

I BOB. EZGULIK SHAHRI

Kel, mening yosh do'stim, yonimga o'tir. Men senga o'zing sevib o'qiydigan ertaklar olami haqida so'zlab beray. Biz yashab turgan sayyorada bir sehrli mamlakat bo'lib, uning poytaxti Ezgulik shahrida yuz bergan bir voqea to'g'risida gapirib bermoqchiman.

Bu shaharda barcha yovuzliklar tugatilib, eng gullab-yashnagan, hamma bir-biriga mehribon, ya'ni qushlar, yirtqich va xonaki hayvonlar, katta-kichik hasharotlar bir-birlari bilan do'st bo'lgan zamonlar edi. Hatto yalmog'iz kampir-u devlar va ajdaholar ham o'z yovuzliklarini tashlab, butun jonzotlar bilan birga kelishib, hamjihatlikda yashardilar.

Bu sehrli shahar qirolining ismi Oqil bo'lib, yuzlaridan nur sochilib turar, juda donishmand, ilimli va mehribon kishi edi. U bu sehrli shaharni juda odillik bilan boshqarib, hammaning ishonchini qozongan edi. Qirol boy bilan ham, kambag'al bilan ham, hatto jamiki hayvon-u hasharotlar va qushlar bilan ham chin dildan suhbatlashib, ularning arzini eshitib, yordamini ayamasi edi. Bundan tashqari, bu mamlakatda qushlar-u hayvonlar, hatto hasharotlar ham odamlar bilan bimalol gaplasha olardi. Bu sehrli shaharda birov birovga hasad qilmas, birov birovni kamsitmas, hamma bir-biri bilan teng huquqli

edi va bir-biriga chin dildan yordam berardi. Shuning uchun bu shaharga Yaratganning barakati yogʻilib, kundan kunga chiroyiga chiroy qoʻshilib, gullab-yashnayotgan edi.

Yerining unumdorligidan dehqonlari yetishtirgan poliz mahsulotlarining har bittasi uch-toʻrt odamga bimalol ozuqa boʻlardi. Qovun-tarvuzlarning har biri uydek-uydek kelib, aravaga yuklansa, bittasi bir arava boʻlar, mevalarining taʼmi esa yegan odamning ogʻzida qolar edi.

Shahar ahli, katta-yu kichik, hattoki butun jon-zotlar ham kitobni sevib oʻqir va ilm olishga mehri juda baland edi. Shahar aholisi ichida ilmlilarning ilmlisi Maston ismli kampir boʻlib, uning yuzidan nur, soʻzlaganda soʻzlaridan dur yogʻilardi. Uning dunyodagi koʻp ilmlardan xabari bor edi va bilgan narsasi yoʻq edi. U shahardagi katta-katta olimlarga dars berar, oʻz ilmini mehr bilan oʻrgatar edi. Shuning uchun shahar qiroli boʻlmish Oqil donishmandning ishonchini qozonib, koʻp bora uning olqishiga sazovor boʻlgan edi. Hattoki Oqil donishmand bilan ilmda bimalol bellasha olardi. Shuning uchun shahar xalqi ular haqida qoʻshiq kuylab yurishardi, qoʻshiqning naqaroti bunday edi:

Shohimizdir odil qirol,
Yuragi liq toʻla mehr.
Soʻzlaridan tomadi bol,
Olimamiz Maston kampir.

Shaharda Maston kampirning hurmati juda baland boʻlib, u bilan bir suhbatlashgan odammi, hayvonmi, qushmi yoki hasharotmi, yana bir bora suhbatlashsam der edi. U saroy kutubxonasidagi ham-

ma kitoblarni yod bilar, bundan tashqari, dunyodagi barcha hunarlarni ham o'zlashtirib olgan edi. Faqatgina saroy kutubxonasi kitob javonlarining orqasidagi katta qulf osib qo'yilgan xonada saqlanadigan va o'qilishi taqiqlab qo'yilgan bir kitobni o'qimagan edi. Maston kampirning ichidagi qandaydir bir kuch uni o'sha eshikni ochib, u yerdagi kitobni ham o'qishga undar edi. Ammo Maston kampir aqlli, ilmi bo'lganligi uchun, bu ishni qilishni o'ziga ep ko'rmasdi.

Kunlardan bir kun nima bo'ldi-yu, ichida o'sha kuch: „Sen shu eshikni ochishing kerak. U yerda sen bilmaydigan, faqatgina qirol biladigan ilm bor. Agar shu kitobni o'qisang, sening ham ilming qirol bilan teng bo'ladi“, deb tinchlik bermay, xayolini buzdi.

II BOB. MASTON KAMPIR KUTUBXONACHI

Maston kampirning o'y-xayoli o'ziga tinchlik bermay qo'ydi. Nima qilishga boshi qotdi. Qanday qilsam, bu eshikni ochishga erishaman deb o'ylay boshladi. O'ylay-o'ylay, oxiri agar kutubxonani boshqarishni o'z qo'limga olsam, bu xona eshigini ochib, u yerdagi kitobni ham o'qishga erishaman deb, bir kuni qirol huzuriga kirdi. Qirolga chiroyli ta'zim qilib:

— Assalomu alaykum, shohim. Men o'z ilmim, odobim bilan sizning hurmatingizga sazovor bo'ldim. Bundan boshim osmonga yetdi. Buning uchun sizga o'z minnatdorchiligimni bildirsam, degandim, — dedi.

— Vaalaykum assalom. Senga ham katta rahmat.

Sen tufayli yurtimiz xalqi, bundan tashqari, barcha hayvonlar-u qushlar va hasharotlar ham ilmi bo'lishdi. Yurtimiz obodligi uchun ko'p hissangni qo'shding. Bunga o'z tirishqoqliging va halol mehnating sababdir, — deb minnatdorchilik bildirdi qirol.

Bundan foydalangan Maston kampir:

— Shohim, agar menga ruxsat bersangiz, o'z ilmiy ishimni boshlab, kelajak avlodlarga o'rgangan ilmlarim asosida odamlar-u butun jonzotlarga foydasi tegadigan, hamma tushunadigan asarlar yozsam, nima deysiz.

— Agar sen shu ishga qo'l ursang, biz sendan mamnun bo'lardik. Sen ilm yo'lidan borsang, biz senga shahar xazinasidan qo'shimcha maosh tayinlab, qo'limizdan kelganicha yordamimizni aya-maymiz va senga yordamchilar tayinlaymiz.

— Yo'q-yo'q, shohim, menga yordamchilar kerak emas, faqat bir iltimosim bor, shuni qondirsangiz boshim ko'kka yetardi.

— Sening har qanday iltimosing bajariladi. Sen shunga loyiqsan. Qanday iltimos ekan u?

— Agar ishonsangiz, kutubxona boshqaruvini menga bersangiz, kunduz kunlari ilm oluvchilarga ilm bersam, tunlari tinch mahalda o'z ilmiy ishim bilan shug'ullanib, shular asosida kitoblar yozsam, degandim.

— Men bunga roziman, — deb qirol qarsak chaldi. Darrov eshik og'asi kirib:

— Shohim, xizimatingizga muntazirman, — deya ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib, ta'zim qildi.

— Menga kutubxonachini chaqiring. Tez yetib kelsin, — deb buyruq berdi.

Biroz vaqt o'tar-o'tmas qirol huzurida egniga kulrang kamzul, boshiga kitob shaklidagi qalpoq kiygan, ilmliligi yuzidan bilinib turgan kutubxonachi paydo bo'lib:

— Assalomu alaykum, shohim, chaqirtirgan ekansiz. Xizmatingizdaman, — dedi odob bilan ta'zim qilib.

— Vaalaykum assalom, keling. Bu kishini taniysiz. Shahrimizda o'z hurmatiga sazovor bo'lgan olimalarimizdan. Sizning ishingizdan ko'nglim to'q. Kutubxonani yaxshi boshqaryapsiz, ammo ham-mangizga ilm borasida ustozlik qilib kelayotgan shu Maston kampir kutubxonani boshqarishni iltimos qilyapti. Shuning uchun sizni chaqirtirgandim, — dedi uning salomiga chiroyli alik olib Oqil qirol.

— „Ustoz — otangdan ulug'“ degan naql bor. Biz ustozlarni chin dildan hurmat qilamiz. Agar ustoz shu ishni qilish niyatida ekanlar, men rozi-man, shohim, — deb boshidagi kitob shaklidagi qalpog'ini Maston kampirga kiygazdi.

— Juda yarashdi, muborak bo'lsin. Yaxshi, ustozni hurmat qilganlar hech qachon kam bo'lmaydilar. Mayli, sizni ustozingizga yordamchi qilib tayinlayman. Kunduz kunlari ishlab, yordamlashing. Ustozingiz charchab qolmasliklari kerak. Kunduzi ozgina uxlab dam olib olsinlar, chunki tunda ilmiy ish qilib, kelajak avlodlarimizga kitoblar yozmoqchilar. Men ikkovingizga ham yaxshi maosh to'lashlarini xazinabonga tayinlab qo'yaman, — dedi shoh ustoz bilan shogirdning bir-biriga bo'lgan hurmatini olqishlab.

Shunday qilib, Maston kampir o'z orzusiga yetishganidan, o'zining o'ylagan hiylasi ish bergani-

dan, tuxumini tugʻib, oʻzining tugʻganligini bildirgan lapang tovuqdek, oʻzida yoʻq xursand boʻlib, kunduz kunlari ilm oluvchilarga u-bu narsalarni tushuntirgan boʻlib, oʻzining rejalarini amalga oshirish uchun tayyorgarlik koʻra boshladi.

III BOB. TAQIQLANGAN ESHIKNING OCHILISHI YOKI GAPIRUVCHI KITOB

Maston kampir bir necha tun kitob oʻqigan boʻlib, kitob javoni orqasidagi eshikni ochish yoʻllarini izladi. Ammo topa olmadi. Qulfni ochdi, lekin eshik ochilmadi. Qulfdan tashqari eshikda yana qandaydir belgilar qoʻyilgan edi. Koʻp ilmga ega boʻlsa-da, buning sirini ochishga aqli yetmadi. Nima qilishga boshi qotib qoldi. Chunki bu sirni qirol bilan kutubxonachidan boshqa hech kim bilmas edi. Maston kampir endi hiyla bilan kutubxonachini oʻziga ogʻdirib olishni va eshikning ochilish sirlarini oʻrganmoqni diliga tugib qoʻydi. Eshikni qayta qulfladida, hamma narsalarni oʻzining avvalgi holiga keltirib qoʻydi. Ertasi kuni Maston kampir ilm oluvchilar kitoblarini oʻqib, oʻzlarini qiziqtirgan savollarga javob olib boʻlganlaridan soʻng yordamchisi boʻlmish kutubxonachiga:

— Sen meni ustoz deb bilasan. Shu yurtda necha yuz yildan buyon yashab kelib, hech kimsaga yomonlik qilish xayolinga kelmadi. Chin dildan ilm oʻrganib, olim boʻldim. Qancha kishilarga taʼlim berib, ustozlik qildim. Shular qatori senga ham bilgan ilmlarimdan oʻrgatdim. Kitob javonlarining orqasida bir eshik bor, shu yerda oʻqilishi taqiqlangan kitob bor ekanligini eshitdim, shu rostmi? — dedi xuddi oʻzini befarq odamdek koʻrsatib.

— To‘g‘ri, u yerda bir xona bor. Bu xonaga inson zotining kirishi taqiqlangan. U yerga inson qadami yetsa, yurtda urush bo‘ladi. Bu eshikning ochilishi xalqning boshiga katta musibat keltiradi, deganlar odil qirolimiz. To‘g‘ri, siz ustozsiz, mening oldimda hurmatingiz juda baland, ammo sizga bu haqda gapira olmayman. Eshitishimcha, bu xonada hech qaysi jonzot bilishi mumkin bo‘lmagan narsa bor emish. Kimki u yerga kirs, qalbini adovat qoplab, xorlikka uchrarkan. Shuning uchun bu xona eshigining ochilishi mumkin emas ekan. Hatto shohimizning ham bu xonaga kirganlarini esimni taniganimdan buyon eslay olmayman, ustoz, — dedi kutubxonachi Maston kampirga javoban, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib.

— Sen bilmaysan, shohimizning kirganlarini. Mening o‘ylashimcha, bu xonada biz bilmagan boshqa ilmlar haqida kitoblar bor. Agar eshikni ochish sirini bilsang, menga ayt, senga ham o‘rgatardim, — deb kutubxonachini aldab, avray boshladi Maston kampir.

Ishonuvchan kutubxonachi, ilm o‘rganishni sevgani uchun, qiziqib, xona eshigini ochish sirini Maston kampirga aytdi:

— Ustoz, mening bilishimcha, eshikda g‘ildirakka o‘xshagan aylana bir narsa bor, shuni bir marta o‘ngga va ikki marta chapga, keyin o‘ngga uch marta buraladi. Shunda eshik ochiladi, lekin sizga maslahatim — eshikni ochmang, — dedi xatoga yo‘l qo‘yganligini ko‘ngli sezgan kutubxonachi Maston kampirni ogohlantirib.

Kech kirdi. O‘z maqsadiga erishgan Maston kampir kutubxonada bir o‘zi qolib, g‘o‘yo tun yar-

midan og'unga qadar ilm bilan shug'ullangan bo'lib, hamma uxlaganiga ishonch hosil qilgach, kitob javonini surib, eshik qulfini ochdi, kutubxonachidan eshitgan ochilish sirini ishga solib, qulf ostidagi g'ildirakka o'xshash narsani o'ngga bir aylantirgan edi, Maston kampirning chiroyli qo'llari o'zgarib, oriqlab, suyagi ko'rinib qoldi, go'zal barmoqlari judayam xunuk bo'lib, tirnoqlari o'sib, qiyshayib qoldi. Buni ko'rgan Maston kampir qo'rqib ketdi. Lekin qalbidagi manmanlik ustun kelib, endi nima bo'lsa, bo'ldi deb, tilsimli g'ildirakni chap tomonga ikki bora jahl bilan aylantirgan edi, go'zal husni o'zgarib, badbashara maxluqnikiga o'xshab qoldi, chiroyli qora ko'zlarining ichi qonga to'lib, burni o'sib, qiyshayib qoldi. Qirmizi lablari qorayib, go'zal tishlari o'sib, lablarining ustiga chiqib qoldi. Qalbini yovuzlik qoplab, tilsimli g'ildirakni uch bora o'ngga aylantirgan edi, chiroyli qomati bukchayib, oyoqlari qiyshayib qoldi. Nihoyat, sirli, taqiqlangan eshik ochilib, hamma yoqni qora tutun qopladi. Maston kampir qo'rqqanidan o'zini yo'qotib qo'ydi. Taqiqlangan xonadan bir kitob sakrab chiqib:

— Ozodlik, yashasin ozodlik! Men ozod bo'ldim! — deb qo'llarini ko'tarib, kutubxonani changitib, shovqin solib, baqira boshlabdi. Shovqin-surondan o'ziga kelgan Maston kampir:

— Kim u, to'polon qilayotgan? — deb atrofiga ko'z yugurtira boshlabdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, kutubxona bo'ylab bir kitob chopib yuribdi. Maston kampir ko'zlariga ishonmay, qo'llari bilan ko'zlarini ishqab ko'ribdi. Ha, haqiqatan ham, qo'l, oyog'i bor, gapiradigan kitob. Shunda u:

— Ey, sen kimsan, qayerdan kelding? Nega shovqin solib, yugurib yuribsan, — deb kitobni soʻroqqa tuta boshlabdi Maston kampir.

— Men, menmi, menman. Men sehrli kitobman. Shu xonadan chiqdim, sen meni ozod qilding, — deb kitob toʻxtab, oʻzi chiqqan sirli xonaga ishora qildi.

— Sen bu yerda nima qilib yotganding? Seni bu yerga kim qamab qoʻygan edi? Sening qanday sehring bor oʻzi? Bir kichkina kitob boʻlsang, qoʻlingdan nima ham kelardi? Buncha osmonga sakraysan?

— Maston kampir, yovuz kampir, shunga ham aqling yetmadimi? Seni kim olima, dono kampir deydi? Bu xum boshingda aql bormi oʻzi yoki u qovoq boshmi? Ey, ayyor kampir, men Ezgulik kitobining Manman degan oʻgʻliman. Men shu xonada necha ming yillardan buyon qamoqdaman. Hozirgi qirolingiz boʻlmish Oqil shohning bobokaloni Adolat bobo meni tutib, shu xonaga qamab qoʻygan edi, — dedi kitob Maston kampirni masxara qilib va semiz lapang tovuqqa oʻxshab, atrofini aylanib, yana u yoqdan bu yoqqa chopa boshladi.

— Seni nima uchun qamashgan, nima ayb ish qilganding? Koʻp sakramasdan, toʻxtab gapir-chi? Nima uchun mening ustimdan bunchalik kulyapsan, senda ozgina boʻlsa ham aql bormi?

— Sen avval oʻzingni oynaga sol, qanaqaligingni bil. Keyin meni soʻroqqa tut. Bor-bor, ha-ha-ha, — deya kitob, battar Maston kampirning ustidan kula boshladi.

— Menga nima boʻlibdi? Men malikalardek goʻzal bir xonim boʻlsam, — deb, oʻzidagi boʻlgan oʻzgarishni unutib, oʻzini oynada koʻrish uchun oyna

tomonga boribdi-yu, — voy, bu qanaqasi, menga nima bo'ldi o'zi? — deb boshini changallab, yerga o'tirib olibdi Maston kampir.

— O'zingni ko'rdingmi? Ana shunaqa, do'stginam. Men ham edim seningdek, sen ham bo'lasan meningdek. Bir paytlar bu mamlakatda eng zo'r kitob edim. Meni odamlar-u hayvonlar, daraxtlar-u gullar, hatto hasharotlar ham sevib o'qishardi. Mening bu yutuqlarimdan onamning boshi osmonga yetib, xursand bo'ldilar. Nima bo'ldi-yu, bir kuni qalbimda manmanlik paydo bo'ldi. O'zimni kitoblar orasida mag'rur tutadigan va kibr bilan yuradigan bo'lib qoldim. U paytlar hamma kitoblar ham mendek gapiradigan, oyoq-qo'li bor bo'lgan. Men boshqa kitoblarni pisand qilmaydigan bo'lib qoldim. Bir kuni kutubxonada janjal ko'tardim. Bu janjal sabab, onamga ham qo'l ko'tardim. Bundan onam xafa bo'lib, „Men ismingni Hayot deb qo'ygandim, endi sening isming Manmandir. Sen tuzalmas kasallikka yo'liqding. Endi kimki seni o'qisa, sendek manmansirab qoladi“, deya duoyi bad qildi. Onaning farzandiga qilgan duosi qabul bo'lar ekan. Yaratgan onamning duosini qabul ayladi va mening manmanligim o'z boshimga yetdi. Bu janjal ustiga mamlakat qiroli Adolat bobo kelib qoldilar va bo'lgan voqeani eshitib, meni shu xonaga umrbod qamab tashlashdi, — dedi kitob o'z hikoyasini yakunlab.

— Endi nima qilasan? Tuzaldingmi?

— Men tuzalmayman. Mening dardim bedavo. Endi men senga xizmat qilaman.

— Qanday qilib? Qo'lingdan qanday ish keladi o'zi?

— Mening qo‘limdan barcha ish keladi, manmansiraganim uchun sehrgarlar kitobiga aylanib qolganman.

— Zo‘r-ku, meni oldingi holimga keltirib qo‘ychi, bo‘lmasa. Qani, sehringni ko‘rsat.

— Buning iloji yo‘q, chunki sening bu holating sehr bilan tuzalmaydi. Sen qalbingni tozalashing kerak. Qalbingdagi manmanlik o‘rnini ezgulik egalashi kerak. Sen shunda o‘z holingga qaytasan.

— Ezgulik, menda ezgulik ko‘p. Hamma meni ustoz deb biladi. Men hammaga ilm o‘rgatdim.

— Ha, to‘g‘ri. Sen biroz oldin shunday eding. Keyin manmanlik qilding va taqiqlangan eshikni ochding. Xorlikka yo‘liqding. Endi bularni o‘ylama, kel, men bilan do‘st bo‘l! Bilasanmi, qirol Oqil bobo emas, sen bo‘lishing kerak. Chunki shohlikka sen loyiqsan. Agar sen qirolicha bo‘lsang, hamma sening xizmasingda bo‘ladi. Sen mendan foydalanib, bunga erishmog‘ing mumkin, — deya kitob Maston kampirning ichiga g‘ulg‘ula soldi.

— Qirolicha bo‘lish, zo‘r-ku. Qanday qilib? Qaniydi, qirolicha bo‘lsam. Menga o‘rgat, tezroq bo‘l! — dedi Maston kampir o‘zini qo‘yarga joy topa olmay, oyog‘i kuygan tovuqqa o‘xshab.

— Ishtahang zo‘r. Katta ishga shoshilma. Mana men senga yordam beraman. Mening orqa varag‘imda sehr-jodular ro‘yxati bor, shundan foydalan va o‘z istaklaringga erish, — dedi kitob o‘zining orqa varag‘ini ochib.

— Unda eshit! Avvalo, Oqil bobo qasrining kulini ko‘kka sovur va menga uning qasridan ko‘ra chiroyli qasr barpo qil! Mening qasrimni dev va ajdaholar qo‘riqlasin!

— Shoshma, shoshma, do'stginam. Ko'p buyruq beraverma. O'zing o'qi, izlan. Keyin hamma istagingni bir paytning o'zida aytma, bitta-bitta ayt. Eshit, senga yana bir sirni aytay, mayli, qiynalib yurma, chunki sen mening xaloskorimsan. Mening sakson sakkizinchi varag'imdagi to'qson yettinchi jumlaning o'qib, o'zing bir sehrli hasa yasab ol! Shunda sening hamma aytganlarning bir zumda amalga oshadi.

Endi Maston kampir bilan sehrli kitobning suhbatini shu yerda to'xtatib turaylik-da, so'zni qushlar shohi burgutdan eshitaylik.

IV BOB. BURGUTNING XABARI

Tun yarimdan oshgan. Osmonda oy o'z nurlarini sohib, atrofida yulduzlarni yig'ib, ular bilan tuning maroqli o'tishini ta'minlab turibdi. U yer-bu yerda kechasi tirikchilik bilan band bo'lib, kunduzlari dam oladigan qush va hasharotlarning har xil ovozlari eshitilmoqda. Kutubxonadan sal narida yoshi mingdan oshgan chinor daraxti bo'lib, bu chinor umri davomida ko'p voqealarning guvohi bo'lgan. Umr bo'yi osmonga cho'zilib, o'z tanasidan ko'p jonivorlarga uy qurishlari uchun joy bergan. Jonivorlar qatori bu chinor tanasida qushlar shohi deb nom olgan burgut ham o'z kulbasini qurgan. O'z kulbasida mudrab o'tirgan bu qush chinor pastida bo'layotgan baqir-chaqirdan uyqusi qochib, pastda bo'layotgan gap-so'zlarni eshitib turdi va gap nimadaligini tushundi. Buning oxiri yaxshi bo'lmasligini o'ylab, bu xabarni tezda Oqil boboga yetkazish kerakligini anglab, keng qanotlarini yozdi va Oqil boboning qasri tomon parvoz qildi.

Qushlar shohi burgut qanotini tez-tez silkitib, tezda Oqil bobo qasri yonidagi yong'oq daraxtiga kelib qo'ndi. Uning tezlik bilan qo'nganidan shirin tushlar ko'rib, uxlab yotgan shu daraxtdagi qushlar cho'chib uyg'onib, qo'rqqanlaridan qattiq chug'ur-lashib, osmonga ko'tarildi. Bu chug'ur-chug'urdan uyqusi qochgan Oqil bobo o'rnidan turib, xona-sining derazasiga osilgan pardani ko'tardi va atrofga nazar soldi. Ko'zlari yonib turgan qushlar shohi burgutga ko'zi tushdi-yu, deraza tabaqasini ochib:

— Ha, qushlar shohi, juda bezovtasan. Seni tun-lari bu yerda hech ko'rmaganman. Nimadan bezov-tasan? Menga biror gaping bormi? — dedi va bur-gutni yoniga chaqirdi.

— Assalomu alaykum, Oqil bobo, shahar no-tinch. Shahrimizda yovuzlik boshlanyapti, shohim, — deya ko'rgan va eshitganlarini oqizmay-tomizmay so'zlab berdi burgut.

Buni eshitgan Oqil bobo, bir xo'rsinib:

— Chatoq ish bo'libdi. Taqiqlangan eshikni kim ochgan bo'lishi mumkin? Uning sirini men va ku-tubxonachidan boshqa biror jon bilmas edi-ku, — deb ikki qo'lini bir-biriga urib qarsak chalib, eshik og'asini chaqirdi. Oradan bir soniya ham o'tmay eshik og'a ta'zim qilib, Oqil bobo huzurida paydo bo'ldi va:

— Chaqirdingizmi, shohim? Nima xizmat buyu-rasiz? — dedi qo'lini ko'ksiga qo'yib, shohga hurmat bilan.

— Menga zudlik bilan sobiq kutubxonachini chaqiring, tez yetib kelsin! — deb eshik og'ani sho-shirib, ketishga ruxsat berdi-da, yana burgutga yuz-landi:

— Ey, qushlar shohi, ishimiz chatoq. Mening

bobokalonim zamonlarida bu manmansiragan kitobni shu xonaga qamashgan va uni ochmaslik buyrug'i avloddan avlodga o'tib kelar edi. Kelib-kelib bu yomon ish mening zamonamda yuz berishi xayolimga kelmabdi. Bu mening e'tiborsizligimdandir. Dilim nimanidir sezganday bo'ldi-yu, Maston kampirning gapiga laqqa ishonib, uni kutubxonachi qilib qo'yibman. Endi biz bu kitobni ushlab, o'z joyiga qamamasak, yovuzlik dunyoga tarqaydi. Ey, qushlar shohi, sen endi tez uch, bu xabarni barcha o'rmon hayvonlari-yu, barcha hasharotlarga va jamiki daxtlarga yetkaz! Esingda tut! Bo'layotgan hodisalarga qiziqish bilan qarama, aks holda sen ham sehrilanib qolasan! Ehtiyot bo'l, sehrning orqasi kesilgan, kim unga ishonsa, yovuzlikka sherik bo'ladi. Men ham jarchilarga xabar berib, shahar tashqarisiga chiqib ketamiz. Sen ham xabarni yetkazib, o'z askarlaring bilan bizni o'sha yerdan topasan. Hali ko'p tortishuvlar bo'ladi, — Oqil bobo shunday deb qushlar shohi burgutga ketish uchun ruxsat berdi.

Burgut uchib ketishi bilan ikki mulozim kutubxonachini ikki qo'ldan ushlagancha Oqil boboning huzuriga olib kelishdi. Kutubxonachi bo'lgan voqeani anglab, qilgan xatosini tushundi, ichida ming pushaymon bo'lib, oyoq-qo'li titray boshladi.

— Shohim, meni kechiring, men aldanib qoldim. Men Maston kampirni ustoz deb, unga aldanib qoldim. Taqiqlangan eshikning ochilish sirini unga aytib qo'ydim. Shu tun uyqu nimaligini bilmay, qo'rqib chiqdim, — dedi boshini egib.

— Mening ham ko'nglim sezgan edi. Lekin e'tiborsizligim tufayli uning tuzog'iga ilindik. Ikkinchi sirni aytmadingmi? Agar bu sirni ham aytgan bo'l-

sang, uni yengishimiz juda qiyin bo'ldi, — dedi Oqil bobo kutubxonachiga yuzlanib.

— Yo'q-yo'q, aytmadim, shohim. Maston kam-pir bu haqida so'ramadi.

— Unda bizda ozgina bo'lsa ham ularni yengishga imkon bor. Yaratgan egam yo'l bersa, biz shu kitob yordamida bu yovuzlikni yengamiz. Tezda o'sha kitobni menga olib kel, — deb Oqil bobo kutubxonachini Ezgulik kitobini olib kelish uchun jo'natdi.

Kutubxonachi dag'-dag' titrab, tezlik bilan Oqil bobo taxtining orqasidagi temirdan yasalgan qutini ochib, Ezgulik kitobini Oqil boboga olib kelib berdi. Oqil bobo yana eshik og'ani chaqirib, unga tezda jarchilarni chaqirib, ularga vaziyatni tushuntirishini aytdi. Butun shaharga jar solib, odamlarga shaharni tark etish haqidagi xabarni yetkazishlarini buyurdi.

Oqil bobo biroz xoli qolishni istabdi va uzr so'rab, hammani tarqalishga va safarga tayyorgarlik ko'rishga buyurdi. Hamma tarqalib, bir o'zi yolg'iz qolgach, Oqil bobo Ezgulik kitobidagi „Ezgulik“ degan yozuvni uch bora silagan edi, Ezgulik kitobi tilga kirib:

— Eshitaman, yaxshi odamlarning donosi Oqil bobo. Bir necha o'n yil davomida meni uyg'otmagan edingiz. Bugun uyg'otishingizga nima sabab? — debdi yuzlaridan quyosh kabi nur sochib. — Ko'nglim qandaydir noxushlikni sezyapti.

— Ha, nurli kitob, xuddi shunday. Sen onasanda! Shu tunda senga itoatsizlik qilib, necha ming yildan buyon qamalgan o'g'ling Manman ozodlikka chiqdi, — dedi Oqil bobo kitobga javoban, ko'ziga yosh olib.

— Bu qanday sodir bo'ldi, bobojon? Kim uni

chiqaribdi? Men bu haqida juda ko'p eslatgan edimku. Bundan tashqari, katta bobokaloningizning bosh varag'imga yozgan vasiyati bor-ku! Bu itoatsiz o'g'lim juda kibrii. Uni o'z kibri boshiga yetgandi. Tezroq uni tutish choralari ko'rishimiz zarur. U kimning qo'liga tushsa, katta yovuzlik kuchiga ega bo'ladi va mamlakatni yovuzlik qoplaydi, bobojon. Shoshilishimiz kerak, shaharni tezda tark etishimiz darakor, — dedi Ezgulik kitobi, qattiq iztirobga tushib.

— Hozir eshik og'ani chaqirib, jarchilarga xabar berishini va shu qatori qushlar shohi burgut orqali boshqa jonivorlarni ogohlantirishga buyruq berdim. Hamma yig'lsa, tezda shaharni tark etamiz.

— Ha, aytganday, bobojon, endi bu bezori kitob va Maston kampirni yengish uchun ko'p og'ir qiyinchiliklarni boshimizdan o'tkazishimiz mumkin. Shuning uchun puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. Bu ishga faqat dili pok, go'zal xulqli, qo'rqmas, botir, jasur kishilarni tanlashimiz kerak. Agar dilida ozgina g'ubor bo'lsa, unday kishilar bu yo'lda aldanib qoladilar.

— Ha, buni yaxshi bilaman. Yovuz Maston kampir shaharning hamma yog'ini sehlrab qo'yishi aniq. Albatta, bu sehrni yengishimiz uchun qalbida Vataanga mehri bo'lgan, xalqini o'ylaydigan botir, mard, chiroyli xulq egalari kerak bo'ladi. Vaqtni o'tkazmasdan, darhol kerakli narsalarni olib, zudlik bilan yo'lga tushishimiz lozim, — deb Oqil bobo kitobdagi „Ezgulik“ degan yozuvni uch bora siladi va uni safar xaltasiga solib, qasr tashqarisiga qarab yo'l oldi.

Endi Oqil bobo va shahar ahli shaharni tark etaverishsin, biz qolgan gapni Maston kampir bilan Manman kitobdan eshitaylik.

V BOB. SEHRLI HASSA YOHUD MASTON KAMPIRNING HIYLALARI

Maston kampir kitobning aytgan varag'ini o'qish uchun endi qo'l cho'zgan ekan, Manman kitob o'zini ushlatmay, Maston kampirdan qocha boshlabdi.

— Kerak bo'lsam, tutib ol! Ayyor kampir, yalqov kampir, — deya uni masxara qila boshlabdi kitob.

— To'xta, qayerga qochyapsan? Menga do'st bo'ldim, deganding. Yordam bermayapsan-ku, biror jonzot sezmasdan harakat qilishimiz kerak. To'xta, — deb Maston kampir halloslab, mushukni quvgan kuchukdek kitobning orqasidan quva boshlabdi.

Kitob ham Maston kampirning so'ziga quloq solmasdan, yon atrofiga qaramay yuguraveribdi, yaqinida o'sgan o'sha katta chinorga yuzi bilan qattiq urilib, bir necha qadam orqaga uchib, Maston kampirning oyog'i ostiga kelib tushibdi. Bu vaziyatdan foydalangan Maston kampir shosha-pisha kitobni qo'lga mahkam ushlab, u aytgan sakson sakkizinchi varaqni ochib, to'qson yettinchi jumlani o'qiy boshlabdi:

— Bori-mori-tori, — deyishi bilan kitob uni to'xtatib:

— Hoy, shoshqaloq kampir, shoshilma. Sehrli jumlani o'qishdan oldin uning ostidagi izohni o'qi! Aks holda sehr o'zingga urib, xorlikka yo'liqasan, — debdi va Maston kampirning biqiniga bir musht tushiribdi.

— Urmasdan aytsang ham tushunaman-ku.

— Sen galvars tushunganingda manmanlik qil-magan bo‘larding va o‘zingni xorlikka duchor qil-masding.

— Bo‘ldi, ko‘p nasihatgo‘ylik qilaverma. Shunchalik nasihatchi ekansan, sen nega manmanlik qil-ding, jim bo‘l! — deya Maston kampir sehrli jumla ostidagi izohni o‘qiy boshlabdi. Izohda bunday so‘zlar bor edi: „Biror daraxt o‘z xohishi bilan tanasidan berishga rozi bo‘lsagina bu sehr foyda beradi“.

— Bu juda oson-ku, menga hamma daraxtlar o‘z xohishlari bilan shoxlarini berishadi, — deya Maston kampir xursand bo‘lib, turgan joyida xuddi qurbaqa kabi sakray boshlabdi.

— Ko‘p xursand bo‘laverma, endi senga hech qaysi daraxt o‘z ixtiyori bilan tanasidan bir barg ham bermaydi. Chunki sen endi ustoz Maston kampir emas, balki yovuz Maston kampirsan, — debdi ki-tob unga sakrashdan to‘xtatib.

— Yur men bilan, hozir ko‘rasan, — debdi Maston kampir va kitobni qo‘ltig‘iga qisib, o‘rmon to-monga qarab yo‘lga tushibdi.

Maston kampir o‘rmonni aylanib, barcha daraxtlardan o‘z tanasidan berishini so‘rabdi. Ammo birorta ham daraxt unga o‘z shoxidan bermabdi. Maston kampirning xunukligidan, hattoki uni tanishmabdi ham, so‘roviga javob ham berishmabdi...

— Hali ko‘rasanlar, hammalaringni sehrlab, qu-ruq to‘nkaga aylantirib qo‘yaman. O‘z ustozingizdan birgina tanangizni qizg‘andingiz-a, — deb g‘azablanib, ikki qo‘lini tepaga ko‘tarib, ko‘zlarini katta-katta ochib, olazarak qilibdi. — Axir sizlarga qancha ilm berdim, mehribon ustoz bo‘lib, sabr bilan, har

bir soʻragan savollaringizga sizlarni qoniqtiradigan darajada javob berdim. Nahotki unutgan boʻlsangiz?

Uning bu gaplarini eshitib, barcha oʻrmondagi dov-daraxtlar Maston kampirni tanishibdi.

Hamma oʻrmondagi katta-kichik daraxtlar nomidan ming yillar davomida koʻp voqealarga guvoh boʻlgan katta chinor:

— Sening gaping toʻgʻri, sen bizga ustozlik qilding, ammo bugungi kunda oʻzing nonkoʻrlik qilib, yovuzlik yoʻlini tanlading. Shuning uchun biz senga yordam bera olmaymiz, — debdi uning soʻzini boʻlib va qalin tanasini qimirlatib, shoxlarini silkitibdi.

— Qoyil, chinor, men sendan buni kutmagandim. Sen koʻp voqealarga guvoh boʻlgansan va daraxtlar ichida bilimi oʻtkir, eng yaxshi shogirdlarimdan eding.

— Shak-shubha yoʻq! Nima qilay, tunda sen bilan kitobning suhbatingizni, niyatingizni eshitdim va dahshatga tushdim, agar sen yaxshi niyatda kelganningda hammamiz senga bir tanamizni emas, borimizni berardik. Afsus, senga berilgan ilm! Men tuzgan makkorliging haqida butun oʻrmon daraxtlariga xabar berganman!

— Sotqin! Yaramas! Yoʻqol koʻzimdan!

Chinor daraxti yana nimadir demoqchi boʻldi, ammo kechikdi. Chunki Maston kampir allaqachon undan ancha uzoqlashib qolgan edi.

Maston kampir yurishda davom etdi. Yoʻl yurib, yoʻl yursa ham moʻl yurib, oxiri oyogʻi charchadi. Bir harsang toshni topib, tosh ustiga choʻkka tushib oʻtirib oldi. Qoʻlini peshanasiga qoʻyib, atrofni kuzata boshladi. Oʻtirgan joyidan sal narida bir baland

o'sgan yulg'un daraxtiga ko'zi tushib qolib, dili quvnab, o'rnidan turdi va qo'zichoqni uchratib qolgan och bo'riga o'xshab yulg'un daraxti yoniga tez-tez yurib, bo'g'ziga nafasi tiqilib yetib bordi. Sahroning o'rtasida katta daraxt singari o'sib, shoxlarida qizil, yashil yaproqlari quyosh nurida tovlanib turgan yulg'unga:

— Hoy, sahro o'rtasida yakka holda o'sgan daraxt, sen nega bu jazirama sahroni o'zingga makon qilding? — deb so'radi o'zini rahmdil ko'rsatib. — Sababi nima? Senga shunday sehrli mamlakatda bir qarich yer topilmadimi?

Yulg'un daraxti ham tilga kirib:

— Nimasini aytay, men bir paytlar bog'larda o'sadigan, mevasi tilni yoradigan bir daraxt edim. Kimki mening mevamdan yesa, doim maqtab ketardi. Men bundan o'zimni mag'rur tutib, atrofdagi boshqa daraxtlarni nazaringa ilmay, o'zimdan past ko'rardim. Bu manmanligim mening boshimga balo bo'lib, shu sahroga quvilib, mevasiz, qadrsiz daraxtga aylandim. Mana, necha ming yillar davomida sahrolarda o'sib, Yulg'un nomini olib, o'z o'timga o'zim qovrilib yuribman, — deb tebranibdi va o'zining qurigan gullarini xuddi ko'z yoshiga o'xshab sochib yuboribdi.

— Ha, juda nomardlik bo'libdi, Yulg'unjon. Dunyo shunaqa beshafqat, foydang tegsa, yaxshisan. Aks holda keraksiz bo'lib qolasan. Hechqisi yo'q, xafa bo'lma, o'zim senga yordam beraman, — deb Maston kampir uni yupata boshladi.

— Yo'q-yo'q, men xafa emasman. Hamma ayb o'zimda. Chunki men o'zimning manmanligim sa-

bab bu ahvolga tushdim. Juda afsus qilaman, ammo foydasi yo'q.

— Nega foydasi yo'q ekan? Mana men senga yordam beraman. Faqat sen ham menga avval bir yordam berishing kerak!

— Qanday yordam!

— O'z tanangdan menga bir bo'lak bersang, seni yana oldingiday, mevasi tilni yoradigan, go'zal daraxtga aylantirib qo'yaman!

— Qo'lingdan keladimi? Chunki men bir umrga bu sahroga quvilganman-ku!

— Albatta qo'limdan keladi-da, xohlasam, men bog'lardagi barcha daraxtlarni quritib, kulini ko'kka sovuraman. Sen hecham buni o'ylama, — deya yulg'un daraxtiga sehrli kitobni ko'rsatdi. — Bunda hamma narsaga chora bor.

Yulg'un daraxti Maston kampirning yolg'on gaplariga uchib, ikkinchi bora xatoga qo'l urdi va o'z ixtiyori bilan unga o'z tanasidan bir bo'lak berdi. O'z niyatiga erishgan Maston kampir yulg'un daraxtining tanasini qo'lga olib, kitobning sakson sak-kizinchi varag'idagi to'qson yettinchi jumlaning o'qiy boshladi:

— Bori-mori-tori! Alaxanda-balaxanda, barcha sehrlar joylashgan hassaga aylan! Kuf-suf, — deb yulg'un daraxtining tanasini, kitobda aytilganidek, yerga uch bora qattiq urdi. Yulg'un daraxtining tanasi Maston kampirning qo'lidan chiqib, osmon-u falakka uchib, xuddi mohir sportchilar havoda um-baloq oshgandek, uch bora aylanib, uning yoniga tushdi-da:

— Nima xizmat, buyuring, — dedi yon atrofini tutunga to'ldirib.

Shu payt yulg'un daraxti tanasining uchidan to ildizining uchigacha achishib, qattiq og'rib, bir lahza o'tmasdan tanalari qarsillab yorilib, qurib qolibdi va zo'rg'a ingrab:

— Voy jonim. Nima qilib qo'yding, meni pichoqsiz so'yding-ku, alvasti kampir! — deya Maston kampirni qarg'ay boshlabdi. — Bir marta xatoga yo'l qo'ygandim, senga ishonib yana xato qildim. Mening nafsim qursin!

— Ha-ha, to'g'ri, endi sen ham menga sheriksan. Mening qilgan yovuzliklarim uchun sen ham javobgarsan. Qachonki, yana o'zingni tutib, gullab, sening gulingdan olib, uni ezib, mening ustimdan sochishsagina tanangdagi sehr yo'qolib, sen o'z hollinga qaytasan! Lekin men bunga yo'l qo'ymayman. Chunki men sening tomiringga keladigan suvni quritib qo'yaman. Qachonki, biror kimsa senga uch-rab, tagingga suv quysa, shunda sen gullab-yashnaysan. Ammo men bunga yo'l qo'ymayman! Sen tomonga kelish yo'llarini berkitib tashlayman! Xayr, ko'rishguncha! — debdi Maston kampir va yulg'un daraxtining dod-voyiga quloq solmasdan, kitobni qo'ltig'iga qistirib, jo'nab qolibdi.

VI BOB. KENGASH, YOVUZLIKKA QARSHI KURASHNING ILK QADAMLARI

Butun shahar ahli katta maydonga yig'ildi. Oqil bobo to'planganlarga:

— Hurmatli mening sevimli hamshaharlarim. Shahrimiz boshiga yovuzlik qorlari uchqunlamoqda. Ogoh bo'laylik! Hayotimiz xavf ostida! Hammangiz yaxshi ko'rib hurmat qiladigan Maston kampirning

qalbini yovuzlik qoplab, manmanlik qilib, bir necha ming yillar davomida kutubxonamizning ochilishi taqiqlangan eshigini ochibdi. Kutubxonamizdan „Manman“ degan sehrgarlik kitobi Maston kampir sababli ozodlikka chiqibdi. Bu kitob hozir uning qo'lida. „Manman“ kitob ozodlikda ekan, bu biz uchun xatarlidir. Endi qattiq kurashmog'imiz va Maston kampirdan bu kitobni olib, o'z joyiga qamashimiz kerak, — dedi ko'ziga yosh olib. — Bu mening xatoyim, ehtiyotsizlik qildim, azizlarim. Ey mening mehribon xalqim, yurtimizni yovuzlik iskanjasidan qutqarib, yana ezgulik hukmron bo'lmog'i uchun sizlarning yordamingiz zarur bo'ladi. Endi bir yoqadan bosh chiqarmog'imiz darkor.

Oqil boboning ma'ruzasini tinglab turgan xalq orasida g'ala-g'ovur boshlandi.

— Qanday qochibdi?

— Nega qochadi?

— Maston kampir nega bu yo'lni tanlabdi?

— Shuncha yil ustozlik qildi. Hammamizning hurmatimizga sazovor bo'ldi. Uni qaytarish kerak!

— Tinchlik saqlanglar! Afsus, buning iloji yo'q. Yagona yo'li qattiq kurashmog'imiz kerak. Faqat ezgulik yo'li bilan. Albatta, ezgulik, doim yovuzlikni yenggan. Endi xalqimiz ichidan botir, jasur, pahlavon, bilimda o'zining zukkoligi bilan ishonch qozongan, bilagi kuchga to'lgan polvonlarimizni tanlab, tezda yo'lga tushishimiz va Maston kampirni topib, uni tor-mor qilishimiz zarur. Manman kitobni olib, o'z joyiga qamashimiz kerak. Shunda biz tinchlikka, ozodlikka va yana qayta hurriyatga erishamiz. Ogohlantirib qo'yay, kimki aldanib, yurtiga, xalqiga xiyonat qilib, sotilib ketsa, xorlikka yuz

tutadi, — dedi Oqil bobo xalqini tinchlantirib va ko'ngilli mardlarni yoniga chorlab. — Kurashga borish-bormaslik — ixtiyoriy. Hech kimni majburlamaymiz. Yurtiga muhabbati bor fidoyilar o'rtaga chiqsin.

Bir necha soniya o'tmasdan, xalqning ichidan yoshlar, bilagi kuchga to'lgan barcha yigit-u qizlar o'rtaga chiqdi va baralla ovozda:

— Biz hammamiz elimiz, yurtimiz, xalqimiz, Vatanimiz uchun har qanday kurashga tayyormiz. Buyuring, Oqil bobo, shahrimizning tinchligi — bizning tinchligimiz, xalqimizning shodligi — bizning shodligimiz. Albatta, biz bu yovuzlikni bir tan, bir jon bo'lib yengamiz, — deyishdi.

— Barakalla, mening suyukli o'g'il-qizlarim! Tashakkur sizlarga. Ammo qariyalar, ayollar-u yosh bolalarimizni yolg'izlatib, tashlab keta olmaymiz, ularni himoya qilishimiz kerak. To'g'rimi?

— To'g'ri, — deyishdi o'rtaga chiqqan jasur, mard o'g'il-qizlar.

— Endi maslahatlashib olamiz. Ikki guruhga bo'linib ish ko'rganimiz ma'qul. Qizlar va bir necha o'g'il pahlavonlar shu yerda qolib, xalqni himoya qilishsin! Qolganlar safar tayyorgarligini ko'rib, tezda yo'lga tushaylik. Faqat esingizda bo'lsin! Safarga chiquvchilarning dili pok bo'lishi lozim, chunki qalbdagi ozgina manmansirash bo'lsa, u yo'lga halokatga yo'liqadi, — dedi Oqil bobo yig'ilganlarni yana bir bora ezgulikka chaqirib. O'z yurtining ozodligi va ezgulik yo'lida jonini beradigan xalq o'g'lonlarining shijoatini ko'rib, qalbi quvonchga to'ldi va nutqini davom ettirdi: — Shuni ham unutmanglarki, mening polvonlarim, bu kurashga juda ko'p odamning

keragi yo‘q. Xafa bo‘lmanglar, saralab olamiz. Qolganlar xafa bo‘lmasinlar, xalqni himoya qilish ham birdek savob ishdir. Endi tezlik bilan tanlov e‘lon qilamiz va bilim, kuchlaringizni sinab ko‘ramiz, chunki bu yo‘l shuni talab qiladi, mening farzandlarim.

O‘rtaga chiqqanlar orasida yana g‘ala-g‘ovur boshlandi. Bir yigit bilaklaridagi kuchni ushlab ko‘rsatib:

— Meni oling! — dedi. — Mana, mening bilaklarim kuchga to‘lgan, bu kuchlarimni ona yurtim uchun ishlatmasam, qayerga ishlataman.

— Men bu sinovdan albatta o‘taman, — dedi boshqa bir yigit, qo‘llarini baland ko‘tarib, ko‘kragini kerib.

— Biz ham sizlardan qolishmaymiz, — deyishdi bo‘sh kelmay, sochlari uzun, qoshlari kamon, qora ko‘zli go‘zal qizlar, o‘zlarini mag‘rur tutib.

— Bolalarim, shovqin qilmanglar, qizlar xalq yonida qolishsin! Qolgan botir yigitlar kurash o‘tkaziladigan maydonga, — deb Oqil bobo qizlarning peshanasidan o‘pib, baxtini tilab, xalqning xizmatini qilishga chorladi. — Qizlarim, ko‘zlaringiz aytib turibdi, Vatan uchun joningizni berishga tayyorsiz! Xotirjam bo‘linglar, tez orada biz g‘alaba bilan qaytamiz! Bir-biringizga mehribon bo‘linglar!

VII BOB. TANLOV VA SINOVLAR YOXUD YOVUZLIKNING BOSHLANISHI

Oqil boboning duosiga qo‘l ko‘tarib, „omin“ deya Yaratgandan umid qilib, xalq tarqaldi.

Barcha yurtim, xalqim degan mard, ilimli, botir,

qo'rqmas, bilagi kuchga to'lgan yigitlar sinovdan o'tish uchun kurash maydoni tomon yo'l olishdi.

Ezgulik shahrining markazida juda hashamatli bir bino bo'lib, shahar binolarining ichida o'z ko'rkiga ega edi, bu yerda deyarli har kuni pahlavonlar o'rtasida kuch sinashish musobaqalari bo'lib turardi. Bino atrofi marmar toshga chiroyli naqsh o'yilgan baland devor bilan o'ralgan edi. Bino ichkarisi kattagina kurash maydoni, tomoshabinlar uchun o'rindiqlar va sportning boshqa turlari bo'yicha ham shug'ullanadigan joylardan iborat edi. Chunki Oqil bobo xalqining ilmi bo'lishi bilan birga sog'lom bo'lishini istab, bu binoni shaxsan o'zi qurdirgan edi va shaharning eng kuchli, jasur yigitlaridan tanlab, sportdan saboq berib, ularga xalq ichida sportning qaysi turiga xohishi bor bo'lganlarni istagan yo'nalishda shug'ullantirishni tayinlagandi. Bu binodagi barcha sportchilarga Mahmud polvon bosh edi. Mahmud polvon qorachadan kelgan, yelkalari keng bo'lib, har bir yelkasida ikki kishi bemalol o'tira olardi. Har bir bilagining kattaligi chinor daraxtining yog'on tanasidek edi. U shunchalik kuchli bo'lishi bilan birga ilmi, kitob o'qishni jon dilidan sevadigan, dili pok, katta-yu kichikni birday hurmat qiladigan, xushchaqchaq, xalqning olqishiga sazovor bo'lgan yigitlardan edi. Agar u olishsa, shaharning o'n, o'n besh polvoni unga bas kela olmas edi. Uning bu jasurligini shahar qo'rg'onlarida qo'riqchilik qiladigan dev va ajdaholar ham eshitib, undan hayiqib turishardi. Mahmud polvonning qo'l ostidagi pahlavonlar ham uning tarbiyasini olib, dillari manmanlikdan yiroq edi. Doim qalblarida ona yurt tinchligi, xalqning shodligi va Yaratganning roziligi jo'sh urardi.

Xalq ichidan yurt ozodligi yoʻlida kurashga tayyor barcha yigitlar bino ichiga odob bilan kirib boshirdi. Chunki ular ham shu binodagi polvonlar tarbiyasini olib ulgʻayishgan edilar-da. Ularni Mahmud polvon boshchiligidagi polvonlar qarshi olishdi. Oqil bobo Mahmud polvonni yoniga chaqirib:

— Oʻgʻlim, xabarni eshitgan boʻlsang kerak, shuning tashvishida bugun xalqni yigʻib, hammaga boʻlgan voqeani aytib berdim va koʻngillilarni yigʻib, huzuringga olib keldim. Endi ularning ichidan kuchli, bilimli, bu safarga bardosh beradiganlarini ajratib, oʻzing boshchiligingda safarga otlanasan. Bu yovuzlik xalqning boshiga koʻp musibatlar olib kelishi koʻrinib turibdi, — dedi xoʻrsinib ezilgan bir holatda. — Albatta, bu safarlaringiz anchagina mashaqqatli. Ammo Maston kampirni yengib, oʻsha Manman kitobini oʻz joyiga qamamaguncha tinchimaymiz.

— Otajon, xotirjam boʻling, hecham siqilmang, xalqning mana shunday bahodir oʻgʻlonlari bor ekan, Yaratgan egamning xohishi bilan hammasini oʻz joyiga keltiramiz va ona yurtimizni, xalqimizni bu falokatdan qutqaramiz. Hammasini eshitdim, men ham barcha polvonlarimni yigʻib, tayyorgarligimizni koʻrib, sizning buyrugʻingizni, oq fotingizni kutib turgandik. Bu yigitlarni bekor ovora qilibsiz, otajon, — dedi Mahmud polvon Oqil boboning koʻnglini koʻtarib.

— Bilaman, sizlar xalqning koʻzga koʻringan, hurmatiga sazovor boʻlgan polvonlarsiz, ammo ozchilikdan koʻpchilik afzal. Shuning uchun bu yigitlar ichida kurash oʻtkazib, kuchlilarini ajratib ol! Bilim-

larini ham tekshir, chunki bu jangda, asosan, chuqur bilim talab etiladi.

— Buyrug'ingiz bosh ustiga. Qani, bo'lmasa, shoshilish kerak, — dedi yigitlarni safga aylana bo'ylab terib. — Hurmatli ukajonlarim, hamma gaplardan xabaringiz bor. Shuning uchun men ortiqcha gapirib o'tirmayman. Musobaqalashishni boshlaymiz. Xafa bo'lish yo'q, har yuz kishidan uchtasini ajratib olamiz. Qolganlar xalq himoyasida qoladi. Kelishdikmi? Chunki xalqimiz ham himoyasiz qolmasligi kerak. Aks holda barcha harakatlarimiz zoye ketadi. Rozimisizlar? Kurashda yengib chiqqanlarning ichida bilimlilar yana ajratiladi, hammaga tushunarlimi?

— Tushunarli. Biz rozimiz, yurt xizmatiga tayyormiz! — deyishdi yigitlar bir ovozda. — Yurtimizning, xalqimizning tinchligini asrash biz uchun eng muqaddas burchdir.

— Rahmat hammangizga. Endi boshlaymiz. Birinchi: ikki kishi-ikki kishi vaznlariga qarab kurash tushadilar, yengilganlar ajraladi. So'ngra bitta kuchli polvonga ikki kishi va keyin bir polvonga uch, keyin to'rt. So'ngra hamma g'olib bo'lgan polvonlar bir-birlari bilan kurash tushib, ular ichidan ajralib chiqqanlarning bilimlari sinaladi. Bilimi kuchlilar biz bilan birga bu mashaqqatli safarga otlanadilar, — deb Mahmud polvon so'zini tugatdi va hammani vazniga qarab kurashga chorladi.

Endi bu polvonlar kurashib turishsin, gapni Maston kampirdan eshitaylik. Shaharda bo'layotgan voqealardan xabari yo'q kampir o'z niyatiga yetganidan xursand bo'lib, tog' tomon yuribdi. Tirmashib, urilib-surilib, emaklab, tog'ning eng ba-

land cho'qqisiga chiqib, hassani yerga urgan ekan, hassa:

— Nima xizmat, buyuring, — deb hamma yoqni tutunga to'ldirib yuboribdi.

— Tutamay ketgur, hozir Oqil qirol saroyining kulini ko'kka sovur va menga shu cho'qqidan hashamatli saroy qurib ber! Saroyga kelish yo'llarini sehrlab qo'y, qush ham uchib o'ta olmaydigan qilib to'sib tashla va Oqil qirol shahrini qo'riqlaydigan dev va ajdaholarni menga bo'ysundirib, saroyimni qo'riqlashga tayinla! — deb o'z zanjiriga o'ralib, qutulish yo'lini topa olmay qolgan it kabi, bor ovozi bilan shang'illabdi.

— Buyrug'ingiz bosh ustiga, shohim, — deya Maston kampirning kuchsiz qo'lidan chiqib, havoda chir aylanibdi hassa.

Maston kampir qo'lining kuchsizligini, qaltirashini his etsa-da, makkorligidan qaytmay, yana hassani ushlab olib, yerga bor kuchi bilan qattiq uribdi va:

— Shahar xalqining yerlarini quritib, ekilgan ekinlarini payhon qil! O'rmon va shaharlarda o'sib turgan daraxtlarning hammasini sehrlab qo'y! Daryo, ko'llarning suvini qurit, shaharda qahatchilik hukm sursin! Shunda ular menga bo'ysunadi va men shahar qiroli bo'laman, keyin ularning hammasi menga itoat qiladi, — deb g'azab bilan hassani siltab, buyruq beribdi, — O'rmondagi hayvonlarni birlariga dushman qil! Barcha qush va hasharotlarni ham sehrlab tashla!

Maston kampir g'azabdan tushib, qaltirashi bosilib, atrofga nazar soldi. Qarasa, o'zidan sal narida

baland, hashamatli qasr paydo bo'libdi va qalbi yovuzlikka to'lib, quvongancha qasr tomon yuribdi.

— Endi mening qirolligim boshlandi. Hamma menga bo'ysunadi. Ha-ha-ha! — deb qasrning eshigidan kirib, ichlarini tekshira boshlabdi, birdan: —

Endi menga oshpaz va xizmatkorlar kerak. Ha, topdim, bularni shahar xalqining ichidan olaman, — debdi va yana hassani yerga urib: — Eshit! Tezlik bilan shahardagi hamma bo'yi yetgan qizlarni qasrimga olib kel! Ular mening xizmatkorim bo'lishadi. Men ulardan ko'ra chaqqonroq xizmatkor topa olmayman, — debdi-da, yana qasrni aylanishda davom eta boshlabdi.

VIII BOB. SAHRODAGI CHO'PON

Maston kampirning bu qilmishlari osmon chirog'i bo'lmish Quyoshga yoqmadi. Shuning uchun o'zini bulutlar orasiga urib, zarrin nurlarini yer yuziga sochishdan bosh tortdi. Hamma yoqni chang, to'zon qoplab, shamol ham g'azabdan yerda qumlarni sochib, ayovsiz o'z hukmini o'tkaza boshladi.

Ezgulik shahrida g'ala-g'ovur boshlandi. Xalq dod-faryod sola boshladi. Oqil boboning qasri o'z-o'zidan yonib, kuli ko'kka sovurildi. Shahardagi barcha bo'yi yetgan qizlarning o'z-o'zidan g'oyib bo'lishi hammani sarosimaga solib qo'ydi. Xalq ichida noroziliklar ko'paya boshladi. Daladagi ekinlar qovjirab, qurib qoldi. Daryo, ko'l va ariqlarda oqayotgan tiniq suvlar oqishdan to'xtab, quridi. Ro'y berayotgan bu hodisalar tez soniyalar ichida kurash maydonidagi Oqil bobo va polvonlarga ham yetib bordi.

— Mana, yovuzlik boshlandi, bolalarim, tezroq harakatga tushishimiz kerak. Mahmud bolam, saralab olingan polvonlarni olib yo'lga tush! Men xalqni tinchitib, orqalaringdan yetib boraman, — dedi Oqil bobo Mahmud polvonga murojaat qilib. — Alqissa, dillaringda faqat ezgulik bo'lsin, shunda sizlarga yovuz sehr ta'sir qilmaydi. Men voqealarning shunday tus olishini taxmin qilib, omborxonaga bir necha yilga yetadigan suv va oziq-ovqat g'amlab qo'yganman. Sizlar uchun ham yuz kishiga yetarli safar ozuqasi va yerto'la g'oridagi ezgulik ko'lining sehrli suvidan meshlarga solib qo'yganman. Bu suvning xususiyati shundaki, kim undan bir qultum ichsa, uch kungacha chanqoq nimaligini unutadi. Agar sehrlangan daraxtga quyilsa, u jonlanib, sehrdan xalos bo'ladi. Qolganini safar davomida bilib olasizlar. Sizlarga Yaratganning o'zi madadkor bo'lsin, bolalarim.

— Rahmat, otajon. Doim yurtimiz va xalqimiz baxtiga sog'-omon bo'ling. Xotirjam bo'ling. Biz yurt o'g'lonlari xalqimizni bu yovuzlikdan qutqarib, ozod etamiz, — dedi Mahmud polvon barcha polvonlar nomidan, Oqil bobo bilan xayrlasha turib.

— Ha, aytganday, sizlarga yana bir qayg'uli xabar: shahrimizdagi barcha bo'yi yetgan qizlarimizni ham Maston kampir olib qochibdi. Unutmanglar, bizning malikalarimiz uning qo'lida asirlikda, har qadamda o'ylab ish tutinglar! Mana bu ezgulik kitobi, bunda sizlar uchun kerakli maslahatlar bor va shahardan chiqqaningizda sahroning quyosh chiqish tomonida bir cho'pon bor. Birinchi bo'lib unga uch-rashinglar va sizlarni men yuborganimni aytib, unga ezgulik kitobini ko'rsatinglar, shahardagi voqealarni

soʻzlab berib, mana bu xatni beringlar! Sizlarga uning yordami albatta tegadi, — deb Oqil bobo qoʻynidan Mahmud polvonga bir xat olib uzatdi va kurash binosini tezlik bilan tark etib, xalq yoniga borishga shoshildi.

Mahmud polvon boshchiligidagi yuzga yaqin saralangan polvonlar tayyorlangan otlarga safar xurjunlarini yuklab, kerakli qurol-aslahalarni olib, oʻzlari ham otga mindilar va yovuzlikka qarshi kurashish uchun, ezgulikni dilga tugib yoʻlga tushdilar. Polvonlar otlariga qamchi bosib, tezda shahardan sahroga chiqib oldilar va quyosh chiqadigan tomonga qarab ot choptirdilar. Uzoq yoʻl bosganlaridan soʻng bir baland tepalikka yaqinlashdilar. Sahrodagi oʻsib turgan oʻt-oʻlanlar ham qovjirab, soʻlib qolgan edi. Quyosh nuridan esa darak yoʻq, hamma yoq chang, toʻzon. U yer-bu yerda qushlarning alamli sayrashi va onda-sonda chumolilar toʻdasi uchrab turadi. Bir payt polvonlarning qulogʻiga past ovozda ozorli chaqiriq eshitildi:

— Ey, polvonlar sardori, menga qara, senda muhim gapim bor.

Mahmud polvon otidan tushib, pastga egilib qaragan edi, oyogʻi yonida bir chumolining gapirayotganini koʻrdi. Chumoli:

— Sizlar izlayotgan choʻpon huv anavi yerda, — deb ikki oyogʻida tikka turib, oldingi oyoqlari bilan bir tomonni ishora qilib koʻrsatdi. Polvonning koʻzi katta suruv qoʻylarni boqib yurgan choʻponga tushdi. Shunda Mahmud polvon chumoliga:

— Rahmat senga, chumolijon, bizga yoʻl koʻrsatding, — deb otga minmoqchi edi, chumoli uni yana chaqirib:

— Ey, polvonlar sardori, mening ismim Ishchan. Men barcha chumolilarning podshohi bo‘laman. Agar bizning yordamimiz kerak bo‘lsa, ismimni aytib chaqirsang bo‘ldi, tezda sening xizmattingda bo‘lamiz, — dedi mungli ohangda. — Bu falokat faqat sizlarning emas, bizning ham hayotimizga tahdid solmoqda. Xayr, Yaratgan madadkor bo‘lsin!

— Senga ham xayr, chumolilar podshohi Ishchan, — deya Mahmud polvon otiga bir sakrab minib, polvonlarga:

— Do‘stlarim, sizlar shu yerda kutib turinglar, men o‘zim tez borib, cho‘ponga Oqil boboning xabarini yetkazay, — deya polvonlarni baland tepalik yonida qoldirib, cho‘pon tomonga otini qamchilab, choptirib ketdi.

Mahmud polvon bir necha soniyada qo‘y boqayotgan, yoshi yuzdan oshgan bo‘lsa-da, hali qad-qomati tik, yuzi nurli, boshiga oq salla, egniga oq yaktak, oyog‘iga xrom etik kiygan, pahlavon kelbat cho‘ponning yoniga yetib borib:

— Assalomu alaykum, otaxon, hormang! — dedi odob bilan qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, xatni cho‘ponga topshirib. — Choshga baraka, suruvga baraka.

— Vaalaykum assalom, umringga baraka. Tani-mayroq turibman, kim bo‘lasiz, o‘g‘lim? Qaysi shamol uchirdi biz tomonlarga? — so‘radi cho‘pon ham salomga yarasha javob bilan.

— Oqil bobodan sizga salom olib keldim. Sizga uchrashishimni aytdilar.

— Salomat bo‘lsinlar, qirolimiz o‘zlari yaxshimilar? Nima sababdan menga uchrashishni aytgandilar? Doimo qirolimizning xizmatidamiz.

— Xalq boshiga kulfat tushdi. Shahrimizda yovuzlik shamoli esmoqda, xatni o'qisangiz bizning so'zimiz haqligini bilursiz.

— Shunday go'zal, tinch mamlakatda qanday yovuzlik bo'lishi mumkin yoki Manman kitob birovning qo'liga tushib qoldimi?

— Siz ham uni bilasizmi? Ha, u Maston kampir sabab, ozodlikka chiqib, hozirda ham uning qo'lida, — deb Mahmud polvon Cho'pon otaga mahzun tikilgancha ezgulik shahrida bo'lgan barcha voqealarni so'zlab berdi.

— Quyosh osmonda ko'rinmay, hamma yoqni chang-to'zon qoplaganidan bu hodisalar yaxshilik belgisi emasligini ko'nglim sezgandi. Ha, o'g'lim, Manman kitobni bilaman. Uning ozodlikka chiqqanligi katta musibat, — dedi o'y-xayolga cho'mib. — Bir paytlar, ya'ni bundan chamasi sakson yillar oldin Manman kitobni mana shu Maston kampirning onasi olib qochib, xalqning boshiga ko'p kulfatlar yog'dirgan edi. Maston kampir ham onasiga tortibdi-da. O'zing kimsan, kimning o'g'lisan? Ota-onang bormi?

— Men, otaxon, Sodiq pahlavonning o'g'liman. Ismim Mahmud. Hozirda shahardagi barcha polvonlarga boshchilik qilaman.

— E, Sodiq pahlavonning o'g'limisan? Otang rahmatlini juda yaxshi bilaman. Juda kuchli polvonlardan edi. U mening eng yaqin do'stim edi. Sodiq polvon bilan ko'p kurashlarda birga bo'lganmiz. Mayli, o'g'lim, hozir bu gaplarning mavridi emas, tezroq harakat qilishimiz kerak. Aks holda ko'p narsani boy berib qo'yamiz. Bizga Ezgulik kitobi kerak.

— Kitob shu yerda, Oqil bobo berib yuborgan edilar. Bizga bu kitobning nima yordami tegadi?

— Uning ko‘p yordami tegadi, chunki bu kitob hikmatlar to‘plamidir. Har narsaning dushmani bo‘lganidek, yovuzlikning dushmani ezgulikdir. Ezgulik bor yerda yovuzlik, albatta, taslim bo‘ladi. Faqat aql bilan ish qilish lozim! Endi, Mahmudxon o‘g‘lim, o‘zing bilan kelgan polvonlarni chaqir, maslahatlashib olamiz!

— Xo‘p bo‘ladi, otaxon, tezda borib do‘stlarimni boshlab kelaman.

— O‘g‘lim, men anavi g‘orda bo‘laman. Mening kulbam o‘sha yerda, — dedi cho‘pon qo‘lini cho‘zib, barmog‘i bilan uncha uzoq bo‘lmagan baland tepalik pastiga ishora qilib.

Mahmud polvon otiga bir sakrab mindi-da, qamchini bosib, do‘stlari tomon otini choptirib ketdi.

Endi polvonlar yig‘ilishib, maslahatlashib turishsin, voqeaning davomini Maston kampirdan eshitaylik.

IX BOB. MASTON KAMPIRNING SEHRLI QASRI

Maston kampir o‘zining hashamatli qasrini ko‘zdan kechirib bo‘lgach, o‘zida yo‘q xursand bo‘ldi. Bir payt qarasa, kattagina xonada yuzga yaqin yosh, bo‘yi yetgan, bir-biridan go‘zal qizlar yig‘lab o‘tirishibdi. Maston kampir ularga qarab:

— Ha-ha-ha, mening xizmatkor cho‘rilarim, ko‘zyosh to‘kishni bas qilinglar! Endi mening xizmatimni qilasizlar! Qaysi biringiz bosh tortsangiz, qasrni qo‘riqlaydigan ko‘ppakka aylantirib, qasr yo-

niga bog'lab qo'yaman va hech qachon o'z holatingizga qayta olmaysizlar, tushundinglarmi? — deb baqirib, qizlarga og'zidan chiqib turgan qoziq tishlarini ko'rsatib kuldi-da, — Endi esa qasrni yog' tushsa yalagudek qilib tozalanglar, qochishni xayolingizga ham keltirmanglar! Bu yerdan hech kim qochib keta olmaydi.

— Iltimos, bizni ko'ppakka aylantirmang! Biz hamma xizmatlaringizni ko'nglingizdagidek qilamiz, — dedi Zumrad ismli bir qiz, barcha Maston kampirdan qo'rqqanidan oyoq-qo'li dag'-dag' titrab turgan qizlarning nomidan.

— Ha, shunday bo'lsin! Seni tanidim, sen Mahmud polvonning sevgilisi Zumradsan. Sen kitob o'qishni yaxshi ko'rarding, senga ko'p bilim berganman. Endi Mahmuddan umidingni uz, mabodo u qasringa yo'laguday bo'lsa, uni o'zim ayiqqa aylantirib, bir umrga o'rmonga badarg'a qilaman. Sen bugundan boshlab barcha xizmatkorlarga bosh bo'lasan va faqat menga itoat qilasan, — debdi va barcha qizlarni xonadan chiqarib, qasrni tozalashga buyurdi. So'ng qo'lidagi hassasini yerga urgan edi, hassa yana tilga kirib:

— Xizmatigingizga tayyorman, buyuring! — dedi, avvalgidek hamma yoqni tutunga to'ldirib.

— Mening qasrim eshiklarini shunday mustahkamlaginki, ularning ochilishi sirli bo'lsin! Eshigingga eng kuchli ikkita devni qorovul qilib qo'y! Undan keyin mening jonimni bir tuxumga joylab, uni taxtimning tagiga shunday yashirginki, uni hech bir jon topa olmasin! — deb buyurib, paxmoq sochlarini to'g'rilagan bo'ldi. — Ha, yana menga mamlakatni kezib chiqish uchun osmonda uchadigan bir

arava yasab ber, bu uchar aravaga bir tugma o'ratginki, uni bosganda arava juda kichkina holatga kelsin, yana unga shunday oyna joylashtirginki, men undan dunyoda bo'layotgan barcha voqealarni ko'rib turay.

Oradan uch soniya o'tmasdan Maston kampir aytgan uchar arava oyog'i ostida paydo bo'ldi. Maston kampir uni yaxshilab tekshirib ko'rdi-da, eshigi yonidagi tugmani bosgan edi, uchar arava bir zumda cho'ntakka ham sig'adigan kichkina bir matohga aylandi. Maston kampirning aravadan ko'ngli to'ldi-da, o'tiradigan taxtining ostini ko'tarib qaradi. Uning ostida bir quticha turardi. U shoshib qutichani ochmoqchi bo'ldi, ammo ocholmadi. Uning bu harakatini kuzatib turgan sehrli hasa:

— Bu oddiy quti emas, sehrli. Sen unga „Shirin jonim“ deb uch bora aytishing kerak. Shunda u ochiladi, — debdi devorga suyak qo'yilgan joydan osmonda bir aylanib.

Maston kampir:

— Yaxshi-yaxshi. Shirin jonim, shirin jonim, shirin jonim, — deb hassaning gapini takrorlagan edi, shu zahoti quticha ochildi. Uning ichidagi tuxumni ko'rgach, yana qutichani sekin yopib, taxtining tagiga yashirib qo'ydi. Keyin qolgan buyruqlarining bajarilgan yoki bajarilmaganligini ko'rish uchun, qo'liga hasa tutgancha, qasrning eshigi tomon yurdi va eshik yoniga nazar soldi. Buyurganidek ikkita barzangiday dev eshik yonida qilichini chiqarib, xizmatga shay turganini ko'rgach:

— Yashanglar, azamatlarim! Eshikdan mening ruxsatimsiz bir qush ham o'tishi yoki chiqishi mum-

kin emas. Agar e'tiborsizlik qilsangiz, umringizda tatib ko'rmagan jazo bilan sizlarni jazolayman! Sizlarning taomingiz har biringizga bittadan qo'y bo'ladi, faqat menga chin dildan xizmat qilishingiz kerak, tushunarlimi? — dedi-da, qasrdan pastroqda joylashgan kattagina qo'raga ishora qildi. — Ana shu qo'rada qo'ylar bor, bugun shulardan ikkitasi sizlarga ozuqa.

— Xo'p bo'ladi, — deyishdi bir ovozdan devlar, qo'rquvdan oyoq-qo'llari qaltirab, katta gavdalarini bukchaytirib.

Xotirjam bo'lgan Maston kampir yangi rejalar haqida o'ylay boshladi. Qorni och qolganini sezib, qasr oshxonasi tomon yurdi-da:

— Zumrad, hoy Zumrad, — deb baqira boshladi. U shunday qattiq baqirdiki, hatto qasr devorlari zirillab ketdi. — Qayerdasan, qornim ochdi, menga ovqat olib kel!

— Xo'p bo'ladi, — degan ovoz eshitildi-yu, qasrga olib kelingan qizlar birpasda Maston kampirning dasturxoniga har xil taomlardan bir necha xilini olib kelishdi.

Endi Maston kampir qornini to'ydirib tursin, gapni Oqil bobodan eshitaylik.

X BOB. QASR OSTIDAGI YERTO'LA

Oqil bobo polvonlarga oq fotiha berib jo'natgach, qolgan barcha yigitlarni olib, ko'ngli yurtining boshiga tushgan bu musibatdan qanchalik cho'ksa-da, albatta, yovuzlik ustidan ezgulik g'alaba qozonishiga ishongan holda, to'g'ri xalq yig'ilgan maydonga yetib bordi va:

— Mening sabrli, mehnatsevar, bir-biriga mehribon xalqim, qayg‘urmanglar! Sabr qilinglar, tez kunda bu yovuzlikni yengib, yana hurriyatni qo‘lga kiritamiz. Mana, hozir yuzga yaqin farzandlarimiz bu yovuzlikni yengishga bel bog‘lab, kurashga otlanishdi. Bundan tashqari, bizning qo‘limizda Ezgulik kitobi ham bor. Sizlar ham qalbingizni ezgulik bilan to‘ldirib, sabr qiling, shundagina biz g‘alabaga erishamiz, — dedi qat’iy ishonch bilan, xalqni tinchlantirib.

— Biz sizga ishonamiz, Yaratgan nasib etsa, polvonlarimiz, albatta, g‘alaba bilan kelishadi. Muhtaram Oqil bobo, Maston kampir butun boshli shahrimizni sehrlab qo‘ydi, uyimizga kira olmayapmiz, eshiklarimiz berkilib qolgan, shahrimizni qo‘riqlaydigan dev va ajdaholarning hammasi Maston kampirga bo‘ysunib, uning xizmatini qilib yurishibdi, — dedi yoshi ancha keksayib qolgan Sodiq bobo. — Yana yaqinda shahrimiz osmonida devlarning sardori Qora dev uchib yurib, hamma yoqqa jar solib yurgan emish.

— Nima deb jar solib yurgan ekan? — so‘radi Oqil bobo va so‘zida davom etdi. — Maston kampir ularni ham sehr bilan o‘ziga bo‘ysundirib olgani aniq! Ular baribir xalqimizni yaxshi ko‘rishadi. Ular doimo bizlarga do‘st bo‘lib, yurtimiz uchun ko‘p yaxshiliklar qilishgan. Yaratgan nasib etib, yovuzlikning dumi qirqilsa, ular yana biz bilan do‘st bo‘lishadi.

— Kimki Maston kampir tomonga o‘tsa, sog‘omon qolishi, o‘tmaganlarning hammasi Maston kampirning zindonida chirishini aytib, jar solib yurgan ekan. Shuning uchun xalqimiz ichida tu-

shunmovchilik yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari, shahrimizdagi hamma bo‘yi yetgan qizlarni Maston kampir olib qochib ketgan, bu qayg‘u xalqni juda tushkunlikka solib, esankiratib qo‘ydi. Daryo, ko‘llarimiz qurigan, ekinlarimiz qovjirab qolgan. Xalq och, qanday yo‘l tutishni bilmayapti.

— Hammasini ko‘rib, eshitib turibman. Iloj qancha, sabr qilishga majburmiz. Polvonlarimizdan saralab, ularni Maston kampirga qarshi kurash uchun yubordik. Ular, albatta, qizlarimizni sog‘, omon olib qaytishadi, degan umiddaman.

Oqil bobo Sodiq boboni yoniga chaqirib, past ovozda:

— Sodiq bobo, men bir narsani o‘ylab qo‘yganman. Hozir xalqning ichiga kiring va shunday xabar yuboring: shahar aholisi kech tushishi bilan bo‘linib-bo‘linib qasrning orqa tomoniga o‘tsin! Chunki hamma kunduzi birdan borsa, Maston kampir sezib qolishi mumkin. Siz ularga boshchilik qiling! Men sizlarni o‘sha yerda kutaman, — dedi.

Oqil bobo xalqni tinchlantirib, o‘zi qasr orqasi tomon jadallik bilan yurib ketdi. Qasr vayronaga aylangan, u yiqilib, tosh-g‘ishtlari har tomonga sochilib ketgan edi. Qasrning orqasida yer ostiga tushadigan bir eshik bor bo‘lib, uni faqat Oqil bobo bilar edi. Yerto‘laning eshigi sirli bo‘lib, boshqaruv uskunasi yordamida ochilardi. Yerto‘laning ichi juda keng, bir shahar kattaligicha kelardi. U yerda Oqil boboning maxsus xizmatkorlari bo‘lib, ular juda itoatli edi. Ularning yoshi ancha ulug‘ bo‘lib, eng keksalarining yoshi mingdan oshgan edi. Lekin ularni ko‘rgan odam hech qachon keksayib qolgan demasdi. Chunki ular „EZGULIK“ bulog‘ining su-

vidan ichishgan edi. U paytlarda bu buloqdan suv ichganlar hech qarimas edilar. Doim yosh, ko'zlari o'tkir, qo'l-oyoqlari chaqqon, baquvvat yurishardi. Buloq suvi odamlarga abadiy hayot berar edi. Uning suvini ichganlar ikki ming yildan ortiq umr ko'rishardi. Bora-bora buloqning bu kuchi yo'qolib, faqatgina bir xususiyati qolgan, ya'ni uning suvini ichgan odam ancha vaqtgacha chanqamay yura olardi.

Hozir bu buloqning ko'p umr ko'rish xususiyatiga ega bo'lgan vaqtda suvini ichgan odamlardan juda oz qolgan edi. Bu yerto'la aslida Oqil boboning avlodidan avlodiga o'tib kelgan meros edi. Qachon yurt boshiga bir falokat kelsa, xalq doim shu yerto'lada jon saqlar edi. Bu yerda yashash uchun hamma sharoit mavjud bo'lib, hatto shahar aholisiga yetadigan xonalar ham bor edi.

Oqil bobo endi bu yerto'laga xalqni joylashtiraversin, gapni cho'pon va polvonlardan eshitaylik.

XI BOB. G'ORDAGI MASLAHAT

Mahmud polvon o'z sheriklarining oldiga borib, ularni cho'pon aytgan joyga boshlab bordi. Cho'pon ularni g'or eshigi oldida kutardi. Polvonlar yetib kelishi bilan:

— Assalomu alaykum, azamatlar, kelinglar. Boshlagan ishlaringizga Yaratgan madad bersin. Yurt ozodligi uchun bel bog'lab yo'lga chiqibsizlar, hech qachon kam bo'lmanglar, — deya g'or eshigini ochdi. — Otlaringiz bilan kiraveringlar! O'ng tomonda otxona bor, shu yerga otlaringizni bog'lab, so'ng chiqib chapga yuringlar, o'sha yerda maslahatlashib olamiz. U yerda yashash uchun hamma sharoitlar bor.

Polvonlar g'orga otlari bilan birin-ketin kirib, cho'pon aytgan otxonaga otlarini bog'lashdi. G'or juda katta bo'lib, o'ng tomonida otxona, chap tomonda esa, molxona, to'g'rida yana uzun yo'lak bor edi, bu yo'lakning ikki chetida fonus chiroqlar yonib turardi. Polvonlar mana shu yo'lak bo'ylab yurib, yashaydigan xonalari tomon yo'l olishdi. Ular ikki qator saf tortgancha, kattagina bir xonaga kirishdi. Xona juda yorug' bo'lib, to'rt burchagida to'rtta katta fonus chiroq atrofni yoritib turardi. Xona devorlari bir tekis bo'lib, bo'rtib chiqqan toshlar ham tekis kesilgan, ularning ranglari esa devorlarni bezab turardi. Tashqarining chang-to'zoni va sahroning jaziraması odamni charchatsa, xonaning salqinligi, aksincha, tanaga rohat baxsh etardi. Hamma polvonlar joylashib olganlaridan so'ng cho'pon so'z boshladi:

— Mening polvon o'g'illarim, bugun yurt boshiga og'ir kun tushgan, yurt osmonida qabihlik tutunlari uchib yuribdi. Mamlakatning sizday jasur, botir, dovyurak va qo'rqmas o'g'lonlari bor ekan, albatta, Yaratgan egamning bizga madadi kelgay. Buning uchun qalbda Vatanga muhabbat, xalqqa sadoqat va Yaratganga itoat bo'lishi lozim. Bunday qalbda ezgulik daraxti bo'y cho'zadi va qabihlikning tomiri kesiladi. Qalbga ezgulik urug'ini ekib, uni parvarishlasak g'alabaga erishamiz, xalqimizni va yurtimizni ozod etib, istiqloлга erishamiz. To'g'rimi, bolalarim! — dedi xonada aylana shaklda o'tirgancha so'ziga quloq tutgan polvonlarga bir-bir ko'z tashlab.

Polvonlar:

— Barcha aytganlaringiz to'g'ri, otajon. Biz ham ezgulikni dilga tugib yo'lga chiqdik. Bizning shio-

rimiz tinchlik va ozodlik. Vatanimizga bo'lgan muhabbatimiz cheksizdir. Uning har siqim tuprog'i bizga oltindan qimmat, — deya bir ovozdan, ko'kraklarini kerib, mushtlarni tuggan holda javob berdilar.

— Barakalla, o'g'lonlarim, hech qachon kam bo'lmanglar, doim yurt va xalqim deb yonib yashanglar. Bugun kechasi yo'lga tushamiz va kechqurun yurib, kunduzi dam olamiz, chunki kunduzi Maston kampir shaharni kezib yuradi, u hozir o'ziga bir g'aroyib arava yasab olgan. Uchar aravada ko'kda uchgancha oynasi orqali yon atrofni kuzatib turishi mumkin. Agar bizni sezib qolsa, rejalarimiz barbod bo'ladi. Men buni Ezgulik kitobining o'rtasidagi sirli oyna orqali ko'rdim. Hammangiz bir-biringizga doimo mehrli va e'tiborli, bir tan-u bir jon bo'linglar! — deya uning so'zlarini eshitib, bilagidagi kuchini Vatan tinchligi uchun sarflayman, deb turgan polvonlarga g'urur to'la ko'zlari bilan qaradi-da, yana so'zida davom etdi. — Bir-birlaringizga bo'lgan muhabbat va hurmat kuchli bo'lsa, sizni hech qachon sehr ham, boshqa kuchlar ham yenga olmaydi. Bu Maston kampirni yengish uchun faqatgina kuch emas, ilm ham kerak. „Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni“, degan xalq maqoli bejiz aytilmagan.

— Maston kampirning nima qilayotganligini biz bilib tursak, uni yengishimiz shuncha oson kechadi. Buning uchun biz u haqda to'liq ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak, ota. Chunki dushmanning ichki sirini bilsak, uni qo'lga tushirish ham qiyin bo'lmaydi. Agar malol kelmasa, bizga uning saroyi va yashash tarzi haqida ham xabar bersangiz, — dedi

polvonlarning ichidan Said ismli bo'yi baland, yuzi bug'doyrang, dehqonkelbat polvon o'rnidan hurmat bilan turib.

— To'g'ri, juda to'g'ri taklif, — deya bir ovozdan uning gapini ma'qullashdi boshqa polvonlar ham.

— Ma'qul, ma'qul, — deb cho'pon ota devor tok-chasida turgan Ezgulik kitobini qo'lga oldi. Uning o'rtasini ochib, sirli oynadan Maston kampir haqidagi ma'lumotni ko'rsatishini iltimos qildi.

— Ey, ichi ezguliklarga to'la kitobim, ilm xazinasini va yaxshilarning do'sti, bizga sirli oynangdan yovuz Maston kampirning jami sirlarini ko'rsat!

Shu zahoti Ezgulik kitobining oynasidan ajib nur taralib, polvonlar turgan xonani shunday yoritdiki, o'tirganlarning ko'zlari qamashdi va oynada Maston kampirning sirlari haqidagi barcha ma'lumotlar: Maston kampirning kitobni qo'lga kiritgani, yulg'un daraxtidan hassa yasagani, o'ziga hashamatli qasr qurdirgani, Ezgulik mamlakatining qo'riqllovchilari bo'lmish jamiki dev va ajdaholarni sehr bilan o'ziga og'dirib, shahardagi hamma bo'yi yetgan qizlarni o'ziga xizmatkor qilib olgani, o'zining jonnini tuxumga joylashtirgani, tuxumni sirli qutichaga solib, taxtining tagiga yashirgani-yu, Manman kitobni qayerga berkitganigacha bo'lgan xabarlar paydo bo'ldi.

— Hammasi ravshan, yovuzlik kundan kunga kuchaymoqda, unga qarshi zudlik bilan kurashmoq darkor. Yovuzlikka qarshi ezgulik bilan va o'ylab, reja asosida ish ko'rmoq lozim. Aks holda, Yaratgan saqlasin, yovuzlik baland kelmog'i mumkin. Avvalo, qasrni qo'lga kiritmog'imiz kerak! — deya polvonlardan biri gap boshladi.

— Yo‘q, yo‘q, aslo bunday emas. Biz birinchi bo‘lib o‘z tanasidan hassalik uchun shoxini bergan yulg‘un daraxtini topmog‘imiz kerak, chunki hassani qo‘lga kiritsak, g‘alaba biz tomonda bo‘ladi, — deb unga qarshi chiqdi oldinroq o‘rtaga maslahat tashlagan polvon Said ismli polvon.

— Ha, eng to‘g‘ri yo‘l shu. Bu, polvon bolam, sening aqling ancha o‘tkir ekan. Abdusodiq olimning o‘g‘li emasmisan? Bizning tengqurlar ichida Abdusodiq aqlli, hozirjavob edi, ko‘rinishing ham unga ancha o‘xsharkan, — dedi cho‘pon ota Saidning gapini tasdiqlab.

— Fahmingizga qoyil, ota, men Abdusodiq olimning o‘g‘liman. Otam doim: „Har bir ishning tomirini va boshini ushlash kerak. Shunda ishing chiroyli bitadi, har ishni Yaratganning ismi bilan boshlab, uni bitkazishni oson va foydali tomoniga e‘tibor qaratmog‘ing lozim“, deyдилar.

— Ha, Abdusodiq oshnamiz ilm olishda bardavom edi, ilm sohasida (Yaratgan rahmatiga olgan bo‘lsin) juda olg‘ir edi, bir eshitgan ilmni eslab qolar va uni yaxshilab o‘rganmaguncha tinib-tinchimad, har bir ishni puxta o‘ylab qilardi. Sen otangga tortibsan. Endi, bolalarim, biz otlangan yo‘l juda xatarli, har qadamimizni o‘ylab bosmas ekanmiz, tuzoqqa tushib qolishimiz mumkin. Buning uchun har bir ishni maslahat bilan qilish kerak! Bolalarim, qalblaringizni kibrdan, manmanlikdan, o‘zbo-shimchalikdan saqlang, chunki ezgulik yo‘liga otlangan insonlar bu yomon illatlardan yiroq bo‘lishi shart! Qalbida bir tomchi yomon illat bor bo‘lgan kimsa bu yo‘lda halok bo‘lishi shubhasiz! Bu yo‘lga chiqqanlar Yaratgandan qo‘rqib, undan yordam so‘-

ramoqlari lozim bo'ladi. Ilm borasida manmanlik ketmaydi, ilmga amal qilish bilan uning haqqi ado etiladi. Hozirda bizga dushman bo'lib turgan Maston kampir yaqingacha hammamizning ustozimiz edi, butun mamlakat ahli uni ustoz deb bilib, hurmat qilardi, qalbida manmanlik paydo bo'lib, o'zbo-shimchalik qildi va hammaning nafratiga uchradi. Inson hech qachon olgan ilmi bilan g'ururlanmasligi va ilmini yurtining foydasi uchun, xalqining hayotini farovonlashtirish uchun sarflamog'i lozim. Ilmni yomonlikka ishlatgan insonlar, albatta, oxiri xorlikka uchraydi.

Aziz bolalarim, sizga yurtingiz ishondi, sizlar bu ishonchni oqlashingiz va yurtingizni yovuzlikdan qutqarib, yorug'likka chiqarishingiz kerak, shuning uchun, bu yo'lda qalbni barcha yomon illatdan tozalab, so'ngra yo'lga chiqmoq lozim bo'ladi, aks holda bir kishini niyati o'zgarib qolsa, hamma halokatga yo'liqishi muqarrar, Yaratganning o'zi asrasin! Bolalarim, vaqtimiz juda oz, qabihlik palak yozmasdan, uning tomirini quritish lozim. Bugun quyosh botishi bilan yo'lga otlanamiz. Hammangiz qalbingizdagi yomon illatlarni quvib, gunohlarga tavba qilib, yaxshi niyat bilan safarga tayyorgarlik ko'ringlar va doimo bir-birlaringizni hurmat qilinglar! Safarda bir tan, bir jon bo'lib, bir-birlaringizga ko'z-quloq bo'linglar. Bolalarim, birlashib yuringlar! „Birlashgan o'zar — birlashmagan to'zar“, deb bejiz aytilmagan. Endi biroz vaqt bor, dam olinglar, so'ng tayyorgarlikni boshlaymiz! — deya cho'pon polvonlarga ruxsat berdi.

Polvonlar safar tayyorgarligini ko'rib turishsin, endi gapni Maston kampirdan eshitaylik.

XII BOB. ZUMRADNING SEHRLANISHI

Shohona bezatilgan dasturxonda ishtahani ochuvchi yoqimli hidlari bilan o'ziga chorlovchi ovqatlarni ko'rgan Maston kampir, yemakxonaga qo'yilgan yumshoq o'rindiqda o'tirib, ovqatlarni to'kib-sochib, apil-tapil, shoshib yeyishga kirishdi. Uzoqdan uning taomlanishini ko'rgan odam cho'chqa ovqatlanyapti, deb o'ylardi. Chunki qalbda manmanlik urug'i nish urib, o'sgani sayin ovqatlanish odobidan zarracha ham qolmagandi. Ilgari odob-axloqda Maston kampirga hech kim yeta olmasdi. Barcha undan odob o'rganardi, qaysi sohada bo'lmasin, har ish odobini, ta'limini undan olardi. Maston kampirning hozirgi xulqini ko'rgan inson uni tanimasdi, yuzi biroz o'xshasa-da, ammo odobi mutlaqo o'xshamasdi. To'kib-sochib ovqatini yeb bo'lgach, Maston kampir eshik yonida xizmatga shay turgan Zumradni ko'rmay, qo'li va og'zi atrofidagi ovqat qoldiqlarini ko'ylagining yengiga artib:

— Zumrad, hoy, yer yutkur, — deya ko'zlari olazarak bo'lib, hiqichoq tutib, dodlab baqira boshladi.

Eshik yonida turgan Zumrad:

— Labbay, men shu yerdaman. Nima xizmat-ingiz bor, — dedi qo'lini ko'ksiga qo'yib, Maston kampirning og'zidan chiqib turgan tishlari va bad-bashara qiyofasidan cho'chib.

— Choy olib kel, choy. Nima, senga o'rgatish-maganmi, dasturxonga ovqat bilan birga choy olib kelishni yo mening tiqilib o'lishimni istaganmiding? Yo ko'ppakka aylanishni xohlaysanmi?

— Yo'q, yo'q, xolajon, meni kechiring, unutib

qo'yibman. Hozir olib kelaman, meni ko'ppakka aylantirmang, iltimos. Bundan buyon har bir ishni o'ylab qilishga so'z beraman.

— So'z berarmish, xato qilishdan oldin o'ylash kerak edi. Kechikding, Zumrad, men xatoni kechira olmayman. Agar kechirsam mening shohligim qayerda qoladi, yo'q, nimadir qilish kerak. Burning bilan qulog'ingni o'stirib, husningga husn qo'shib qo'ysammikin?

— Xolajon, meni ilgari hammadan yaxshi ko'rardingiz-ku, nega endi bitta xatoyim uchun yomon ko'rib qoldingiz? Siz mening eng yaxshi ko'rgan ustozim edingiz, har bir odob-axloqni sizdan o'rganganman.

— Nega yomon ko'rar ekanman? Men seni juda yaxshi ko'rganim uchun, o'zimga o'xshashingni xohlayman-da, chunki mening burun va quloqlarim uzungina-da. Yaxshi shogird ustoziga o'xshashi yoki o'zib ketishi kerak-da, xa-xa-xa-xa...

— Qulog'im bilan burnimni o'stirmang, mayli, boshqa jazo turi bilan jazolang!

— Bu mening eng oddiy jazoyim, o'zim yaxshi ko'rgan yaqinlarimni shunday jazolayman, xursand bo'laver! — dedi-da, Maston kampir o'rnidan sakrab turib, qah-qah otib kulib, hassasini olib, yerga uch bora qattiq urdi va: — Zumradning qulog'i va burnini menikiga o'xshatib o'stir, xa-xa-xa-xa... — deb hassasiga buyurdi.

Shu onda xonani tutun qoplab, hech narsani ko'rib bo'lmay qoldi, xonani Zumradning qichqirig'i tutib ketdi.

— Voy-voy, burnim, voy, qulog'im, — deya bir qo'li bilan burnini va bir qo'li bilan qulog'ini ush-

lab, oyna tomon yugurdi. Oynada o'z aksini ko'rib, dod solib yig'lay boshladi...

— Bo'ldi, yig'lashni bas qil, choy olib kel! Bo'l-masa, hozir ko'ppakka aylantirib qo'yaman, keyin afsus qilasan, kech bo'ladi. Choyni tezroq olib kel, ko'ppakka aylangur, — dedi Maston kampir Zumradning dod-voyiga parvo qilmay, buyruq berishda davom etib.

Zumrad ko'ppakka aylanishidan qo'rqib, shoshganicha choy olib kelish uchun oshxona tomon ketdi. Oshxonaga borgan Zumradni ko'rgan xizmatdagi qizlar har tomonga qocha boshlashdi. Zumrad ularni tinchlantirib:

— Men Zumradman, qochmanglar! Meni bu ko'yga Maston kampir soldi, birgina xatoyim uchun, ovqat bilan birga choy olib bormaganligim uchun, dugonajonlar, juda ehtiyotkor va e'tiborli bo'linglar, yana mening holimga tushib qolmanglar! Bu uning eng yaxshi jazosi ekan, tezroq menga choy damlab beringlar, aks holda meni ko'ppak holatida ko'rishingiz mumkin. Menga yordam beringlar, mendan qochmanglar! — deya dod solib yig'lab, ikki qo'li bilan yuzini va o'sib chiqqan beso'naqay burnini dugonalaridan yashirishga harakat qildi.

Dugonalari bo'lgan voqeani darrov anglab, tezda uning yoniga kelib, unga to'rt choynak, ya'ni ikki choynak sovuq va ikki choynak issiq choyni patnisga qo'yib uzatishdi.

Zumrad va uning dugonalari taqdirga tan berib, Yaratgandan yaxshilik umid qilib, Maston kampir xizmatida yuraverishsin, gapning davomini pahlavonlar va cho'pon otadan eshitaylik.

XIII BOB. YOVUZLIKKA QARSHI YURISHNING BOSHLANISHI

Quyosh o'z xizmatini yoqar-yoqmas o'tab, tog' orqasiga bosh qo'yib, borliqni qorong'ilik qoplab, atrofni fonussiz ko'rib bo'lmaydigan holat qoplab. Maston kampirning sehdidan omon qolgan qushlarning onda-sonda g'amli sayrash yurakni qayg'uga solib qo'yadi. Ammo ularning bu sayrashida ezgulik yovuzlikni yengadi, degan ma'noni anglasa bo'ladi. Safar oldidan barcha polvonlar qorinlarini to'qlab, Yaratgandan yaxshilikni yo'qlab turishganda ular huzuriga cho'pon ota shoshib kelib, Mahmud polvonga yuzlandi va:

— Hammangiz ichi-tashingizni bir xil qilib, qalbingizga ezgulikni to'ldirib, manmanlikni o'ldirib, safarga tayyormisiz, o'g'lonlarim? Kim yurt ozodligi, xalqining tinchligi yo'lida safarga chiqar ekan, u insonga Yaratganning o'zi yor bo'ladi, — dedi.

— Yurtimiz tinchligi, xalqimiz ozodligi yo'lida safarga tayyormiz, ularni xursand, hur-ozod holda ko'rmoqlik bizni shod etar.

— Barakalla, polvonlarim, men ham podani bolalarimga topshirdim, sizlar bilan birga jo'nayman. Ezgulikni qurol qilib, yovuzlikka qarshi kurashmoqlik uchun o'z hissamni qo'shmog'im mening ham farzandlik burchimdir. Bizga „Ezgulik“ kito-bidagi ko'rsatmalar Yaratganning amri ila yo'l ko'rsatur, buning uchun, albatta, uning hikmatlarini tushunadigan ilm lozim. Uning ta'limini Adolat bobo shohimiz Oqil boboga, Maston kampirga va menga o'rgatganlar.

— Maston kampir ham biladimi? Agar u bilsa, bizning g'alabaga erishmog'imiz ancha mushkul bo'ladi, — dedi Mahmud polvon taajjubga tushib, cho'pon otaning gapini bo'lishga majbur bo'lib.

— Yo'q, o'g'lim, aslo unday emas, chunki kimda-kim „Ezgulik“ kitobining ilmini o'rgansa-yu, qalbida bir tomchi kibr yoki manmanlik paydo bo'lsa, olgan ilmi unga foyda bermay qo'yadi. Shuning uchun kitobdagi barcha foydali hikmatlar ham Maston kampirga foyda bermaydi, balki zarariga hujjat bo'ladi. Buning uchun hammamiz faqat ezgulik yo'lida qattiq turmog'imiz shart, agar birortamiz aldansak, Xudo saqlasin, hammamiz halok bo'lishimiz mumkin. Bolalarim, otlaringizni olib chiqib tayyorgarlik ko'raveringlar, yo'lga chiqishga shoshilaylik! Qorong'ilikda yo'l yurib, kunduzlari esa dam olib, Maston kampirning kulbasiga yetib borishimiz lozim.

Cho'pon otaning buyrug'iga bo'ysungan barcha pahlavonlar Mahmud pahlavon boshchiligidagi otxonadan otlarini yetaklab, tashqariga olib chiqishdi. Cho'pon ota ham o'zining eng yaxshi ko'rgan saman otini egarlab, Oqil bobo berib yuborgan oziq-ovqat solingan xurjunni otiga yukladi. „Ezgulik“ kitobini qo'yniga solib, polvonlar safiga qo'shildi va qo'lini duoga ochib:

— Ey, Yaratgan egam, sen yakka-yagonasan, sendan o'zga Yaratuvchi yo'q, sen har narsaga qodirsan! Biz ojiz bandalaringga yordam ber, ezgulik egasi o'zingsan, sendan ezgulik istab, iltijo qilayotgan qullaringni ko'rib turibsan, bizga yordam ber! Biz ezgulik istab yo'lga chiqyapmiz, bizni himoyangga ol, yurtimizni va xalqimizni ozod etish

yo'lida bizga madadkor bo'l, bizga o'zing yovuzlik ustidan g'alaba ato et! — deya Yaratgandan iltijo qilib duo qildi. Barcha polvonlar cho'pon otaga qo'shilib, iltijo bilan duoga qo'l ochishdi.

Duodan so'ng oldinda cho'pon ota va Mahmud polvon, orqadan qolgan polvonlar otga qamchi bosib, oyning g'ira-shira nurida yo'lga chiqishdi. Maston kampirning sehri sababidan cho'ldagi gi-yohlar ham qurib, qovjirab qolgan edi. Osmondan yomg'ir yog'magani sababli yerdagi tuproq mayinlashib, oyoq botadigan darajaga kelib qolgan. Otlar yugurganda tuyoqlari ostidagi tuproq changga aylanib, atrofnı to'zonga aylantirardi. Yurtining ozodligi yo'lida har qadamiga Yaratgandan ajrga ega bo'layotganlari polvonlarning kuchlariga kuch qo'shardi. Polvonlar shu shijoat bilan tinimsiz ot chop-tirib, to tonggacha yo'l yurib, yo'l yursalar ham mo'l yurib, vayronaga aylangan kutubxona atrofıdan boshlangan o'rmonga yaqinlashib olishdi. Shu boshlangan o'rmondan so'ng keladigan sahrođan o'til-gach, Maston kampirning makoniga yetib olishadi. Maston kampir o'rmonni sehrlab qo'ygan, faqatgina sehrning boshlanishiga guvoh bo'lgan ming yildan ortiq umr kechirib, ko'p voqealarning guvohi bo'lgan chinor sehr tuzog'iga ilinmagandi. Chunki u Yaratganning zikridan to'xtamadi, natijada unga sehr o'z ta'sirini ko'rsatmadi. Maston kampirning yovuzligidan xabarsiz qolgan o'rmondagi boshqa ko'p daraxtlar sehr iskanjasida kuyib, ezgulik huquqıdan mahrum bo'lib ulgurgan edi. O'rmondan bir necha chaqirim narıda o'sib, bo'yi bulutlarni ko'zlagan chinor daraxti cho'pon ota va Mahmud polvon boshchiligidagi polvonlarni ogohlantirib:

— Ey, ezgulikni shior qilib, yurti va xalqining tinchligini, shodligini o‘ylab yo‘lga chiqqan yaxshilar, sizlarga bir foydali xabarim bor, — dedi yangroq ovozda, tanasini har tomonga silkitib.

Bu yangroq ovozdan hayratga tushgan polvonlar hayron bo‘lib, atrofga xushyorlik bilan boqishdi. Cho‘pon ota hammani to‘xtashga buyurdi va:

— Kim bu gapirgan, bizlarga qanday foydali xabaring bor? — deb yana atrofga nazar soldi, ovoz kelgan tomonni izlab.

— Bu men — chinor daraxtiman.

— Ovoz bergan, bizga yaxshilikni ravo ko‘rmoqchi bo‘lgan senmisan? Qanday foydali xabaring bor bizga, ey, daraxtlarning ulug‘i?

— O‘rmonga kirmanglar! O‘rmon sehlengan, Maston kampir uni jodulagan. Hammangiz halok bo‘lasiz, mening ostimda kattagina yerto‘la bor, shu yerto‘laga berkinglar!

— Rahmat senga, daraxtlarning ulug‘i! Albatta bu yaxshiliging uchun Yaratgandan ajringni ziyodasi bilan olgaysan, biz yerto‘laga berkinib olsak, otlarimizni nima qilamiz?

— Yerto‘lada sizlarga ham, otlarga ham yetadigan kenglik bor. Endi atrofingga yig‘ilib kelinglar, men sizlarni yerto‘laga yashiraman.

Cho‘pon ota polvonlarga chinorning yonida tezroq nonushta qilib olib, yig‘ilish kerakligini tushuntirdi. Hamma polvonlar chinor atrofiga yig‘ilishganda uning ostida bir eshik ochilib turardi, bu holat barchani taajjubga soldi.

— Hayron bo‘lmanglar, yurtdoshlarim, bu sehr emas, balki Yaratganning ko‘rsatgan marhamati.

Menga sizlarni yashirish buyurilgan. Tezroq yerto'лага kiringlar, marhamat! — deya yana xitob qildi chinor daraxti, barcha polvonlarni o'z ostidagi yerto'лага chorlab.

Chinor ostida ochilgan bu mo'jizaviy eshikdan cho'pon ota va barcha polvonlar-u ularning ot-ulovlari birin-ketin kirishdi. Yerto'la hatto cho'pon otaning g'oridan ham kengroq edi. Otlar uchun og'il-xona va barcha polvonlar uchun alohida xonalar, yemakxona-yu yuvinish xonasigacha muhayyo edi. Cho'pon ota va barcha polvonlar chinor ichiga kirishlari bilan eshik yopilib, avvalgi holatiga qaytdi, ya'ni xuddi eshik yo'qday bo'lib qoldi. Shamol bobo ham Yaratganning izni bilan ohista esib, polvonlarning oyoq izlari ustiga tuproq uyumlarini sochib yubordi.

Endi cho'pon ota va polvonlar yo'l charchog'ini chiqarib dam olaversinlar, gapni Maston kampiridan eshitaylik.

XIV BOB. CHINORNING SODIQLIGI YOXUD MASTON KAMPIRNING XORLANISHI

Maston kampir sehr bilan Zumradning quloq va burnini o'stirgach, ovqatlanib bo'lgandan so'ng inqillab o'rnidan turdi. O'z xonasidagi yer yuzida bo'layotgan voqealarni ko'rsatib turuvchi oyna yoniga kelib:

— Hoy oyna, hoy oyna, meni qilmasdan mayna, men ovqatlangunimcha ne voqealar sodir bo'ldi, xabar ber, — deya oynaga buyruq berdi, so'ng o'z taxtiga asta cho'kib, to'zigan sochlarini tuzatgan bo'lib, oynaga qaradi.

Oynada cho'pon ota va polvonlarning yo'lga chiqqanlari-yu, yo'l yurib kelib, o'rmon yaqinida ko'zdan g'oyib bo'lganlarigacha kuzatib turdi-da, jahl bilan o'rmondan oyog'i kuygan-tovuqday pitillab turib, kallasini to'xtovsiz silkitgancha o'zi ixtiro qilgan mashinasini oldi va qasrdan tashqariga otildi. Mashinasining boshqaruv tugmasini bosib, uni uchishga tayyorlab, qasrni qo'riqlayotgan devlarga:

— Senlar qasrni qo'riqlashni kuchaytiringlar! Agar qasr darvozasidan bir qush uchib o'tsa ham, tiriklay yerga ko'maman, uqdilaringmi? — deya qasrning hamma tomonidan hushyor bo'lishni tayinladi. — Oqil boboning odamlari yo'lga chiqibdi, men ularni tinchitib kelaman.

Devlarni ogohlantirgach, Maston kampir uchar mashinasiga o'tirdi va oynada ko'ringan manzilni mo'ljallab, uchish tugmasini bosib uchib ketdi. Cho'qqilardan oshib, qalin sehrlangan o'rmonlar ustidan uchib o'tdi va uning sehriga bo'ysunmagan chinor yaqiniga yetib keldi. Yerga qo'nish tugmasini bosib, mashinasini yig'ib, qo'yniga soldi. Suvsizlikdan horigan chinor yoniga keldi-da:

— Hoy chinor, hoy chinor, qara, suvsizlikdan tanang qurib, mading qolmabdi-ku, menga bo'ysunganingda bunday xor bo'lmasding! Agar Oqil boboning yo'lga chiqqan odamlari qayerga berkinganini aytsang, senga yordam beraman! — dedi chinor atrofini aylanib, uni qurigan tanalariga ishora qilib.

— Mening tanalarim qurigani bilan qalbim pok. Menga Yaratganning yordami kelib turibdi. Senga o'xshab manmansirab, ilmni xor qilib, zararimga

ishlatmayapman. Yurtimga xiyonat qilmasdan Vatanimga va xalqimga sodiq turibman! Ezgulik yoʻlidagi odamlarning qayerdaligini senga hech qachon aytmayman va shuni ham bilib qoʻyki, men sotqinlik qilmayman, tushundingmi? — deya quriy boshlagan tanalarini silkitdi, — menga Yaratgan egam quvvat beradi...

— Men senga suv beraman, yana gurkirab oʻlasan! Jamiki daraxtlarning shohi boʻlasan, hamma daraxtlarni senga boʻysundirib beraman, faqat menga itoat qilsang va anavilarning qayerdaligini aytsang boʻlgani.

— Hech qachon, hech qachon, qurib-chirib bitsam hamki, senga boʻysunmayman va ularning qayerdaligini senga aytmayman. Sen sehring bilan bi-ror narsaga erishishni istaysan, vaholanki, hech narsaga erisha olmaysan, chunki yovuzlik ustidan ezgulik baribir gʻalaba qozonadi.

— Ezgulik gʻalaba qilarmish, he-he-he... Hech qachon bunga yoʻl qoʻymayman. Seni arralab tashlayman, seni butunlay yoʻq qilaman, ha, yoʻq qilaman, he-he-he-he... Oqil bobongning odamlari boradigan hamma yoʻllarni sehrlab tashlayman. Dev va ajdaholarni ularga qarshi qilib qoʻyaman. Birma-bir ularning qonini ichaman, ha, qonini ichaman...

— Bu sening qoʻlingdan kelmaydi, Yaratgan egam meni ham, ularni ham Oʻzi asraydi...

Bundan gʻazabga mingan Maston kampirning yuragi hapriqib, sehrli hassasini jahl bilan yerga urdi. Hassa Maston kampirning qoʻlidan chiqib, osmon-u falakka uchdi va hamma yoqni changga toʻldirib, yana yerga tushdi-da:

— Buyuring, nima xizmat?— dedi va Maston kampirning yoniga borib, raqsga tusha boshladi...

— Menga mana bu chinorni qulatish uchun arra kerak.

— Bu qo'limdan kelmaydi, chunki bunga mening sehrim ham, kuchim ham yetmaydi. U Yaratgan himoyasidagi daraxt...

— Nega, axir sen hamma narsa qilishni bilaman, deganding-ku!

— Men sehr qila olaman, xolos. Yaratganning xohishiga sehrim yetmaydi. Kim Yaratganning himoyasida bo'lsa, unga mening kuchim yetmaydi, kim kibrli bo'lsa, men uni har ko'yga sola olaman. Agar xohlasang, to'nkaga aylantira olaman.

— Men uni o'zim yanchib tashlayman, ha, o'zim yanchaman, ha-ha-ha, — deya baqirib, hassasini qo'lida tutgancha, yana chinor artofini lo'killab aylana boshladi.

Chinor atrofini aylanaverib charchagach, holsiz o'tirib qoldi-da, maqsadiga yeta olmasligini sezib, ketishga chog'landi, uchar mashinasining tugmasini bosib, mingashib o'tirib oldi-da:

— Men yana qaytib kelaman, sening holingni o'shanda ko'raman. Suvsizlikdan qurib, kuling ko'kka sovuriladi, — dedi chinorga jahl qilgancha baqirib.

— Men sening do'q-po'pisangdan qo'rqmayman. Menga Yaratgan egamdan yordam keladi va albatta, ezigulik yovuzlik ustidan g'alaba qozonadi. Seni xor bo'lgan holda ko'raman, degan umiddaman, — deya chinor ham tebranib qo'ydi.

Quyosh yovuzlikdan yerga o'zining zarrin nurlarini sochishni istamasa-da, o'z vazifasini bajarib, suvsizlikdan qaqragan yer va qurib qolgan daraxt-u

qovjirab qolgan maysalarni yanada kuydirib, o'z qarorgohi tomon yo'l oldi. Maston kampir ham, hech narsaga erisha olmaganidan alam bilan uchar mashinasining uchish tugmasini bosib, o'z qasri tomon parvoz qildi.

Endi Maston kampir o'z yovuzliklari bilan band bo'lib tursin, gapni chinor ichidagi cho'pon ota va polvonlardan eshitaylik.

XV BOB. MASTON KAMPIRNING BUYRUG'I

Quyosh botib, hamma yoqni qorong'ilik qoplab, osmonda bulutlar orasidan g'ira-shira nur sochgan oy yangilanib, o'roq shaklida osmon uzra o'zining nurini sohib, atrofni yoritib turibdi. Chinor ostidagi yerto'ladan g'aroyib eshik ochilib, cho'pon ota boshchiligida polvonlar ot-ulovlarini olib chiqib, safarlarini davom ettirishni maqsad qilib, otlarini egarladilar. Yaratgandan yordam so'rab, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qilishini umid qilgan holda yo'lga tushishdi. Chinor daraxtiga cho'pon ota barchaning nomidan rahmat aytib:

— Ey, daraxtlarning yaxshisi, doim omon bo'l va ezgulikka xizmat qilganing, bizga joy berib, omon saqlaganing uchun senga katta rahmat, — dedi-da, chinorning tagiga ezgulik bulog'idan olingan suvdan bir meshini quydi.

Ezgulik bulog'ining suvi tomiridan to tanasining uchigacha yetib, qurigan shoxlari jonlanib ketgan chinor:

— Sizlarga ham rahmat, ey, yaxshilar! Yaratgan egam o'z panohida asrasin! Men yana hayotga qaytdim, jonim rohatlandi. Mening yonimga bugun Mas-

ton kampir kelgan edi, menimcha sizlarning yo'lga chiqqaningizdan xabardorga o'xshaydi, meni kechgacha avradi, sizlarni so'radi. Endi juda ehtiyot bo'linglar, Maston kampir o'rmonni sehrlagan va sizlarga devlarni, ajdaholarni qarshi qo'ygan. Yo'l xatarli, — deb qattiq tebrangancha cho'pon ota va polvonlarga o'z minnatdorchiligini izhor etdi.

Chinor daraxtiga ham minnatdorchilik bildirib, cho'pon ota va polvonlar yo'lga tushishdi. Ular bir necha chaqirim yo'l yurib o'rmonga yetib kelishdi. O'rmondagi daraxtlar bir-biriga juda yaqin o'sgan bo'lib, yo'l deyarli yo'q edi, bori ham sehrlangan bo'lib, ulardan o'tishning imkoni yo'q edi. Chinorning ogohlantirgani sababli polvonlar o'rmonga kirmasdan to'xtashdi. Shu payt o'rmon ichidan dahshatli qichqiriqlar eshitildi. Qichqiriqlar gulduros qahqahaga aylanib ketdi. Birdan yer qattiq silkindi va polvonlar ro'parasida bahaybat devlar paydo bo'lib, ularning yo'lini to'sishdi. Ularga Qora dev, ya'ni Ajal laqabini olgan dev boshliq edi, bu devni Mahmud polvon yaxshi tanirdi. Chunki u Qora dev bilan bir necha bor kurash tushib, uni yenggan edi. Mamlakatda tinchlik hukm surayotgan paytlarda Qora dev Mahmud polvonni ko'rsa, ikki bukilib, ta'zim qilib o'tardi. Sehrning kuchidanmi, Qora dev bu safar Mahmud polvonni pisand qilmay:

— Ha, polvon, yo'l bo'lsin! Qayoqqa yo'l ol-
ding, yoningga bir to'da qurbaqalarni to'plab? —
dedi ko'kragini kerib, Mahmud polvonning ro'pa-
rasida bahaybat gavdasini ko'z-ko'z qilib.

— Kechagina ta'zim qilib, yengilganingni tan-
olib, mulla mingan eshakdek yurarding, endi Mas-
ton kampirga sotilib, uning sehri bilan kerilib qol-

dingmi? O'zingni tutib ol, aks holda boshingni tanangdan judo qilaman, — dedi Mahmud polvon ham bo'sh kelmay, Qora devni qahqahasiga parvo qilmay.

— Hoy-hoy, polvon, ko'p chiranma, endi sen yenggan Qora dev emasman, bir bilagimning o'zida seni o'ynatib yuboraman, — dedi yana qah-qah otib kulib, og'zidagi beso'naqay tishlarini ko'rsatib.

— Sen o'z yurtingga xiyonat qilib, yovuzlikka xizmat qilmoqchimisan? Sen sehr kuchi bilan ezgulikdan ustun bo'la olmaysan, — deb Mahmud polvon Qora devga qaradi-da, yonidagi qilichini qinidan bir chiqarib qo'ydi.

— Menga baribir, menga o'zimning jonim shirin, hozir sizlar mening dushmanimsizlar, endi jang bo'ladi, biz shunga buyurilganmiz. Ha, ayovsiz jang bo'ladi, Mahmud, men sen bilan kurashaman, qolgan sheriklarim sening sheriklaring bilan.

— Men seni ogohlantirdim, xolos, keyin afsus chekma! Kurashsak kurashaveramiz, unday bo'lsa, joy tanla! Sheriklarim sening sheriklaringni tinchitadi. Qani, ketdik!

XVI BOB. QORA DEVNING YENGILISHI VA DEVLARNING BO'YSUNDIRILISHI

Mahmud polvon devlar bilan murosqa qilishning iloji yo'qligini fahmlab, kurashishga jazm qildi-da, Qora dev tanlagan maydonga qarab yurdi. Qora devning sheriklari ham to'daboshining ortidan ergashdi. O'rmonning janub tomonidan pastlikka tushganda katta yalang maydon bor edi. Kurash uchun shu yer tanlandi. Mahmud polvonning sheriklari bir tomonda

va Qora devning sheriklari ikkinchi tomonda saflani-
nishdi. Birinchi bo'lib Mahmud polvon bilan Qora
dev maydonga chiqishdi. Mahmud polvon o'z yur-
tining ozodligi yo'lida, Qora dev esa Maston kam-
pirning buyrug'iga bo'ysunib kurashga shaylanishdi.

Mahmud polvon beliga belbog'ini mahkam tu-
gib, Yaratganning nomi bilan, undan madad so'-
rab, yenglarini shimarib, keng yelkalarini o'ynatib,
ko'kragini shishirib, mushtlarini tugib, raqib bo'l-
mish Qora dev tomon qadam tashladi. Qora dev
ham Maston kampirning buyrug'i bilan qattiq na'ra
tortib, beso'naqay gavdasini g'oz tutib, yung bos-
gan qo'llarini osmonga ko'tarib, tirnoqlarini bigiz-
day qilib Mahmud polvonga tashlandi. Mahmud
polvon devning hamlasiga chap berib, uning ochiq
qolgan biqiniga qattiq musht tushirdi. Kutilmagan
zarbadan o'zini yo'qotib qo'yan Qora dev Mah-
mud polvondan ikkinchi zarbani olib, maydon o'r-
tasida bo'y baravar gursillab yerga quladi, Qora dev-
ning yengilganidan sarosimaga tushgan uning she-
riklari asta-sekin o'zlarini chetga ola boshlashdi, bu-
ni sezgan Mahmud polvonning sheriklari tezlik bi-
lan ularning oldini to'sib, qurshab olishdi. Yiqilgan
Qora devning qo'l-oyog'ini mahkam bog'lab, uning
ustiga chiqib olgan Mahmud polvon:

— Sheriklaringga buyruq ber, o'z ixtiyorlari bi-
lan bo'ysunishsin, aks holda hammangizni u dun-
yoga ravona qilamiz! Tezroq buyruq ber! — deya Qora
devning boshini qayirib, o'ziga qaratdi.

Oyoq-qo'li bog'langan Qora dev Mahmud pol-
vonning baquvvat qo'llaridan boshini xalos eta ol-
masa-da, ingragan ovozda sheriklariga buyruq berdi:

— Hammangiz bo'ysunib, yerga yotinglar! Tez buyrug'imni bajaringlar!

Qora devning buyrug'iga so'zsiz bo'ysungan uning sheriklari birin-ketin yerga yotishdi. Mahmud polvonning ishorasi bilan hamma devlarning oyoq-qo'llari bog'landi. Mahmud polvon Qora devning oyog'ini yechib, bo'ynidan arqonlab, uni sheriklarining yoniga sudrab olib bordi-da:

— O'z yurtiga xiyonat qilganlarning jazosi nima? Bu xoinlar o'z yurtdoshlarining yuziga oyoq bosib, yurtining kulini ko'kka sovurib, yakson qildilar, — deb Qora devning sheriklariga birma-bir ko'z tashlab chiqdi.

— Mahmud polvon, bizni kechir, bu ishni o'z ixtiyorimiz bilan qilmadik. Bularning hammasi Maston kampirning ishi. Bizni u majburladi, qandaydir sehr yo'li bilan bizni yo'ldan urdi, — dedi Qora dev yerga tegib turgan kallasini zo'rg'a ko'tarib.

— Aslida xiyonatkorlarning jazosi o'lim, ammo biz kechirimli xalqmiz, Yaratgan egam bizdan ko'ra kechirimli. Men bu xiyonatkorlarni jazolamayman, yurtimizga qilgan avvalgi xizmatlarini hisobga olib afv etaman. Faqat bir shart bilan, ular Maston kampirni qo'lga olishimizda yordam berishlari kerak. Sizlar nima deysizlar, do'stlarim? — deya sheriklariga yuzlandi Mahmud polvon. Ular:

— Sen to'daboshisan, boshlig'imizsan. Sen nima qaror qilsang, biz uchun qonun, faqat bularga ishonsa bo'larmikan? Ishonchni oqlasharmikan? Yo yana Maston kampirga sotilib, o'z kirdikorlarida davom etisharmikan? — deya savol bilan Mahmud polvonga yuzlanishdi.

Shu payt Qora dev boshini ko'tarib:

— Biz qilgan xatoyimizni tushunib yetdik, endi bu xatolarimizni tuzatamiz, o'z mehnatimiz bilan gunohimizni yuvishga harakat qilamiz, shu yo'lda o'lim topsak ham rozimiz, bizni o'ldirmanglar, fursat beringlar, — dedi yalingan ohangda va sheriklariga yuzlandi: — Sizlar ham rozimisizlar? Biz o'z qilmishlarimizni tan olamiz va o'zimizni oqlaymiz, to'g'rimi?

Qora devning sheriklari ham baravariga yalingan holda:

— Rozimiz, tavba qildik, bizni kechiringlar, biz o'z jonimizni garovga qo'yib, yurtimiz uchun xizmat qilamiz, — deyishdi.

— Bizni Maston kampirning makoniga olib borasizlar. Agar Maston kampirni yengsak, yurtimiz ozodlikka erishadi. Yordamlaringizni Oqil bobo munosib taqdirlaydilar, xalqdan gunohingizni kechirib, afv qilishini so'raydilar, — deya javob qaytardi Mahmud polvon Qora dev va uning sheriklariga qarata.

— Biz qo'limizdan kelganicha sizlarga yordam beramiz, ammo Maston kampirning qarorgohiga kirish juda mushkul. Chunki qarorgoh qattiq qo'riqlanadi. Maston kampir qasrning atrofiga kuzatuv oynalari qo'ygan. U qasr atrofida bo'layotgan barcha voqealarning hamma-hammasini mana shu kuzatuv oynalari orqali ko'rib turadi. Biz sizlarni shu sehrlangan o'rmondan omon-eson o'tkazib qo'ya olamiz, xolos. U yog'iga bizning kuchimiz yetmaydi. Yo'limizdagi bu o'rmon sehrlangan. Maston kampir bizni sezib qolsa, hammamiz halok bo'lamiz. Shu-

ning ushun sizlarni o'rmonning orqa tomonidan — Maston kampir bilmaydigan yo'l bilan o'rmon chegarasidan o'tkazib qo'yamiz. O'rmondan u yog'i sahro, undan keyin Maston kampirning qarorgohi keladi. Faqat hiyla ishlatibgina uning joni saqlanadigan tuxumni qo'lga kiritish mumkin, shunda Maston kampirni yengish oson bo'ladi, — deb tushuntirdi Qora dev.

Qora devning gaplarini eshitib turgan Cho'pon ota gapga aralashdi:

— O'rmondan o'tib olsak, u yog'iga Yaratgan-ning o'zi yo'l ko'rsatadi. Shoshilishimiz kerak, vaqtdan foydalanib qolaylik.

XVII BOB. SAHRODAGI YULG'UN DARAXTI

Cho'pon otaning so'zidan keyin, suhbatga yakun yasali, Cho'pon ota va Mahmud polvon Qora devning yelkasiga, boshqa polvonlar esa qolgan devlarning yelkasiga mingashib, otlarini yaylovda qoldirishdi. Ular o'rmon chekkasidagi yashirin yo'l orqali uchib o'tib, bir sahroga yetib kelishdi. Sahro shunchalik qaqrab ketgan ediki, unda o'sayotgan yantoqlar-u sahroni o'ziga makon tutgan barcha turdagi o'simliklar suvsizlikdan qurib qolgan, sahroda yashaydigan parranda-yu darrandalar ham ko'rinmasdi. Hasharotlar yer ostiga kirib jon saqlasada, qushlarning qayerga g'oyib bo'lganini hech kim bilmasdi. Maston kampirning kibr va nayranglari hamma yoqni ostin-ustin qilib yuborgandi. Qora dev boshchiligidagi devlar galasi sahroning pastqam joyiga qo'nib, shu yerda polvonlar bilan xayrlashishlariga to'g'ri keldi va Qora dev:

— Endi bu yog‘iga biz bora olmaymiz, hamma-miz halok bo‘lishimiz mumkin. Faqat sizlarga Maston kampirning qarorgohidagina yordam bera olamiz, hozircha hech narsa bilmagandek, uning xizmatini qilib turaylik, aks holda Maston kampir sezib qolsa, uni yengish ancha mushkul bo‘ladi. Biz sizlarni topmadik va ko‘rmadik. Yurtimizdagi barcha yosh qizlar uning qo‘lida qullikda, buni ham unutmaslik kerak, — deya Qora dev polvonlarga yuzlandi, — Huv anavi tog‘ning cho‘qqisida ko‘rinib turgan bahaybat qasr Maston kampirning qasri.

— Qora devning so‘zi juda o‘rinli, bularga javob beraylik-da, yo‘lda davom etaylik. Ezgulik, yurt, xalq tinchligi yo‘lida yurgan insonlarga Yaratgan egamning o‘zi yordam beradi. Bu dev birodarlari-mizning Maston kampir qasrida yurganlari esa biz uchun foydali, menda ikkita sehrli oynacha bor, shuning bittasini Qora devga beraman, qasrda bo‘lib turgan voqealardan xabardor qilib turadi, — deya Cho‘pon ota qo‘ynidan ikkita kichkina oynacha olib, ikkovining ham yon tugmasini bosdi, oynalarning yuzlari yonib, yon atrofdagi voqealarni ko‘rsata boshladi va oynachalardan birini Qora devga tutqazib: — Inim, bu oyna sehrli, uning ikkita tugmasi bor, biri oynani ishlatadi, biri oyna kimning qo‘lida bo‘lsa, egasini ko‘zga ko‘rinmas qilib qo‘yadi. Agar xatolaringni tushunib, yurtim, desang, Maston kampirning yaqin do‘stiga aylan-da, u haqidagi ma’lumotlarni bizga yetkazib tur yoki oynani uning taxti tepasiga ko‘rinmaydigan qilib osib qo‘y!

— Rahmat, Cho‘pon ota, biz chin dildan tavba qilganmiz, va‘da berdik, devlarning so‘zi — so‘z,

ogʻzidan chiqdimi, gapidan qaytmaydi. Bizga xatolarimizni aytib, toʻgʻri yoʻl koʻrsatganlaringiz uchun sizlardan minnatdormiz. Yurtimiz uchun jonimizni berib xizmat qilamiz va xalq ishonchini oqlaymiz. Choʻpon ota, endi vaqtni qoʻldan boy bermay, bizga oq fotiha bering, biz oʻz ishimizga kirishaylik. Yaratgan nasib etsa, tez kunda diydor koʻrishamiz, — dedi Qora dev Choʻpon ota, Mahmud polvon va boshqa polvonlardan ketishga ruxsat soʻrab.

— Yaratgan egam hamroh boʻlsin, oʻz panohida asrasin va tez kunda yurtimiz ozodlikka erishsin! — deb duo qilib, hammaning roziligi bilan devlarga ketishga ruxsat berdi.

Devlar uchib ketgach, Choʻpon ota va Mahmud polvon oldinda, qolgan polvonlar sahraning yashirin yoʻli bilan piyoda yoʻlga tushishdi. Bu yashirin yoʻlni ularga Qora dev koʻrsatgan edi, chunki Maston kampir hali xiyonat yoʻliga oʻtmasdan oldin, Qora dev boshchiligidagi devlar toʻdasi Ezgulik shahrining tinchligi yoʻlida bu yashirin yoʻl orqali koʻp yurishgan edi, bu yoʻlni faqat u bilardi. Yoʻl yurishdi, yoʻl yurishsa ham moʻl yurishdi, horib-charchab, dam olishga toʻxtaganlarida juda yaqin artofdan mungli chiyillagan tovush eshitildi. Hamma hayron boʻlib, har tomonga quloq tutdi va tarqalib, ovoz egasini qidira boshladi. Bir payt Mahmud polvon hamrohlarini yoniga chaqirdi. Hamma Mahmud polvon yoniga yigʻildi. Mahmud polvon toʻrda oʻralib qolgan kalamushlar toʻdasi yonida toʻrni kesish bilan band edi. Qolgan polvonlar ham uning yoniga choʻkkalab, unga yordamlashishga kirishishdi. Toʻr juda mayda toʻqilganligi uchun biroz vaqt talab qildi. Hamma kalamushlar ozod boʻldi va bor ovozda chi-

yillab, minnatdorchilik izhor qilishdi. Ulardan biri insonlar tilida:

— Assalomu alaykum, odamlarning yaxshilari! Sizlarga Yaratganning yaxshiliklari yetsin. Biz bu tutqunlikda ancha vaqtdan buyon qiynalib turgan edik. Sizlar sababli ozodlikka chiqdik. Sizlarga men — kalamushlar podshohi barcha kalamushlar nomidan minnatdorchilik izhor etaman. Biz bu to'rga Maston kampirning sehri bilan tushib qoldik. Biz hov anavi qurib qolgan yulg'un daraxti ostida o'z kulbamizda yashar edik, — deya sal nariroqda suvsizlikdan qovjirab, qurib qolgan bahaybat yulg'un daraxtiga ishora qildi va Maston kampir bilan yulg'un voqeasini gapirib berdi. So'ng: — Bizlarga yordam berdinglar, endi biz ham sizlarga yaxshilik bilan javob berishimiz adolatdan bo'ladi. — Kalamushlar podshohi bitta mittigina uzukni cho'pon otaga berib: — Xizmatimiz lozim bo'lsa, shu uzukni tuproqqa ishqalasangiz, o'sha zahoti hozir bo'lamiz. Faqat yulg'un daraxtiga juda yaqin bormanglar, u sehrlangan, — deb xayrlashdi va hamma kalamushlarni ergashtirib, yerni qazib, kulbalari tomon kirib ketishdi. Polvonlar yulg'un daraxti yaqinida, kalamushlarning ortidan kuzatib qolishdi. Suvsizlik oqibatida qovjirab, qurib qolgan yulg'un daraxti atrofga soya solmayotgan bo'lsa-da, yashagisi, yana ko'karib o'sgisi kelayotganligi bilinib turardi.

Qanday qilib yulg'un daraxtini sehr-jodudan xalos qilish mumkin, degan savol polvonlarni o'ylantirib qo'ydi. Shunda Cho'pon ota ularga:

— Axir bizda „Ezgulik“ kitobi bor-ku, undan so'raylik-chi, shoyad buning yo'li topilsa, — deya

safar xaltasidan „Ezgulik“ kitobini olib, „Ezgulik“ degan yozuvni uch bora siladi-da:

— Kitobim, bizga yordaming kerak, yulg'un daraxtini sehr-jodudan xalos qilish yo'lini bizga o'rgat, — dedi.

— Meshlaringizdagi Ezgulik bulog'ining suvidan unga ozgina seping, — dedi „Ezgulik“ kitobi o'zidan jozibador nur taratib.

Mahmud polvon meshdagi Ezgulik bulog'ining suvidan bir necha tomchi yulg'un daraxtining tagiga quydi, buloq suvi darhol uning butun tanasiga tarqalib, bir zum o'tmasdan unga hayot baxsh etdi, uni sehr-jodudan xalos etdi. Ko'z yumib ochguncha yulg'un daraxti barg yozib, yam-yashil tusga kirdi va atrofidagi odamlar ustiga o'z soyasini tashlab, mayin shabada hadya etdi.

— Rahmat sizlarga, mening xaloskorlarim, meni azobdan qutqardinglar. Bir kampirga yaxshilik qilib, shu uqubatga duchor bo'ldim. Men ikkita xatoga yo'l qo'ydim, biri — manmanlik qilib, sahroga quvilganim va ikkinchisi — shu kampirga yaxshilik qilib, tanamdan hassalik uchun yog'och berganim. U kampir meni sehr-jodu bilan shu ahvolga giriftor qildi. Hammasiga o'zim aybdorman, sinamasdan yaxshilik qildim, — deya o'z boshidan kechirganlarini bayon qildi.

— Hechqisi yo'q, hali hammasi o'z o'rniga tushadi. Buning uchun o'sha seni sehr-jodu qilgan Maston kampirni yengishimiz kerak, mana shu maqsadda biz bel bog'lab, mamlakatimizning eng sara polvonlari bilan yo'lga chiqdik, — dedi Cho'pon ota yulg'un daraxtining yangi o'sib chiqqan barglarini barmoqlari bilan ohista silab.

— Men ham bu ezgulik ishiga o‘z hissamni qo‘shay, mening tanamdagi gul va barglardan olinglar, chunki Maston kampir mening gul va barglarimdan olib, sehr-jodusini ishga solib aytgan so‘zlari elas-elas yodimda: „Agar kimki sening gul va barglarindan olib, bu sehrli hassaga sohib yuborsa, hassa o‘z kuchini yo‘qotadi“, degandi. Shuning uchun gul va barglarimdan olinglar, uning sehr-jodusi tugatilsa, shodlikdan boshim osmonga yetardi. Yon atrofidagi sahro ham bu sehr-jodudan qutulib, jonlanardi, — deya o‘z tanasini egib, polvonlarga tutib berdi.

Cho‘pon otaning ishorasi bilan Mahmud polvon uning tanasidagi gul va barglaridan ozroq uzib oldi.

Tun oxirlab, tong ota boshladi, quyosh asta-sekin bu yovuzlik qoplagan makonni yoritmoq uchun samo uzra ko‘tarila boshladi. Issiqning zo‘ridan noiloj o‘z uyasiga bekinib olgan sahro jonzoatlari sekin chiqib, Yaratgandan o‘z tilida bu azoblardan qutqarishini so‘rab, iltijoli xirgoyilarini boshlashdi. Mahmud polvon va Cho‘pon ota boshchiligidagi polvonlar yulg‘un daraxti bilan tez kunda diydor ko‘rishishlarini aytib xayrlashdilar va o‘zlariga yashirinish uchun joy topmoqqa shoshilib yo‘lga tushdilar.

XVIII BOB. MASTON KAMPIRNING QASRIDAGI VOQEALAR

Tong otib, Quyosh bobo o‘zining g‘azabli nurlarini Maston kampir yotgan xona oynalaridan uning badbashara yuzidagi beso‘naqay ko‘zlariga socha boshladi. Quyosh boboning g‘azabli nurlari

uning koʻzini ochishga majbur qildi. Maston kampir erinchoqlik bilan koʻzini ochib, kir sochlarini yigʻishtirib, yostiقدan boshini koʻtardi va:

— Zumrad, hoy Zumrad, koʻppakka aylangur, qayerdasan, — deya qargʻab Zumradni chaqira boshladi.

— Shu yerdaman, sizning turishingizni eshik yonida kutib turibman, nima xizimatingiz bor, buyuring, — dedi Zumrad uning yuzini koʻrmaslik uchun boshini yerga egib, ichida Yaratgandan kampirning iskanjasidan ozod etishini soʻrab.

— Nega shumshayib turibsan, nonushtam tayyormi yo yana kimningdir koʻppakka aylangisi kelib qoldimi?

— Ha, tayyor. Yuvinib, oshxonaga kiring, das-turxonga siz yoqtirgan taomlar tortilgan.

— Yoʻq, men shu yerda ovqatlanaman, yuvinishga hojat yoʻq, qoʻllarim toza, mana, qara, — dedi-da, yuvinishga erinib, oʻzining kir-mogʻor bosgan qoʻllarini va qiyshayib oʻsgan tirnoqlarini bigiz qilib Zumradga koʻrsatdi.

Zumrad uning kir qoʻllariga eʼtibor bermay, boʻysunishga majburligini tan olib, Maston kampir buyrugʻini bajarish uchun xonadan chiqdi. Zumrad dugonalari bilan birga Maston kampirning nonushtasini uning yotoqxonasiga koʻchirishdi. Maston kampir xizmatkorlariga ketishga ishora qildi-da, das-turxondagi taomlarni hayvonlarga xos har tomonga sohib, apil-tapil, aralash-quralash qilib ogʻziga sola boshladi. Ovqatlanib, qoʻl-ogʻzini artib ham oʻtir-may, sakrab oʻrnida turdi-da, bugungi ishni nima-dan boshlash kerakligini rejalashtira boshladi. Qirolicha ekanligidan mamnun boʻlgan holda oʻzidan

o'zi xursand bo'lib qo'ydi. Bu qirollik unga vaqtinchalik ekanligini tan olmay, o'zining xom xayollariga berilib, unga qarshi urush boshlagan Oqil bobo va uning odamlarini yo'q qilib, butun Ezgulik shahrining qirolichasi bo'lishni ko'ngliga tugdi. Oqil boboning odamlarini sehrli oyna orqali kuzatish uchun uning yoniga kelib:

— Hoy, sehrli oyna, menga Oqil boboning odamlarini ko'rsat! — deb oynaga buyruq berdi. Oyna oqardi-yu, ammo hech narsa ko'rsatmadi. Maston kampir hayron bo'lib, do'q-po'pisasida davom etdi: — Men senga Oqil boboning odamlarini ko'rsat, deyapman!

Ammo sehrli oynada hech narsa ko'rinmadi. Jahli chiqqan Maston kampir yonida turgan oyna tozalovchi buyumning temir dastagi bilan sehrli oynani qattiq urgan edi, oyna chil-chil bo'lib sinib, atrofga sochilib ketdi. Oynani sindirib qo'yganidan ko'zlari kosasidan chiqqudek bo'lib:

— Zumrad, hoy Zumrad, — deya baqira boshladi.

Oradan bir soniya ham o'tmay Zumrad:

— Labbay, xizimatingizdaman, nima buyuradilar? — deb Maston kampir turgan xonaga yugurib kirdi. Kirdi-yu, sehrli oynaning singanini ko'rib, eshik yonida qotib turib qoldi. Zukko va aqlli Zumrad Maston kampir uxlab yotganida sehrli oynaga yozilib qolgan voqealarni ko'rib, so'ng uning xotirasini o'chirib tashlagan edi. Bundan bexabar Maston kampir uni sindirib tashladi. U:

— Nega qaqqayib turibsan, tozala buni, bir zar-rasi ham qolmasin! — dedi-da, oyog'i kuygan tovuqday, shoshganicha taxti turgan xonaga o'tib ketdi. U xonaga kirishi bilan ko'zi Qora devga tushdi.

— Sen mening taxtim turgan xonada nima qil-yapsan? Nima? Meni o'ldirmoqchimisan? Xom xayol qilma, landavur, sen daraxtning shoxida yursang, men bargida yuraman, — deya ingichka, qoqsuyak qo'llari va kurakday o'sib ketgan tirnoqlari bilan uning bahaybat qulog'i ostiga tortib yubordi:

— Shohim, umringiz boqiy bo'lsin! Bunday xayollarga borishim nonko'rlikning o'zginasi-ku. Axir siz biz devlarni xizimatingizga olib, boshimizni siladingiz, Ezgulik shahrining kulini ko'kka sovurganingizdek, bizlarni ham o'ldirib yuborsangiz nima qila olardik. Biz devlar jamoasi sizning sodiq xizmatkorlaringizimiz, — dedi Qora dev hech narsa bo'lmaganday, Maston kampirning ishonchini oqlash uchun.

Aslida devlarning so'zi so'z, Qora dev Mahmud polvonga bergan va'dasiga vafo qilib, Cho'pon ota bergan oynani Maston kampirning taxti tepasiga osib qo'yib bo'lganda Maston kampir u xonaga kirgan edi.

— Unda yaxshi, kechagi buyrug'im nima bo'ldi? Mahmud polvon bilan uning qurbaqa sheriklarini topdingmi?

— Shohim, bir qoshiq qonimdan keching, men xizmatkoringiz dev sheriklarim bilan butun o'rmonning tit-pitini chiqardik, ammo, ming afsuski, ularning izlarini ham topa olmadik. Yer yutdimi yoki osmonga chiqib ketishdimi, bila olmadik.

— Nima uchun topa olmaysanlar! Bo'lmasa nega qaqqayib turibsan bu yerda, yo'qol ko'zimdan, ularni top va yo'qot! Tashqaridagi qo'riqchilarga ham tayinla, qasringa pashshani ham yo'latishmasin! —

deb baqirgancha Qora devni haqoratlab, huzuridan haydadi.

Qora dev o'z vazifasini aytilganidek bajarganidan ko'ngli to'lib, tashqariga chiqdi va sheriklari bilan osmonga uchib, Maston kampirning qasridan uzoqlashdi.

Sehrli oynasini sindirib, Qora devni haqoratlab, jahl otidan tushmagan Maston kampir sehrli hassasini yerga qattiq zarb bilan urdi. Uning qo'lidan siltanib chiqib ketgan sehrli hassa qasrning shiftiga tegib, Maston kampirning oyog'iga kelib urildi. Hamma yoqni tutunga to'ldirgan hassa:

— Menga nima xizmat buyuradilar, — deya uning yonida to'xtadi.

— Voy oyog'im, voy jonim, oyog'imni sindirding, yer yutgur, — deya oyog'ini changalladi. — Menga boshqa sehrli oyna yasab ber!

— Buning iloji yo'q, men har bir sehrli ishni bir bora bajara olaman, siz yana sehrli oynaga ega bo'lishingiz uchun boshqa hassa yasashingiz lozim bo'ladi.

— Nega? Axir Manman kitobning aytishi bo'ycha sen hamma narsa qila olishing kerak-ku!

— To'g'ri, hamma narsa qila olaman, faqat bir bora, lekin ezgullikka qarshi chiqa olmayman. Chunki ezgulik bor joyda sehr kuchi ish bermaydi.

Manmanlikning umri qisqaligini bilsa-da, otdan tushsa ham, egardan tushishni istamagan Maston kampir buyruq berishda davom etdi:

— Unda qasrimning atrofini tikanli sim bilan o'rab tashla!

Hassa:

— Amringiz bajariladi, — dedi-da, balandga sakragancha, hamma yoqni tutunga toʻldirib yubordi.

Maston kampir taxtiga oʻtirib, oyoqlarini yerdan uzib, besoʻnaqay koʻzlarini yumib, tebrangancha yangi rejalarni xayol qilib kunni kech qildi.

XIX BOB. AJDAR QUSH

Yovuzlik hukm surayotgan yer yuziga oʻz nurini jahl bilan sohib, oʻz qarorgohi tomon yoʻl olgan quyosh, oʻzining ish vaqti tugaganligini bildirib, atrofiga qizil shafaqlar hosil qildi-da, tezroq bu yovuzlikka barham berishini Yaratgandan umid qilib, oʻzining makoniga asta-sekin berkinib oldi. Oymoma ham asta bosh koʻtarib, oʻzining yulduz bolalarini yoniga chorlay boshladi.

Choʻpon ota va Mahmud polvon boshchiligidagi polvonlar yashirin yoʻl atrofidagi kattagina bir gʻordan qoʻnim topgan edilar. Kunbotardagi qushlarning onda-sonda gʻamli sayrashidan quyosh botib, kech tushganligini sezdilar va taomlanib, yana yoʻlga tushdilar. Yashirin yoʻlning ikki tomoni baland-baland qoyalardan iborat boʻlib, u yer-bu yerda qurib qolgan daraxtlarni hisobga olmaganda, hech qanday koʻzga tashlanadigan narsa yoʻq edi. Otlari oʻrmon yaqinida qolgan polvonlar uchun yelkalaridagi ogʻir xurjunlari, shuningdek, bu yuklar bilan piyoda yurish qiyinchilik tugʻdirmasdi. Chunki hamma polvonlar kuchli va baquvvat, qalblarida Vatan, xalq dardi bor edi.

— Maston kampirning qasri yaqin koʻringani bilan, yetib olish uchun koʻp yoʻl bosishimizga toʻgʻri keladiganga oʻxshaydi, nima deysiz, otajon? — deya

jimlikni buzdi Mahmud polvon Cho'pon otaga qarab.

— Yo'l azobi — go'r azobi, deydi dono xalq. Yo'limiz uzoq bo'lsa-da, biz yaxshi niyat bilan qadam bosyapmiz. Yaratgan egam biz bilan, safarimizni yengil qilishini o'zidan so'raymiz, bolam. Yaratgan egam bandalarini doim sinab turadi, bu ham bir sinov. Hayotda ikkita yo'l bor. Biri yaxshilik yo'li, ikkinchisi esa yomonlik yo'li, qaysi birini tanlash bandasining ixtiyorida. Cheksiz shukurlar bo'lsinki, bizni yaxshilik yo'liga yo'lladi, — dedi Cho'pon ota va Mahmud polvonga yuzlanib, — Yurtimizning sendek o'g'lonlari bor ekan, Maston kampirning yovuzligi barham topadi.

— Aytganingiz kelsin, ota!

Ular ancha yo'l bosishdi. Bir manzilga yetganda uzoqdan qandaydir to's-to'polon ovozi eshitildi. Birdan yer qattiq silkinib, yon atrofdagi qoyalar gumburlagan ovoz chiqarib, o'ziga yopishgan katta toshlarni yumalata boshladi. Osmonni qizil rang qoplab, qattiq shamol esdi.

— Bu Ajdar qushning to'poloni, ehtiyot bo'linglar! U juda xavfli qush, uning og'zidan chiqqan olov tekkan narsani kuydiradi, agar toshga tegsa eritib yuboradi. Men u bilan ham kuch sinashganman, ammo mashaqqat va hiyla bilan yenggan edim, — deya Mahmud polvon hamrohlarini xushyorlikka chaqirdi. — Yon atrofnı qarab, biror g'or ko'rinlsa, shu g'orga yashirininglar! Bu Ajdar qushni esa menga qo'yib beringlar!

— Bolam, bir o'zingni tashlab ketolmaymiz, polvonlardan bir nechtasini yoningga ol! — dedi Cho'pon ota.

— Otajon, xotirjam bo'ling, siz polvonlarni olib, biror joyga yashirininglar, — deb chaqqonlik bilan tepaga sakrab, bir necha bor havoda aylanib, yo'lning o'ng tomonidagi qoyaga jips yopishgan katta bir tosh panasiga o'zini urdi.

Cho'pon ota Mahmud polvonga Yaratgandan kuch-quvvat tilab, polvonlar bilan qoyalar atrofidagi g'orlardan biriga kirib ketishdi.

Borgan sari yer silkinishi kuchayib, hamma yoqni chang-to'zon qopladi. Osmondagi oyni to'sib, falakda bahaybat, uch boshli Ajdar qush paydo bo'ldi. Mahmud polvon jang san'atini puxta egallash bilan birga, boshqa ilmlarni ham mukammal egalagan edi. Ezgulik bulog'ining suvi sehrli kuchga ega ekanligini yaxshi bilganligi uchun yonidagi qilichini chiqarib, meshidagi Ezgulik bulog'ining suviga yuvdi va o'zi ham buloq suvidan to'yib ichib, yuz-qo'llarini yuvib oldi. Suvga yuvilgan qilich olovni o'chiradigan va o'tkirligi toshni kesadigan xususiyatga ega bo'ldi. Mahmud polvonning ham kuchiga kuch qo'shildi. Yuz-qo'li olovda kuymaydigan bo'ldi. Xurjunidan uzun teridan eshilgan arqon olib, yelkasiga osdi.

Ko'z ochib yumguncha Ajdar qush pastlay boshladi, u har tomonga olov purkar, dahshatli ovozda hamma yoqni larzaga solardi. Ajdar qush odam isini sezib, uch boshida atrofni kuzata boshladi, ammo hech qanday odamzodga ko'zi tushmadi. Mahmud polvon yashiringan joyidan turdi-da, qo'lga katta bir toshni olib, yo'lning chap tomoniga otdi. Otilgan tosh boshqa bir toshga urilib, olov chiqdi, Ajdar qush uchala boshini o'sha tomonga burdi, bundan foydalangan Mahmud polvon chaqqonlik bilan

bir sakrab, uning ustiga minib oldi. Yelkasidagi arqonni Ajdar qushning bo'ynidan o'tkazib, otni yuganlagandek uni yuganlab oldi, baquvvat qo'llari bilan tortib, Ajdar qushning chap yelkasidagi boshiga qilich soldi va qush qilich zarbidan qattiq yarador bo'ldi. O'zining raqibiga o'ng yelkasidagi boshi bilan hamla qilishga uringani ham foyda bermadi, chunki Mahmud polvon qilichini havoda aylantirib, ikkinchi zarbasini uning o'ng yelkasidagi bo'yniga solib ulgurgan edi.

Bunday kutilmagan ikkinchi zarba Ajdar qushni esankiratib qo'ydi. Yarador bo'lgan ikki boshi pastga osilib qoldi, taslim bo'lishni istamagan Ajdar qush o'rtadagi boshini ishga solib, hamma yoqqa olov purkab, qattiq pishqira boshladi. Mahmud polvon qilichini havoda aylantirib, o'ziga kelgan olovni kesa boshladi. Purkagan olovi raqibiga o'z ta'sirini ko'rsatmaganini sezgan Ajdar qush oyoqlarini yerga tirab sakray boshladi, qush har sakraganda Mahmud polvon havoda umbaloq oshib yana o'zining ustiga tushardi.

Ajdar qushning bu hiylasi ham ish bermadi. U har sakraganda o'zining bo'yni qayrilardi va Mahmud polvonning baquvvat qo'lidan qutula olmasdi. U sakrashni to'xtatib, yerda dumalay boshladi. Mahmud polvon Ajdar qush dumalagan paytda chaqqonlik bilan u dumalagan tomonning aksiga arqon tortdi va qattiq zarb bilan qushning oyoqlari orasida arqonni aylantirib, uni butkul yerga qulatdi. Ko'p urinishlari zoye ketgan Ajdar qush holdan toydi. Mahmud polvonga kuchi yetmasligini tan olib, hafsalasi pir bo'lib, uni o'ldirishga chog'langan Mahmud polvonga yalina boshladi:

— Ey, Ezgulik yurtining polvoni, qoyilman senga, men Maston kampirning sehri bilan seni yengaman, deb umid qilgandim, ammo eplay olmadim, sening botir raqib ekanligingni tan oldim. Iltimos, men nonko'rni o'ldirma. Qattiq pushaymonman, ko'zim ko'r ekan. Maston kampirning kirdikorlariga uchib, do'qlaridan qo'rqib, yurtimga, xalqimga qarshi bosh ko'tardim. — derdi charchaganidan halloslab, sog' qolgan boshidagi ko'zlarini yoshlab.

— Sen Ezgulik yurtining tuprog'ida tug'ilgansan. Shu yurtning nonini yeb, suvini ichib, havosidan nafas olib ulg'ayding, ota-bobolaring shu yurt uchun butun umrlarini bag'ishlashgan. Ustingda Oqil boboni olib yurib, tinchgina yurtingga xizmat qilib yurganding-ku, nega endi shakkoklik qilding? Atrofga boq, yovuzlikning oqibatini ko'r, hamma yoq qaqragan, qurigan. Yurtimiz vayron bo'lgan, xalqimiz og'ir ahvolda. O'z yurtingga yordam berish o'rniga unga qarshi chiqyapsanmi? — dedi Mahmud polvon Ajdar qushning bo'yniga bog'lagan arqonni yanada qattiqroq tortib.

— Men ilojisiz edim. Maston kampirning qo'lida asirlikda, uning sehri bilan bu ishga qo'l urdim. Qalbingizdagi ezgulik nurlari va sening qiliching zarbasi bilan o'zimga keldim. Endi men siz tomondaman, sizlarga yordam beraman! Sizlarni Maston kampirning qasriga yaqin bo'lgan bir g'orgacha olib borib qo'yaman. Iltimos, meni kechiringlar, qilgan xatolarimni tuzataman.

— Yaxshi-yaxshi, seni o'ldirmayman, hozircha ozod qilaman, yana shu yo'lni tutib, xatoga yo'l qo'ysang, teringni shilib, tanangni qiymalab tash-

layman. Chin dildan bizga xizmat qilsang, xalqimizning ham ishonchiga kirasan va yana otabobolaringdek xizmatga shay turasan!

— Albatta, aslo bu yo'lga qaytmayman. Vayron bo'lgan Oqil boboning qasrini qayta qurib, o'ldingidan ham ko'rkam qilib ta'mirlayman.

— Oqil boboning qasrini sen vayron qilganmiding?

— Ha, men vayron qilganman, Maston kampirning sehri bilan bu ishga qo'l urganman.

— Sen bizlarni Maston kampirning qasri yonidagi g'orga olib borib, o'z xatoyingni tuzatishga kirish. Barcha vayronagarchiliklarni tiklab, yurtimizni obod qilishga kirish! Maston kampirning ko'ziga ko'rinma! Hozir sening jarohatlaringga Ezgulik bulog'ining suvidan surtib qo'yaman, tezda davo topasan, — deb Mahmud polvon Ajdar qushning bo'ynidagi arqonni yechib, meshidagi Ezgulik bulog'ining suvidan Ajdar qushning jarohatlariga surtib qo'ydi.

Ajdar qush o'ziga kelib, jarohatlari tuzalgach:

— Sheriklaringni chaqir, ustimga mininglar, shoshilish kerak, tong otib, bizni Maston kampir sezib qolsa, hammamiz halokatga yo'liqamiz, — deya qanotlarini yerga yozib, odam bemalol minib oladigan holatda yerga cho'kdi.

Mahmud polvon sheriklarini chaqirdi. U bilan Ajdar qushning suhbatini eshitib, kuzatib turgan Cho'pon ota boshchiligidagi polvonlar g'ordan chiqib kelishdi. Cho'pon ota:

— Barakalla, o'g'lim, aqlingga va jasurligingga qoyil qoldik. Yurti, xalqi uchun jonini beradigan

qilib tarbiyalagan ota-onangga rahmat, — deya Mahmud polvonni quchoqlab, peshanasidan o'pdi.

— Men o'z yigitlik burchimni bajardim, xolos, ota. Qani, marhamat, uchar otimiz tayyor, minishni boshlab bering, — dedi Mahmud polvon Cho'pon ota va sheriklariga qarab, qo'lini ko'ksiga qo'y-gancha.

Hamma Ajdar qushning ustiga mingach, qush osmon-u falakka uchib, hali ko'kdagi Oymoma va yulduzlar o'z xizmatini tugatmasdan, ularni o'zi aytgan, ya'ni Maston kampirning qasri yaqinidagi g'orga yetkazib qo'ydi.

XX BOB. MASTON KAMPIRNING BOSHI GARANG

Oymoma tunda yuz bergan voqealardan dili shod bo'lib, o'zining bolalari bo'lmish katta-kichik yulduzlarni izidan ergashtirib, o'z joyini quyoshga bo'shatgancha, sekin-asta bulutlar orasiga yashirinib oldi. Quyosh yer atrofini aylanib, yana bu yovuzlik palak yozayotgan zaminga xafa holda boshini ko'tardi. Yon atrofiga qizil shafaqlarini yoyib, samo bo'ylab yuqoriladi. Sehrli oynani sindirgan Maston kampir tunda bo'lib o'tgan voqeadan bexabar, kecha quyosh botmasdan huzuriga Ajdar qushni chorlab, Oqilboboning yo'lga chiqqan polvonlarini topib, ularni tinchitishni buyurgan edi, ammo Ajdar qushdan darak bo'lmadi. Nima qilishini bilmay, erinib o'rnidan turdi va Zumradni chaqirib, ertalabki nonushtasini apil-tapil yeb oldi-da, taxtiga o'tirib, eshikdagi qorovul devlardan birini yoniga chaqirdi. Bu qorovul devlar ham Qora devga bo'ysunar edi,

boshlig'i bularga ham o'rmondagi kelishuv xabarini yetkazgan edi. Shuning uchun bu devlar ham o'zlarini chin xizmatkor ko'rsatsalar-da, ammo Mahmud-polvon va Cho'pon ota boshchiligidagi polvonlarni kutishardi. Tunda eshik yonida tikka turgan holda pinakka ketgan devlar Maston kampirning qahrli ovozidan ko'zlarini ochishga majbur bo'lishdi.

— Boshing kesilgurlar, bittang menga qara! Nima, quloqlaring kar bo'lib qolganmi, hassa bilan ochaymi? — deya ham qarg'ab, ham so'roqqa tutib qorovullarni chaqira boshladi.

Qorovullardan biri asta eshikni ochib:

— Xizmatingizga muntazirmiz, nima xizmat, buyuring! — dedi va Maston kampirga ta'zim qildi, ammo ichida unga o'lim tilab, „Qarg'ishing o'zingga ursin“, deb turdi.

— Ajdar qushdan darak bormi? Hali kelmadimi?

— Xabarimiz yo'q, biz o'z xizmatimiz bilan bandmiz, qasringizga pashshani ham yo'latmay, ko'z-quloq bo'lib turibmiz. Qasrga kelsa, bizning yonimizdan o'tgan bo'lardi-ku, qasrga kiradigan boshqa yo'l bo'lmasa, to'g'rimi?

— To'g'ri-to'g'ri, boshqa kiradigan yo'l yo'q. Senga ruxsat, o'z ishingni davom ettiraver! — deb qorovul devga ketishga ishora qilib, boshini changallab qoldi, — Nimalar bo'lyapti o'zi, tushunmay qoldim. Ajdar qush qayerda ekan, nega qaytib kelmadi yoki yer yutgur Mahmud polvondan yengilib, halok bo'ldimi? Sehrli oynada ko'rib turardim, endi u ham yo'q.

Maston kampir yana nimalar deb o'ziga o'zi gapirarkan, birdan xayoliga o'zining uchar mashinasi esiga tushib qoldi. Shoshib uni yashirgan joyidan oldi-da, saroydagi xizmatkor qizlarga ham, eshik yonidagi qorovullarga ham bir og'iz gapirmasdan, qasr tashqarisiga chiqdi. Uchar mashinasini boshqaruv uskunasi yordamida uchishga tayyorlab, unga mindi. Himoya kamarini taqib, osmonga ko'tarildi va mashinasining durbini orqali atrofni ko'zdan kechira boshladi. Dastlab o'rmonni yaxshilab kuzatdi, hech qanday o'zgarish sezmad, o'rmonda o'sha-o'sha yovuzlik hukm surardi. O'rmondan o'tdi va kekxa chinor yoniga borib, yerga qo'ndi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, chinor barglari ko'm-ko'k bo'lib, samoga bo'y cho'zgancha, atrofga o'z soyasini tashlab turibdi. Bu holatni ko'rgan Maston kampirning tili aylanmay qoldi.

— Bu qanday holat, vo ajab. Ezgulik qad rostlabdi, mening qirolligim tugaydiganga o'xshaydi, — deb o'ziga o'zi gapirib, ko'zlariga ishonmasdan chinor atrofini ikki, uch bora aylanib chiqdi.

— Ko'zlaringga ishonolmayapsanmi? Ishonaver, ko'rib turganlaring haqiqat, men yana o'sdim, Yaratganning izni bilan yana tabiatga foydam tegyapti, — dedi kekxa chinor, ko'm-ko'k barglarini shitirlatib, hayratdan nima qilishini bilolmay, boshi garangsib turgan Maston kampirga.

— Voy, sen, qariya chinor bu gapiy bilan men zo'rman, demoqchimisan, yo'q-yo'q, men bunga yo'l qo'ymayman, tomiringni quritaman. Sening ko'karganing mening yengilganimni bildirmaydi.

— Ovora bo'lasan, mening tomirimda „Ezgulik“ bulog'ining suvi aylanyapti, uni sen qurita olmaysan.

Sening qirolliging tugadi, yaqinda xor-u zor bo'lasan. Manmanlikning oxiri voy.

— Osonlikcha jon beradigan ahmoq yo'q, mening sehrli hassam va sehrli kitobim bor, ular yordamida o'z hukmronligimni davom ettiraman.

— Ezgulikni sening sehrli matohlaring yenga olmaydi, ularning kuchi bir martalik, xolos, ezgulikning kuchi abadiydir. Men ming yildan ko'proq yashadim, umrim davomida ko'p voqealarning guvohi bo'ldim, sendan oldin, Adolat bobo davrida ham shunga o'xshash hodisalarni ko'rganman va hammasining ham oxiri ezgulikning g'alabasi bilan yakun topgan.

— G'alaba emish, hali g'alabani tushingda ko'rasanlar, — deya Maston kampir g'ingshib-g'ingshib, o'zining uchar mashinasiga o'tirdi. Keksa chinorga bas kelolmasligini tan olib, chorasiz qolgancha, o'ljasini qo'ldan chiqargan bo'riday uvvos solib, jahl bilan osmonga ko'tarilib ketdi.

Maston kampir nima qilish kerakligini bilmay, miyasiga ularga qarshi biror fikr kelmay, yana atrofni ko'zdan kechirib, sahroda yakka o'sgan yulg'un daraxtini izlay boshladi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, qurigan yulg'un daraxti o'rnida go'zal bir bog' paydo bo'libdi. Quyosh bobo o'zining beg'ubor nurlarini bog'ga kulib sohib turardi. Bog'da tanasi yulg'un daraxtiga o'xshagan yuzlab daraxtlar o'sib, hammasi qizil-sariq mevalar tugib, ko'rgan odamga o'zgacha shodlik ulashib turganligiga guvoh bo'ldi. G'azabdan bosh ushlab:

— Nimalar bo'lyapti o'zi, mening qirolligimda bog' barpo qilishga kim ruxsat berdi? — deya hasasini mevasi pishib, kel, meni uzib ol, deb o'ziga

chorlayotgan mevali daraxtlarga o'q talib, bor ovozdada baqira boshladi.

— Men kimni ko'ryapman o'zi, sen aldoqchi, firibgar o'sha kampirisan? Bu yerlarga seni qaysi shamol olib keldi, hali ham tirikmisan? — deb so'z qotdi Maston kampirga bog'ning o'rtasida o'sgan ulkan daraxt, — Meni tanidingmi?

— Sen menga o'z tanasidan hassalikka yog'och bergan daraxtmisan? Hech ko'zlarimga ishonmayapman, men seni sehrlagan edim-ku.

— Ha, men o'sha, sen sehrlagan ahmoq daraxtman! Ahmoq bo'lib, sening yolg'onlaringga uchib, o'z tanamni senga beribman va sening yovuzliklaringga sherik bo'libman. Haliyam baxtinga yaxshi odamlar uchradi, bo'lmasa, shu sahroda qurib, yo'q bo'lib ketardim. Ming la'nat senga, o'z yurtingga qarshi chiqding, sen hali xor-zor bo'lasan, yalmo'g'iz kampir.

— Haddingdan oshma, ey, ovsar. Hoziroq kulingni ko'kka sovuraman, keyin mening kimligimni bilib olasan, o'z tanangdan bergan hassa seni yakson qiladi.

— Adashding, endi men sendan qo'rqmayman. Tomirimda ezgulik suvi oqyapti, endi sening sehring menga o'tmaydi. Tanamdan bo'lgan hassa menga o'z sehrini o'tkaza olmaydi, uning o'zi halokatga yo'liqadi.

Maston kampir sehrli hassa sehrining yo'qolishi haqiqatan shu daraxtga bog'liqligini bilib, uni qo'rqitishning foydasi yo'qligiga ko'zi yetib, hiyla yo'liga o'ta boshladi:

— To'g'ri aytasan, endi seni yengib bo'lmaydi. Tan oldim, men ham xatoyimni tushundim, ey,

daraxtlarning goʻzali, oʻsha senga ezgulik suvini ichirgan odamlar qayoqqa ketishdi, ularni koʻrishim kerak, ayta qol, iltimos, — dedi Maston kampir xuddi oʻzini ilōjsizlikka solib, koʻzlariga yolgʻondan yosh olib.

— Men hiylalaringga ishonmayman, sening koʻrinishing tuzalmaganingdan darak berib turibdi, bir marotaba aldanganim yetadi, faqat qilgan yovuzliklaring sababidan xor boʻlishingni istayman.

Yulgʻun daraxtining bu qargʻishlaridan boshiga ogʻriq kirgan Maston kampir daraxt bilan adi-badi aytib oʻtirish foyda bermasligini bilib, tezda uchar mashinasiga oʻtirdi. Qora dev, uning sheriklari hamda Ajdar qushni izlab topish uchun osmonga koʻtarildi va bu yerdan joʻnab qoldi. Ammo ularni hech qayerdan topa olmay, holdan toyib, qasri tomon yoʻl oldi.

XXI BOB. CHUMOLILAR VA KALAMUSHLARNING YORDAMGA KELISHI

Quyosh bobo samo uzra oʻzining beminnat nurini sochgancha, boʻlayotgan voqealarni koʻrib, chin dildan shodlandi. Ona zaminda ezgulikning qoʻli baland kelayotganidan, yovuzlik oʻz hukmini oʻtkaza olmay, xor boʻlayotganidan quvonib, asta-sekin oʻz oʻrnini Oymomaga boʻshatib berdi va bulutlar orasiga yashirindi. Oymoma bulutlar orasidan chiqib, atrofiga yulduzlarni yigʻib, tunning goʻzal oʻtishini Yaratgandan tilab, oʻz xizmatini boshladi.

Choʻpon ota va Mahmud polvon boshchiligidagi polvonlar Ajdar qush olib kelgan gʻorga yaxshilab joylashib olishdi. Gʻor juda keng boʻlib, uning oxiri

ko'rinmasdi, katta yo'lakdan kirishda ikki tomonda ikkita katta xona bor edi. Polvonlar ikkiga bo'linib, navbatma-navbat charchoqlarini chiqarish uchun ozgina-ozginadan dam olishardi.

Maston kampirning qasriga Qora dev o'rnatgan sehrli oynacha orqali ular Maston kampirning rejalaridan xabardor bo'lib, kunni shu g'orda o'tkazishdi. Maston kampir qasriga kelib, taxtining tagidagi joni joylashtirilgan qutichani olib, uni tekshirgani, qayta joyiga solib qo'ygani va sehrli kitobni qo'yninga solib, qasrdan olib chiqib ketgani — hamma-hammasini ko'rib turishdi. Kun tugab kech kirgach, hammalari to'planib, oz-ozdan tamaddi qilib olishdi, Ezgulik bulog'ining suvidan ichib, kuch-quvvatga to'lib, ishni nimadan boshlash haqida maslahatlashib olishdi.

— Mana, Maston kampirning qasri yaqiniga ham keldik, endi har bir ishimizni o'ylab qilishimiz kerak, aks holda rejamiz chappasiga ketishi mumkin. Chunki uning qasrida yurtimizning go'zal qizlari tutqunlikda, buni esdan chiqarmaslik lozim. Endi bu yog'iga bizga „Ezgulik“ kitobi yo'l ko'rsatadi, — dedi-da, safar xurjunidan avaylab kitobni olib, uning „Ezgulik“ yozuvini ohista uch bora siladi va: — Ey, kitoblarning sultoni, bizga maslahating kerak, ishni nimadan boshlaylik? — deb so'radi. „Ezgulik“ kitobi:

— Endi sizlarga chumolilar va kalamushlarning yordami kerak bo'ladi, ularni chaqirish kerak, — dedi o'zining oltin nurlarini atrofga sohib.

— Buning iloji bor, mening bir chumoli do'stim bor, u chumolilar podshohi. Cho'pon otani topishda bizga yordami tekkan, ismi Ishchan edi.

Uning ismini aytib chaqirsak, o‘z askarlarini olib, yordamga yetib keladi. Kalamushlar ham bizga va‘da berishgan, ularni ham chaqirsak, tezda yetib keli-shadi. Ular bizga qanday yordam bera olishlari mumkin? — deb so‘radi Mahmud polvon atrofidagi sheriklariga boqib.

— Buni men bilaman, kalamushlar kemiruvchi hayvonlar, chumolilar esa juda mehnatkash bo‘li-shadi. Men bu hayvonlar va hasharotlar haqida ki-toblarda o‘qiganman. Kalamushlar bizga Maston kampirning qasriga yo‘l ochib berishadi, chumolilar esa bizga uning joni joylashgan qutichani olib kelib berishadi, — dedi Abdukarim ismli qorachadan kel-gan polvon, ko‘zi quvonchga to‘lib.

— Barakalla, bolam, bilim hamma joyda ish be-radi. Sening bu maslahating juda o‘rinli, — deya Cho‘pon ota Abdukarim polvonning gapini tasdiq-ladi-da, „Ezgulik“ kitobini avaylab yopib, safar xaltasiga solib qo‘ydi. — Mahmud bolam, bo‘lmasa do‘stlarimizni chaqiraveringlar!

— Xo‘p bo‘ladi, otajon, — dedi Mahmud polvon va g‘orning kirish tomoniga chiqib, kalamush va sichqonlarni sekin chaqira boshladi.

Oradan biroz vaqt o‘tib, g‘or og‘ziga qushlar podshohi burgut kelib qo‘ndi, uning ustidagi kich-kina gilamchada son-sanoqsiz chumolilar to‘dasi joylashib olgandi, burgutning bo‘ynida bir xat ham bor edi. Chumolilar tezda yerga tushib, xuddi askar-lardek saflanishdi. Burgut Mahmud polvonga bo‘yniga osilgan xatni olishga ishora qildi, chunki Mahmud polvon qushlar tilini bilmasdi. U xatni olib maktub Oqil bobodan ekanligini bildi va uni Cho‘pon otaga olib kirdi.

— Cho‘pon ota, sizga xat keldi, Oqil bobodan, qushlar shohi burgut olib keldi, — Mahmud polvon shunday dedi-da, buklangan maktubni odob bilan Cho‘pon otaga uzatdi.

Cho‘pon otaning quvonchi ichiga sig‘may:

— Oqil bobodan xabar keldimi? Bu qanday xush-xabar, demak, ezgulikning g‘alabasi yaqin, — deb xatni olib, ovoz chiqarib o‘qiy boshladi:

„Assalomu alaykum, Cho‘pon ota va mening yengilmas o‘g‘lonlarim, sog‘omonmisizlar? Safar mashaqqatlari qiy-nab qo‘ymadimi? Bizda hammasi yaxshi, Yaratgandan ezgulik ustun kelib, yovuzlik yengilishini so‘rab, sabr qilib sizlarni kut-yapmiz. Ajdar qush biz bilan, bizning xiz-matimizni qilib yuribdi, shahar ta‘mino-tini hozircha to‘xtatdik, Maston kampir sezmagani ma‘qul. Barchaning nomidan salom!“

Xatning mazmuni bilan tanishgan barcha polvonlarning quvonchdan boshlari osmonga yetdi, chunki o‘z yaqinlarini juda sog‘inishgan edi-da. Hamma sukutga cho‘mdi. Bu jimlikni Mahmud polvon buzdi:

— Cho‘pon ota, chumoli va kalamushlar yetib kelishdi. Sizning buyrug‘ingizni kutib turishibdi.

— Juda yaxshi. Endi, bolalarim, shu tog‘ni teshib, Maston kampirning qasriga yo‘l ochishimiz va uning joni solingan qutichani qo‘lga kiritishimiz kerak. Albatta, buning uchun kalamushlarning yordami zarur. Hozir qasr turgan yerni aniqlab olish lozim. Burgut shu yerda bo‘lsa, unga ayting, bizga

Maston kampirning qasri g'orning qaysi tomonidalgini aniqlab bersin!

— Burgut shu yerda, — dedi qo'riqchi polvonlardan biri, — u xatning javobini kutyapti.

— Ajabo, xatning javobini berish yodimizdan ko'tarilibdi. Burgutni chaqiringlar, tez kirsin! — dedi cho'pon ota.

Burgut kirdi, hammaga boshini qimirlatib salom berdi va o'z tilida Cho'pon ota bilan nimalarnidir gaplashdi. Shundan so'ng burgut tog'ning u tomoniga uchib ketdi va bir necha daqiqadan so'ng qaytib keldi-da, cho'pon otaga qasr joylashgan hududni belgilab berdi va javob xatini olib, g'orni tark etdi. Maston kampir turgan makonni aniqlab olishgach, kalamushlar qasrning ro'parasidan yo'l ochishga kirishishdi.

XXII BOB. QIZLARNING SEHRLANISHI

Keksa chinor va yulg'un daraxtining yana qayta hayotga qaytib, gurkirab o'sgani Maston kampirni sarosimaga solib qo'ydi. Tuni bilan uxlay olmagan Maston kampir tongga yaqin qattiq uyquga ketdi. Zumradning ertalabki nonushta olib kelganini ham sezmedi. Zumrad uni qancha urinmasin, uyg'ota olmadi. Ammo Zumrad tunni yaxshi tushlar ko'rib o'tkazdi. Tushida sevgilisi Mahmud polvonni ko'rdi. Zumradga g'alabaning yaqinligini aytib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Uyg'ongach, yaxshi umidlar bilan o'zini xursand qildi. Tushini dugonalariga ham aytib berdi.

— Ilohim, tushingiz o'ngidan kelsin, opajon. Yaratganning o'zi bizga yordam bersin, — dedi Mus-

lima ismli qiz ko'ziga yosh olib. U qizlarning ichida eng kichigi edi.

— Siqilma, singlim, ko'nglim sezib turibdi, yaqinda ozod bo'lamiz, — deya opasi Mo'mina uni o'z quchog'iga oldi. — Ota-onamiz quchog'iga yetsak, bu ko'rgiliklar hammasi unut bo'ladi.

— Aytganingiz kelsin, singlim. Bu tutqunlikdan tezroq chiqaylik, — deb ular suhbatiga aralashdi Oydin ismli qiz. — Akam kelib bizni qutqaradilar. Men Mahmud akamga ishonaman.

Bu qiz Mahmud polvonning singlisi edi. Dugonalar suhbatini Maston kampirning qarg'ishli ovozi buzdi.

— Voy-voy, ozodlikni qo'msab qoldinglarmi? Hozir hammangni ko'ppakka aylantirib, qamab qo'yaman, qani, sizlarni kim tanirkan, — deb hassasini jahl bilan yerga ura boshladi.

Hassa hamma yoqni tutunga bostirib:

— Xizimatingizga tayyorman, buyuring, — deya aylana boshladi.

— Bu nonko'rlarning hammasini ko'ppakka aylantir. Bular ozodlikni qo'msab qolibdi.

Qizlarning dod-voyiga qaramasdan, Maston kampir hassaning sehri bilan ularni ko'ppakka aylantirib, bir xonaga qamab qo'ydi va xona kalitini bo'y-niga osib oldi. Maston kampir o'z qilgan ishidan mag'rurlanib:

— Hammasi mening qo'limda, nimani istasam shuni qilaman. Oqilboyni ham, Mahmud polvonni ham ko'ppakka aylantiraman, — deya bor ovozda baqirib, hassasini endi yerga uraman, deb ko'targan edi, hassa qo'lidan uchib ketdi. Hassaga kamon o'qi tegib, Maston kampirning qo'lidan chiqib ketgan edi.

Kamon o'qi hassaga tegib, Maston kampirning oyog'i ostiga tushdi. O'qdan sergak tortgan Maston kampir:

— O'qni kim otdi, bu qasrda menga qarshi chiqadigan bormi? Yana kim ko'ppakka aylanmoqchi? — dedi turgan yerda hamma yoqqa olazarak boqib.

— Bu men, Mahmud polvonman, bugun kuning tugadi, yovuzlikning muddati nihoyasiga yetdi! — dedi Mahmud polvon uchib borib devorga urilgan Maston kampirning hassasini qo'liga olarkan. — Endi hassangdan umidingni uz!

— Voy-voy, qo'rqitib yubording, juda qo'rqib ketdim. Sen osmondan tushdingmi? Hoy, Mahmud, meni yengish sening qo'lingdan kelmaydi, jonim qayerdaligini bilmaysan. Meni ming o'ldirsang ham, qayta tirilaveraman, tirilaveraman.

— Ha, osmondan tushdim, bu seni qiziqtirmasin! Sening joning, mana, — deya Mahmud polvon ichki cho'ntagidan Maston kampirga tanish qutichani chiqarib, unga ko'z-ko'z qildi.

Joni solingan qutichaga ko'zi tushgan Maston kampir:

— Yo'q-yo'q, bo'lishi mumkin emas, jonim solingan quticha sening qo'lingga qanday tushib qoldi? Sen baribir ocha olmaysan uni.

Mahmud polvon qutichani qo'liga olib:

— Shirin jonim, shirin jonim... — deb boshlaganda Maston kampir:

— Bas qil! Ishondim, — deb to'xtatdi.

— Jon shirinmi? — dedi Mahmud polvon va Maston kampirning hassasini bir qayirib sindirdida, yulg'un daraxtining yaproqlarini ezib, sochib

yubordi, hassa bir tutun chiqardi-da, kulga aylandi. — Mana, endi sening sehning tugadi, hoziroq „Manman“ kitobi qayerdaligini ayt!

— Aytmayman, aslo aytmayman.

— O‘lishni istab qolding, shekilli.

— Aytaman, aytaman, qasr tomida.

Shu payt qasrga birin-ketin Cho‘pon ota boshchiligida qolgan polvonlar kirib kelishdi.

— Nima gap, Mahmud o‘g‘lim? Maston kampirning jonini qo‘lga kiritdingmi? — dedi Cho‘pon ota bir Mahmud polvonga, bir Maston kampirga qarab.

— Albatta, otajon, joni qo‘limizda. Lekin qaysarlik qilyapti, hassasining kulini ko‘kka sovurdim.

— Qizlarimizni ozod etdingizmi, Mahmud og‘a? — dedi Omon ismli polvon, tevarak-atrofga ko‘z qirini tashlarkan.

— Hozir endi so‘ramoqchi edim, sizlar kirib kelib qoldinglar! — deb javob berdi-da, so‘ng Maston kampirga yuzlanib, — O‘g‘irlab kelgan qizlarni nima qilding?

— Ularni ko‘ppakka aylantirib qo‘ydim, endi ular o‘z hollariga qaytmaydilar, sababini o‘zing hal qilding. Hassamni sindirding.

— Voy, yalmog‘iz kampir-ey, seni o‘ldiraman, — deya Mahmud polvon qilichini qinidan sug‘urdi.

— To‘xta, to‘xta, bolam! O‘ldirish qochmaydi. Manmanlik odamning aqlini o‘g‘irlaydi, Maston kampir hozir yomon bo‘lsa ham senga ilm bergan ustozing, — deya Cho‘pon ota Mahmud polvonni jahlidan tushirdi.


— Ota, ko‘rmaysizmi, bu shum kampirni? Past kelay demayapti-ku!

— U o'zida emas, Odam otamiz bilan Momo onamiz shaytonning vasvasasi bilan taqiqlangan daraxtga yaqinlashishdi, ammo astoydil tavba qilishgan edi, Yaratgan egam kechirdi. Maston kampir ham yurtimiz uchun ko'p mehnat qildi, hammamiz uning yaxshiligidan bahramand bo'lganmiz. To'g'rimi, Maston opa, — deb Cho'pon ota Maston kampirga yuzlandi va uning yuziga ezgulik bulog'ining suvidan sepib yubordi...

Yuziga Ezgulik bulog'ining suvi tekkan Maston kampir Cho'pon otaning gaplarini eshita turib, qalbi yumshab ketdi. Butun tanini ezgulik egalladi va qilgan ishlaridan uyala boshladi. Boshini xam qilgancha:

— Bu yerdan tezroq chiqaylik, hozir qasr qulaydi, bu yovuzlik qasri. Meni kechiringlar, iltimos, Cho'pon ota, men qattiq adashdim. O'z yurtimga, o'z xalqimga qarshi bosh ko'tardim. Qizlarni ham olib chiqish kerak, mana kalit. Tezroq bo'l, Mahmud o'g'lim, — dedi Maston kampir qo'lidagi kalitni Mahmud polvonga uzatib.

Mahmud polvon tezlik bilan eshikni ochdi, eshik yonida Zumrad va qolgan qizlar turardi. Hammalari birgalikda qasrni tark etishdi. Qasr darvozasida devlar xizmatga shay turishgan edi, ular yordamida tog' tepasidan pastga tushishdi. Ular pastga tushganlarida yovuzlik qasridan biror-bir belgi qolmay, vayron bo'lib ulgurgandi. Chunki Maston kampirning qalbini ezgulik egallashi bilan qizlar ham, butun cho'l-u o'rmonlar va barcha-barcha jonivorlar ham sehrdan xalos bo'lgan edilar. Ularni pastda Oqil bobo kutib oldi, u ham Ajdar qushni minib yetib kelgan edi.



XOTIMA

Bilaman, yosh do'stim, senga Manman kitob haqida aytmabman. Manman kitob Qora devda edi, uning qo'l-oyog'ini kishanlab, qafasga solib, Oqil boboga topshirdi.

Shundan keyin Ajdar qushga minib olgan Oqil bobo boshchiligida qolganlar ham devlar yordamida yurtlariga qaytishdi. Vayron bo'lgan shahar o'rniga xalq birlashib, yangi shahar barpo etishdi. Maston kampir tavba qilib, o'zining xatosini tushunib yetganligi uchun kechirildi. Manman kitobni esa, o'z joyiga qamab qo'yishdi. Maston kampir yana o'z holiga qaytdi, yuzidan nur yog'ilib turuvchi avvalgi ustozga aylandi. Ezgulik shahriga ilm tarqatib, yana yurtning olqishiga sazovor bo'ldi. Mahmud polvon boshchiligidagi barcha polvonlarning to'ylari bir kunda o'tkazildi. Menga ham taklifnoma kelgandi, ularning xursandchiligiga sherik bo'lay, deb to'ylariga bordim, juda fayzli o'tdi, maza qildim. To'yda aziz mehmonlarga Ezgulik bulog'ining suvidan ulashishdi, men ham qonib ichdim. Mazasi hali ham og'zimdan ketmaydi. Oqil bobo va butun Ezgulik shahrining xalqi kelin-kuyovlarni duo qilishdi. Shunday qilib hamma murod-maqsadiga yetdi.

T A M O M

MUNDARIJA

ISTE'DOD QIRRALARI

3

OLIMJONNING SARGUZASHTLARI

YOXUD

ZAMON VA MAKON ORALIG'IDA

5

SEHRLI MAMLAKAT

95

84(5ŷ)6
Q-60

Quvvat, Otabek.

Olimjonning sarguzashtlari yoxud zamon va makon oralig'ida. Sarguzasht-fantastik qissa [Matn] / O. Quvvat. — Toshkent: „O'qituvchi“ NMIU, 2019. — 192 b.

ISBN 978-9943-22-322-6

UO'K: 821.512.133 — 31
KBK 84(5ŷ)6

OTABEK QUVVAT

**OLIMJONNING SARGUZASHTLARI
YOXUD ZAMON VA MAKON ORALIG'IDA**

(Sarguzasht-fantastik qissa)

*„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2019*

Muharrir *M. Nishonboyeva*

Badiiy muharrir *Sh. Toshturdiyev*

Texnik muharrir *N. Niyozmuhamedova*

Musahhih *E. Najimova*

Kompyuterda sahifalovchi *O'. Qurbonova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 012. 20.07.2018. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 27.05.2019. Bichimi 84×108^{1/32}. Kegli 11 shponli. Times garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozi. Shartli bosma t. 10,08. Hisob-nashriyot t. 7,65. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma №213 -19

O'zbekiston Respublikasi Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 206. Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 1- uy. Shartnoma № 165-18.